CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

10-SINF

O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi
tomonidan nashrga tavsiya etilgan

TOSHKENT – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO'K 355.274(072)
KBK 68.49

Sotvoldiyev A. Y., Yoqubov A. F., Bo‘tayev A. M.
Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik 10 [Matn] : o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma / A. Y. Sotvoldiyev [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 176 b.

Taqrizchilar:

Uzaqov A.	–	Nizomiy nomidagi TDPU harbiy ta’lim fakulteti boshlig‘i, podpolkovnik;
Abdullayev A.	–	Buxoro davlat pedagogika instituti harbiy ta’lim fakulteti o‘quv bo‘limi boshlig‘i, kapitan;
Yuldashev Sh.	–	Toshkent shahar Uchtepa tumani XTV tasarrufidagi 4-umumiy o‘rta ta’lim maktabi harbiy ta’lim rahbari.



Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

ISBN 978-9943-8828-7-4

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Kirish 4
I. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fani 5
II. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik darslarining turlari, metodlari va o‘qitish vositalari 7
III. Faol va interfaol o‘qitish texnologiyalari (metodlari) 13
IV. Interfaol metodlarning mohiyati va qo‘llanilishi 24
V. Grafik tashkil etuvchilar (grafik organayzerlar) 104
VI. Dasturning o‘quv bo‘limlari bo‘yicha texnologik xaritalar 119
VII. O‘quv faoliyatining yakuniy natijalari 152
Foydalanilgan adabiyotlar 175

KIRISH

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani bo‘yicha ushbu qo‘llanma “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tizimlarida o‘quv dasturlarining uzviyligini ta’minlash konsepsiyasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori ijrosi sifatida soha vakillari, tajribali professor-o‘qituvchilar, metodistlar tomonidan tayyorlandi.

Ushbu konsepsiya va dasturlar Ta’lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi Ilmiy-metodik Kengashining 2021-yil 29-oktyabrdagi yig‘ilish (3-son bayonnomasi) qarori bilan loyiha sifatida O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha, Xalq ta’limi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklariga tajriba-sinovdan o‘tkazish va vakolati doirasida tasdiqlab, amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiya etildi.

Konsepsiya va dasturlarda qayd etilgan talablarga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

– metod va ta’lim texnologiyalarining zamonaviy shakllaridan foydalanish;

– masofaviy o‘qitish tizimini yaratish va uni o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishi uchun joriy etish;

– o‘quvchilar bazaviy bilimlari darajasini, har biri o‘quvchining qiziqish va qobilyatlarini hisobga olgan holda ular malaka va ko‘nikmalarini nazorat qilish.

Mazkur qo‘llanmada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5712-son Farmonida qayd etilgan o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish masalalariga ham a’lohida etibor qaratilgan.

I. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK O‘QUV FANI

O‘quvchi yoshlarimizda o‘z Vataniga, Prezidentiga sodiq, intellektual salohiyatli, sog‘lom va jismonan baquvvat avlodni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalari sirasiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi barcha ta‘lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani Davlat ta‘lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta‘lim mazmunini bajarish, o‘quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta‘lim mazmunini va o‘qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari sonining ko‘payganligi va ularni soha mutaxassislari bilan ta‘minlash, ayniqsa, ularning malakasini oshirish sur‘atining sifat hamda son darajasi past ekanligi ko‘zga tashlanib turibdi. Fanni o‘rganishda o‘quvchilarning psixologik, fiziologik va jismoniy xususiyatlari inobatga olindi va mazkur fan bo‘yicha vujudga kelgan quyidagi muammolarni hal qilish kun tartibiga qo‘yildi:

– xalqaro va DTS talablariga javob beradigan takomillashgan va mukammal chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik Nizomi va fan dasturini ishlab chiqish;

– yangi fan dasturi asosida, barcha talablarga mos keladigan va o‘quvchi yoshlar intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, eski darsliklardan tubdan farq qiladigan yangi darslik yaratish;

– fanni o‘qitishda har bir mavzu kesimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash metodikasini ishlab chiqish;

– sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bugungi kun talablaridan kelib chiqib takomillashtirish;

– fanning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ta‘lim samaradorligini ta‘minlashga xizmat qiladigan o‘quv-moddiy bazalar hamda o‘quv moddiy ta‘minotni barpo etish;

– pedagog-kadrlarning sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, ularni o‘qitish jarayonini tubdan qayta ko‘rib chiqish va zamon talabiga mos kadrlarni tayyorlash; ta‘lim muassasalarining chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik rahbarlarini malaka oshirishlarini sifat hamda son jihatdan jadallashtirish.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fanining maqsadi

Umumiy o‘rta maktablar, akademik litseylar va professional ta’limda chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining o‘quvchi-yoshlarga o‘qitilishidan asosiy maqsad Vatan himoyasi yo‘lida o‘zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglatish, kindik qoni to‘kilgan, avlod-ajdodlarining xoki-poyi qo‘yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini a’lo darajada ado etishlariga zamin yaratish uchun boshlang‘ich harbiy ta’lim berish, harbiy kasbga bo‘lgan e’tiqod va qiziqishlarini orttirish, shuningdek, to‘satdan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarda o‘zini va boshqalarni himoya qilish, davlatimizning ma’naviy va moddiy ne’matlarini saqlash yo‘lida oqilona tashabbus ko‘rsata oladigan jamiyatimizning fidoyi va vatanparvar a’zolarini tayyorlashdan iborat.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanining vazifalari

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik jarayoni o‘quvchi-yoshlarni Qurolli Kuchlarimizda harbiy xizmatni o‘tash davomida o‘zlarining konstitutsiyaviy burchlarini a’lo darajada bajarish, o‘ziga ishonib topshirilgan jangovar texnika va qurol-aslahalardan to‘g‘ri foydalanishni qisqa muddatda o‘zlashtirib olishlariga imkon yaratish, shuningdek, yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar (terrorchilik harakatlari, harbiy harakterga ega tahdidlar, qurolli to‘qnashuvlar, axborot urushlari va h. k.)da to‘g‘ri va tartibli harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofidagilarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy yordamni ko‘rsata olishni o‘rgatishdan iborat.

Yoshlarga harbiy ta’lim berishda ularga harbiy qismlar jangovar o‘quv faoliyatida bajariladigan mashq, harakat va amallarni mumkin qadar asliga yaqinlashtirilgan holda o‘rgatish ko‘zda tutiladi. Ta’lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani nazariy, amaliy va nazorat shaklida o‘tkaziladi.


Nazariy mashg‘ulotlar, asosan, ma’ruza yoki suhbat shaklida ta’limning pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalardan keng foydalanilgan holda o‘tkaziladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quv materiallarining asosiy tushunchalari, ta’riflari hamda mavzuning asosiy qoidalari mazmuni bayon etiladi. Adabiyotlar, sohaga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, Qurolli Kuchlar Nizomlari talablari izohlanadi.

Amaliy mashg‘ulotlar fan dasturi talablariga muvofiq jihozlangan o‘quv-moddiy bazalarda o‘tkaziladi. Nazorat mashg‘ulotlari dasturning “Harbiy ish asoslari”, “Otish tayyorgarligi” va “Amaliy jismoniy tayyorgarlik”, “Tibbiy bilim asoslari” bo‘limlari bo‘yicha mashg‘ulotlar faqat o‘g‘il bolalar uchun dala o‘quv mashg‘ulotlarining yakunida, “Harbiy xizmat asoslari” va “Fuqaro muhofazasi” bo‘limlari bo‘yicha mashg‘ulotlar mazkur bo‘limlar o‘qitilishi yakunlanishi bilan o‘tkaziladi.

DASTURNING BO‘LIMLARI BO‘YICHA YILLIK O‘QUV SOATLAR TAQSIMOTI (10-sinf)

№	Bo‘limlar nomlari	Soatlar
1	Harbiy-vatanparvarlik va harbiy san’at tarixi	3
2	Harbiy xizmat asoslari	6
3	Otish tayyorgarligi	5
4	Amaliy jismoniy tayyorgarlik	3
5	Harbiy ish asoslari	2
6	Fuqaro muhofazasi	10
7	Tibbiy bilim asoslari	4
8	Nazorat mashg‘uloti	1
Jami		34


II. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK DARSLARINING TURLARI, METODLARI VA O‘QITISH VOSITALARI




4. Qo‘shma dars Harbiy ta’lim tizimida eng keng tarqalgan dars turi. U boshqa dars turlariga oid elementlarning barcha yoki katta qismini tashkil etadi: yangi bilimlarni berish, tekshirish, mustahkamlash va boshqalar.



O‘qitish o‘qituvchi va o‘quvchilarning maqsadga yo‘naltirilgan birgalikdagi faoliyati bo‘lib, bu jarayonda o‘quvchilarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shakllanadi.




Hozirgi kundagi zamonaviy texnologiyalar



Ta’lim berish jarayoni quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1) o‘quvchilar oldiga topshiriq qo‘yish;	2) o‘quvchilarda bilimga bo‘lgan qiziqishni hosil qilish;	3) o‘quvchilar tomonidan yangi materialning qabul qilinishi;
4) qabul qilingan materialni tahlil qilish,	5) umumlashtirish, ilmiy tushunchalarni hosil qilish;	6) qonunlarni o‘zlashtirish;
7) egallagan bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish;	8) malaka va ko‘nikmalarni shakllantirish;	9) bilim, malaka va ko‘nikmalarni qo‘llash;
10) o‘quvchilar egallagan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish;	11) ta’lim berish natijalarini tahlil qilish.	

Pedagogikaning dolzarb muammolari!



Metodik to‘g‘ri yondashuv

Harbiy rahbar, chaqiruvga qadar tayyorgarlik o‘qituvchisining mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishining mantiqiy ketma-ketligi.

Harbiy rahbar, chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o‘qituvchisining mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishining mantiqiy ketma-ketligi

Mavzuni, baholash mashg‘ulot joyini, o‘quv-tarbiyaviy maqsadni aniqlash.

O‘quv savollarini belgilash va ularni ommalashtirish vaqtini bo‘lib chiqish.

Mashg‘ulotni olib borish uchun samarali uslublarni aniqlash, belgilash.

Adabiyotlarga muvofiq bo‘limlarni o‘rganib chiqish, qo‘shimcha adabiyot va nizomlardan moddalarni bilish.

O‘rganiladigan materialni boshqa umumta’lim fanlari bilan bog‘liqligini aniqlash zarur hollarda fan o‘qituvchilari bilan suhbatlashish va darslariga qatnashish.

Kerakli ko‘rgazmali materiallarni saralab, tanlab olish.

Namoyish etiladigan mashq va usullarini mashq qilish.

Mashg‘ulot o‘tkazishga jalb qilingan seksiya komandirlari bilan yo‘riqli, uslubiy mashg‘ulot.

Dasturning o‘quv bo‘limlari bo‘yicha texnologik xaritalarini tuzish.

Texnologik xaritalarga ilovalar tayyorlash.

Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani mashg‘ulotlarida ta’lim berishning ilg‘or uslublari

Ta’lim uslublari – ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi, ya’ni bilimsizlarni bilimga, malakasizlarni malakaga yetaklovchi faoliyat vositalari.

Bayon etish – asosiy o‘quv materiallarni tashkil qiluvchi hodisa va voqeliklarni qisqa, obrazli, emotsional bayon qilib berish. Bayon qilishning hikoya shakli bilan bir qatorda unda muhokama, tasvir elementlari ham mavjud.

Tushuntirish – murakkab savollar, qoidalar, tamoyillar, qonunlar va namoyish etishlar bilan birikkan, qurol va priborlarning qismlari, sxemalar, harakat usullari qat’iy tartibini mantiqiy bayon etish.

Ma’ruza – bayon etiladigan materialni keng yoyilgan nazariy yetkazilishining ilmiy tahlili. Ma’ruzaning bosh maqsadi ta’lim oluvchiga ularning kelgusi mustaqil ishida yordam berishdan iborat.

Suhbat – o‘quvchilarni yangi bilimlar bilan sodda va tushunarli qilib boyitishning ma’qul imkoniyatlaridan biri. Bu yerda suhbat o‘quv materialini muhokama qilish shakllaridan biri sifatida ko‘rib chiqiladi.

Mashq qilish – o‘quvchilarda malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, ularni takomillashtirish maqsadida ma’lum bir usul va harakatlar murakkablashtirilib boriladigan bir necha bor takrorlash.

Amaliy ish – qurol va jangovar texnika xizmati, saqlanishi, tejalishi, qurolni qismlarga ajratish va yig‘ishni bajarish. U o‘qitishning yakunida muhim va amaliy uslub hisoblanadi.

Ta’lim amaliyotida kompleks uslub eng keng tarqalgan. Bunda bir mashg‘ulotda ta’lim-tarbiyaning bir nechta uslublari ishlatiladi.

Taktik-saf va taktik mashg‘ulotlariga ta’lim oluvchilar avtomat maketlari, gazniqoblar, piyoda askar kurakchalari, kurakcha g‘iloflari hamda bayroqchalar bilan chiqadi.

Dasturlashtirilgan ta’lim uslubi – o‘quv materialini qismlarga yanada samaraliroq ajratish, mashg‘ulot rahbarining joylardan ma’lumotlarni, ya’ni ta’lim oluvchilar tomonidan o‘quv materialining har bir qismi o‘zlashtirilishi sifati haqida qaytarma aloqalar yordamida (mashina yordami yoki mashinasiz) uzluksiz olish.

Muammoli olib borish usulida o‘quvchilarga so‘nggi xulosalar e’lon qilinmaydi, balki faqat to‘g‘ri qaror qabul qilish va haqiqatga erishish uchun kerakli to‘g‘ri yo‘l-yo‘riqlar ko‘rsatiladi.

Ta’lim oluvchilarga o‘ta muhim qoida, sana, ta’rif, atama hamda nomlar haqida tushunchalar, ular bilan bog‘liq hodisa-voqealar tayanch konspektlari ta’lim uslubi (Shatalov uslubi) yordamida beriladi.

Musobaqali uslub – kim tez va yaxshi harakat qilishni tashkil etish, o‘rnatilgan me’yorlarni belgilangan vaqtda va sifatli bajarish. U ta’lim oluvchilarda tirishqoqlik, ilg‘orlarga tenglashishga intilish, ortda qolganlarga yordam berish va ularni ilg‘orlar darajasiga yetkazish xislatlarini rivojlantirish uchun yo‘naltirilgan musobaqali uslub bo‘lib, taktik, otish, saf tayyorgarligi va boshqa bo‘limlar bo‘yicha usullarni ishlab chiqishda va normativlarni bajarishda ishlatiladi.

O‘QITISH VOSITALARI

O‘qitish vositalari – o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etuvchi, shu bilan birga o‘qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar.

O‘qitishning texnik vositalari (O‘TV) o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etish, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi hamda o‘quvchilarga o‘quv materialini tushunish va yaxshi eslab qolish imkonini beradi.

Yordamchi o‘qitish vositalari (YO‘V) – grafik, chizma, namuna va hokazalar.

O‘quv-uslubiy materiallari (O‘UM) – o‘quv materiallari, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar majmui. Ular o‘quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi.

O‘qitish vositalarini tanlashni aniqlovchi omillar:

- maqsadni belgilash;
- o‘quv-axborot mazmuni;
- o‘qitish metodlari;
- yetakchi bilim manbayi;
- o‘quv materialining yangiligi va murakkabligi.

Grafik tashkil etuvchilar – fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositalari.

- 1-guruh. Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushuncha (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: “Klaster”, “Toifalash jadvali”, “Insert”, “B/B/B jadvali”.
- 2-guruh. Ma’lumotlarni tahlil kilish, taqqoslash usul va vositalari: “T-jadvali”, “Venn diagrammasi”.
- 3-guruh. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usul va vositalari: “Nima uchun?”, “Baliq skeleti”, “Piramida”, “Nilufar guli” sxemalari, “Qanday?” iyerarxik diagrammasi, “Kaskad” tarkibiy-mantiqiy sxemasi.

III. FAOL VA INTERFAOL O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI (METODLARI)

Faol metodlar ta’lim oluvchilarning bilim olish faoliyatini rag‘batlantiruvchi usuldir. Ular birorta muammoni yechish to‘g‘risidagi fikrlarning erkin almashinuvini nazarda tutuvchi dialog asosida quriladi.

Interfaol (*interactive* – dialogli) **metodlar** dialogli ta’lim berish, ya’ni ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi, ta’lim oluvchi va kompyuterning o‘zaro harakati orqali amalga oshiriladi.

Usullar guruhi	O‘zaro bog‘liq faoliyatni tashkillashtirish	Faoliyat mazmuni
I guruh	ma’ruza	*Ta’lim beruvchi* eng kam vaqt ichida katta hajmdagi o‘quv axborotini yetkazadi va xotirada qabul qilish, anglash va yig‘ishni tashkillashtiradi.
	hikoya	
	tushuntirish	
	yo‘riqnoma berish	
	namoyish	*Ta’lim oluvchilar* xotiraga qabul qiladi, anglaydi, yig‘adi, biroq xatosiz, ongli ravishda qayta tiklamaydi.
	ko‘rsatish	
	videousul	
II guruh	kitob bilan ishlash	*Ta’lim beruvchi* bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash, yangi bilimlarni qidirish, namuna bo‘yicha harakatlarni bajarish malaka va ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkillashtiradi.
	laboratoriya usuli	
	mashq	
	amaliy ish usuli	*Ta’lim oluvchilar* bevosita ta’lim beruvchi boshchiligida tahlil qiladi, taqqoslaydi, umumlashtiradi, tayyor namuna bo‘yicha amaliy harakatlarni bajaradi.
	vaziyatlar usuli	

III guruh	suhbat	*Ta’lim beruvchi* bilimning bir qisminigina ma’lum qiladi, ta’lim oluvchilarni bilimni izlab topish qadamlarini bajarishga yo‘naltiradi, turli muammoli vaziyatlarda o‘qish-o‘rganish jarayonini tashkillashtiradi.
	bahs	
	aqliy hujum	
	ta’limiy o‘yin	*Ta’lim oluvchilar* ta’lim beruvchining kuzatuvi ostida mustaqil taqqoslaydi, umumlashtiradi, xulosa qiladi, baholaydi va tahlil qiladi, muammoli holatlarni hal etadi va nostandart topshiriqlarni yechadi, murakkablashtirilgan sharoitdagi amaliy harakatlarni bajaradi.
	pinbord	
	insert	



Ta’lim berish metodlarini tanlash omillari

- O‘quv-axborot mazmuni hajmi va murakkabligi
- Ta’lim berish usullari, o‘quv-axborotini egallashiga ta’siri
- Ta’lim oluvchilarning o‘quv imkoniyatlari
- Vaqt sarfi
- Ta’lim berish sharoitlari
- Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning xususiyatlari
- Ta’lim oluvchilar soni
- Ta’lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari
- Maqsadni belgilash

An’anaviy ta’lim metodlari

Og‘zaki	Ko‘rgazmali	Amaliy	Kitob bilan ishlash	Videometod
hikoya, suhbat, tushuntirish, ma’ruza, munozara	Illyustratsiya, demonstratsiya	mashq, amaliy, laboratoriya, didaktik o‘yinlar	o‘qish, o‘rganish, reja tuzish, konspekt qilish	ko‘rish, o‘rganish, nazorat qilish

TA’LIMNING KEYS TEXNOLOGIYASI

Asosiy tushunchalar

Keys-stadi (ingl. *sase* – to‘plam, aniq vaziyat; *stadi* – ta’lim) – ta’lim oluvchilarni keysda bayon qilingan muammoni ifodalashga hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo‘naltiruvchi aniq, real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatning muammoli-vaziyatli tahlil etilishiga asoslanadigan ta’lim uslubi.

Keys-stadi – ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish, keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan, tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat ta’lim texnologiyasi.

Keyslar tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Daladagi
	2. Kabinetdagi
	3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujetning mavjudligi	1. Syujetli
	2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. O‘tmishdan hozirga kelish rejimidagi keys
	2. Vaqt orqaga qaytariladigan keys-xotira
	3. Prognostik keys
Keys obyekti	1. Shaxsiy
	2. Tashkiliy-institutsional
	3. Ko‘p subyektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya
	2. Esse
	3. Tahliliy yozishma
	4. Jurnalist tergovi
	5. Hisobot
	6. Ocherk
	7. Faktlar majmui
	8. Statistik materiallar majmui
	9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui

Hajmi	1. Qisqa (lo‘nda)
	2. O‘rtacha miqdordagi
	3. Katta (uzun)
Tuzilmaviy o‘ziga xos xususiyatlari	1. Tuzilmalangan
	2. Tuzilmalanmagan
O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli	1. Savolli
	2. Keys-topshiriq
Didaktik maqsadlari	1. Muammo, yechim yoki konsepsiyani izohlash
	2. Treningli, o‘quv mavzusi/predmeti bo‘yicha malaka va ko‘nikmalar orttirishga mo‘ljallangan
	3. Tahlil va baholashga o‘rgatuvchi
	4. Muammoni ajratish va yechish, boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishga o‘rgatuvchi
	5. Vaziyat subyekti rivojining yangi strategiyalari va yo‘llari, yangicha baholash uslublari kabilarni ishlab chiqishga rag‘batlantiruvchi
Rasmiylashtirish usuli	1. Bosma
	2. Elektron
	3. Videokeys
	4. Audiokeys
	5. Multimediali keys

Keys matnining yozilishi. Keysolog faoliyatining izchilligi
Qaror qabul qiladi:

Keys o‘z hajmiga ko‘ra qisqa yoki o‘rtacha miqdorda yoxud katta bo‘ladimi?
Bu savolli keysmi yoki keys-topshiriqmi?
Keysda muammo qanday usulda beriladi?
Keys tuzilmasi bo‘yicha qanday bo‘ladi?
Keys yozishga kirishiladi.


Keysda muammoni berish usullari

1-usul – keysolog muammoni ifodalaydi.

2-usul – vaziyatdagi muammo yaqqol ifodalanadi, lekin bunda vaziyatning zarur elementlaridan biri (masalan, sheriklar haqidagi) axborot bo‘lmaydi.

3-usul – matnda vaziyat subyektlari o‘rtasidagi ziddiyat mavhum ifodalanadi.

Keys tuzilmasi




Keysning pedagogik pasporti

1) pedagogik annotatsiya;
2) o‘quvchiga uslubiy ko‘rsatmalar;
3) o‘qituvchi-keysologning keysni hal etish varianti;
4) ta’lim texnologiyasi.

O‘quvchiga uslubiy ko‘rsatmalar

- muammo va kichik muammolar ifodasi;
- muammo yechimining algoritmi;
- vaziyatni tahlil etish va hal qilish varag‘i;
- baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari;
- o‘quv-uslubiy materiallar.



Keysni rasmiylashtirish

Keysni rasmiylashtirish yo‘llari:
1) qo‘lyozma yoki bosilgan variantda;
2) elektron variantda;
3) video variantida;
4) audio variantida;
5) multimediali variantda.

HAMKORLIKDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish pedagogik texnologiyasi

Guruhlarda ishlash – o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan, ishtirokchilarga qaratilgan ta’lim shakli. Bunda asosiysi topshiriq-natija emas, balki guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.


Hamkorlikda o‘qish tamoyillari

- guruhga bitta topshiriq;
- bitta rag‘bat: guruh barcha ishtirokchilari hamkorlikdagi ishining bahosi (umumiy natijaga erishish uchun guruhning barcha a’zolari sarflaydigan kuchi baholanadi) va akademik natijalari yig‘indisidan tashkil topgan bitta baho, ya’ni guruh (jamoa) muvaffaqiyati har bir ishtirokchining hissasiga bog‘liq;
- har birining o‘z muvaffaqiyati va guruhning boshqa a’zolari muvaffaqiyati uchun shaxsiy mas’uliyat hissi;
- hamkorlikdagi faoliyat: guruhda muzokara, hamkorlik, o‘zaro yordam berish kabi o‘zaro harakat usullari asosida tashkil topadi;
- muvaffaqiyatga erishishda teng imkoniyatlar: har bir o‘quvchi o‘z shaxsiy yutug‘ini takomillashtirish, shaxsiy imkoniyat, qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda o‘qishga berilgan bo‘lishi zarur, chunki u boshqalar bilan teng baholanadi.

KICHIK GURUHLARDA HAMKORLIKDA O‘QISH JARAYONINI TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK SXEMASI
I BOSQICH

Texnologik ishlar	Ta’lim beruvchi faoliyati
1. Guruhlarda hamkorlikda o‘qishni tashkillashtirish tayyorgarligini o‘zi baholashi, tahlil qilishi	Quyidagi savollarga javob izlaydi: Nima uchun men ta’lim oluvchilar guruhlarda ishlashini xohlayman? Men o‘zim bunga tayyormanmi? Men buni qanday amalga oshirishni bilamanmi? Ta’lim oluvchilarning o‘zlari bunga tayyormi? Ular guruhli shakl sharoitida ta’lim olish qoidalarini biladimi?
2. Maqsadni belgilash	Ta’limiy maqsadni belgilaydi va natijalarni rejalashtiradi.
3. Guruhli ishga zarur va o‘quv rejasida ajratilgan vaqt bo‘lagining o‘zaro nisbati	Mavjud o‘quv rejasiga muvofiq vaqt bo‘lagini, belgilangan maqsad va ko‘zlanayotgan natijalarga erishishni amalga oshirish uchun muhim bo‘lgan vaqt bilan o‘zaro bog‘lash. Guruhli ishni o‘tkazish mumkinligi to‘g‘risida xulosa chiqaradi.
4. O‘quv mashg‘ulotining modelini tanlash	Eng yaxshi model: 1) o‘quv topshirig‘ini barcha o‘quv guruhlariga tushuntirish; 2) kichik guruhlarda, ishni avval alohida, so‘ngra birgalikda tashkillashtirish, 3) guruh ishi natijalarining taqdimoti va uni jamoaviy yakunlash.
5. Guruhlar ish joyini tanlash	Auditoriya shunday bo‘lishi kerakki, bunda bir-biriga xalaqit bermasdan, bir necha guruh ishlashi zarur. Stollar va o‘rindiqlar polga mahkamlangan auditoriya to‘g‘ri kelmaydi.
6. Topshiriqni tanlash va uni ifodalash	Ta’limiy maqsadga mos keluvchi bir xil/tabaqalashgan topshiriqlarni tanlaydi. Uni ta’lim oluvchilarning qobiliyatlari, BMK darajasi va xususiyatlaridan kelib chiqib ifodalaydi. Bu esa barcha guruh a’zolarini topshiriqni bajarishda birgalikda ishtirok etishini ta’minlash imkonini beradi.
Bir turdagi guruhli ish o‘quv guruhlari uchun bir turdagi topshiriqni bajarishni nazarda tutadi. Tabaqalashgan guruhli ish guruhlarda turli topshiriqlarni bajarishni nazarda tutadi.	

7. O‘quv materiallari va yo‘riqnomalarni tayyorlash.	Guruhlar uchun quyidagilarni tayyorlaydi: yozma yo‘riqnomalar (guruh topshiriqni hamda uni bajarish yo‘lini tushunishi shunga bog‘liq); faqat yo‘riqnomani tushunishgina guruh ichida samarali ishni ta’minlaydi.
Yo‘riqnomaga qo‘yiladigan talab: *Yo‘riqnoma quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak:* • topshiriqning aniq ifodalanishi; • kutilayotgan natijalarga aniq yo‘naltirishi; • tajribada sinalgan bo‘lishi: yo‘riqnomani avval o‘zi bajarishi yoki hamkasbidan bajarishini iltimos qilishi; • guruh topshiriqni mustaqil bajarishi uchun tavsiyanomalar to‘liq bo‘lishi; • har bir ta’lim oluvchi uchun tushunarli qilib yozilishi.	
8. Ta’lim oluvchilarni hamkorlikda ishlashga tayyorlash	1) o‘quv guruhida xayrixohlik munosabat muhitini yaratadi, faqat shunda ular hamkoriy ishni samarali va ijodiy bajaradi; 2) ta’lim oluvchilar topshiriqlarni guruhlarda bajarish qoidasini bilishi va yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.
Guruhda ishlash qoidalari: • har kim o‘z o‘rtoqlari nutqini diqqat bilan tinglashi; • har kim faol, birgalikda ishlashi, berilgan topshiriqqa mas’uliyatli yondashishi; • har kim yordamga muhtoj bo‘lganda uni so‘rashi; • har kimdan yordam so‘ralsa, yordam qilishi; • har kim guruh ishi natijalarini baholashda ishtirok etishi; • har kim aniq tushunishi: 1. Boshqalarga yordam berib, o‘zimiz tushunamiz! 2. Biz bitta kemadamiz: yoki birga suzib chiqamiz, yoki birga cho‘kib ketamiz!	
9. Guruhlarga bo‘lish yo‘lini tanlash	Kichik guruhlarga birlashtirish yo‘lini tanlaydi. Ta’lim oluvchilarni kim guruhlarga bo‘lishini aniqlaydi. Agarda bajarish uchun turli topshiriqlar berilsa, ular guruhni o‘z qiziqishlari bo‘yicha tanlashi mumkin.
10. Guruh ish joyini tayyorlash	**Xonada stol va o‘rindiqlar joylashtirilganda:** – ta’lim beruvchi auditoriyada erkin harakatlana olishi; – har bir guruh a’zosi bir joyda bo‘lishi, bir-birini ko‘rishi va eshitishi; – zarur o‘quv qo‘llanmalar barchaga yetarli bo‘lishi lozim.

Guruhlarni joylashtirish chizmasi


II. ASOSIY BOSQICH

Texnologik ishlar	Ta’lim beruvchi faoliyati
1. Ta’lim oluvchilarni guruhlarga taqsimlash	Tanlangan kichik guruhlarga birlashtirish yo‘li bilan ta’lim oluvchilarni guruhlarga bo‘ladi.
2. O‘quv topshiriqlarini tarqatish	1) bilim orttirishlik vazifasini belgilaydi (muammoli vaziyatni taklif qiladi), ta’lim oluvchilar bilan birgalikda uni yechish yo‘li va tartibini muhokama qiladi (amaliyotda amalga oshirish); 2) ish yakuni bo‘yicha qanday natijalar kutilishini tushuntiradi; 3) guruhlarda hamkorlikdagi faoliyatni taqdim etish shaklini ma’lum qiladi. Har birining hamda butun guruh natijalarini baholash mezonlarini tushuntiradi.
3. O‘quv topshiriqlarni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani tushuntirish	1) guruhlar bo‘yicha ishni bajarish uchun zarur materiallarni tarqatadi. Topshiriqni bajarishda (kerak bo‘lganda), qanday qo‘shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi (guruhlarda ishlash qoidalarini eslatadi); 2) yozuv taxtasida guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani yozadi yoki tarqatadi.
4. Ta’lim oluvchilar bilan teskari aloqani amalga oshirish	Ta’lim oluvchilar bilan guruhli ishni bajarish bo‘yicha yo‘riqnomani muhokama qiladi, hammasi uni tushunganiga ishonch hosil qiladi.

5. Guruhlarda o‘quv topshiriqlarini bajarish jarayonini tashkil etish	**O‘quv topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ishning boshlanishi haqida e’lon qiladi:** 1) guruh ishini nazorat qiladi: – guruh ishini rejalashtirish; – vazifalarni guruh a’zolari o‘rtasida taqsimlash; – vazifani bajarish bo‘yicha yakka tartibda ishlash; – yakka tartibda topilgan yechimlarni muhokama qilish; – guruh uchun umumiy yechimni ifodalash; – guruh ishi natijalari taqdimotini tayyorlash; 2) aniq topshiriqni bajarish uchun zarur ko‘nikmalarning shakllanishiga e’tiborini qaratadi; 3) ishning borishini sharhlaydi, yutuqlarni baholaydi, aniq va samimiy tanbeh beradi.
6. Guruh ishi taqdimotini tashkil qilish	Bajarilgan ish natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun guruh vakillarini tayinlaydi. Baholash mezon va ko‘rsatkichlarini eslatadi.

III. NAZORAT-YAKUNIY BOSQICH

Texnologik ishlar	Ta’lim beruvchi faoliyati
Yakun yasash, tahlil qilish va baholash	1) natijalar tekshiruvini o‘tkazadi: • guruhning har bir ishtirokchisi bilan suhbatlashadi; • suhbatni avvaldan tayinlangan nazoratchi o‘tkazishi ham mumkin; • topshiriqni bajarish vaqtida o‘zlashtirilgan materialga taalluqli test o‘tkazishi mumkin; • har bir guruhda berilgan material bo‘yicha a’zolar ma’lumot olganligini aniqlash uchun o‘zaro savol berishi yoki tayyorlashi mumkin (bunda guruh a’zolari test (tekshiruv)ga tayyorlanishida bir-biriga yordam berishiga ruxsat beradi); (2) guruh ishini tahlil qiladi, topshiriq bajarilishining yakunini yasaydi, erishilgan maqsad to‘g‘risida xulosalar chiqaradi.

IV. INTERFAOL METODLARNING MOHIYATI VA QO‘LLANILISHI

Zamonaviy ta’limni tashkil etishga qo‘yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o‘quvchilarga yetkazib berish asosida ma’lum faoliyat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o‘qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda o‘quvchilarning o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga oid katta tajriba to‘plangan bo‘lib, bu tajriba asosini interfaol metodlar tashkil etmoqda.

Bunday metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’lim oluvchilarda o‘qish-bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog)lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi (o‘quvchi, o‘quvchilar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Mashg‘ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish zamonaviy sharoitda ta’lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo‘li hisoblanmoqda. Xo‘sh, interfaol metodlarning o‘zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta’lim jarayonida interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadga muvofiq qo‘llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyida shu kabi savollarga qisqacha javob topish mumkin.

Savollarga javob topishda eng to‘g‘ri qadam – tayanch tushuncha – “interfaol” atamasining lug‘aviy ma’nosi bilan tanishishdir.


“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interact”(rus tilida “interaktiv”) kabi ifodalanib, lug‘aviy nuqtayi nazardan “inter” – o‘zaro, ikki taraflama, “act” – harakat qilmoq, ish ko‘rmoq kabi ma’nolarni anglatadi.

Interfaol ta’lim – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslangan ta’lim.

Interfaollik – ta’lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko‘nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaligi.

Mantiqiy nuqtayi nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy subyektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyat olib borishlarini ifodalaydi.

Ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassisga ma’lumki, an’anaviy ta’lim ham suhbat (dialog)ga asoslanadi va suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:



An’anaviy ta’limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbayi o‘qituvchining tajribasi bo‘lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya’ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og‘zaki tarzda o‘quvchilarga yetkazib berishga intiladi. Faollik ko‘rsatish o‘qituvchigagina xos bo‘lib, o‘quvchilar bu vaziyatda sust tinglovchi bo‘lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o‘qituvchini tinglash, zarur o‘rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda – ruxsat etilganidagina so‘zlashdan iboratdir.

An’anaviy ta’limdagi bir tomonlamalik ta’lim tizimidagi faqat ma’ruza mashg‘ulotlarida emas, seminar darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko‘ra, “yetkazib beruvchi” rolida endi o‘qituvchi emas, balki o‘quvchi namoyon bo‘ladi. O‘quvchi, asosan, o‘zi o‘zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o‘qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o‘rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. O‘quvchilar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo‘lib qoladi. Bir qarashda o‘quvchi yoki o‘qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi o‘quvchilar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandek taassurot uyg‘otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko‘rsatishicha, bu tarzda qabul qilingan bilim (ma’lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R. Karnikau va F. Makelrouning o‘rganishlariga ko‘ra, shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya’ni shaxs: manbani o‘zi o‘qiganida 10 %; ma’lumotni eshitganida 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rganida 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risidagi ma’lumotlarni eshitganida 50 %; ma’lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80 %; o‘zlashtirilgan bilim (ma’lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma’lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shunga ko‘ra, interfaol o‘qitish “ta’lim jarayonining asosiy ishtirokchilari – o‘qituvchi, o‘quvchi va o‘quvchilar guruhi o‘rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg‘in bahs-munozalar, o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, “o‘qituvchi-o‘quvchi-o‘quvchilar guruhi”ning o‘zaro bir-birlarini hurmat qilishi, tushunishi va qo‘llab-quvvatlashi, samimiy munosabatda bo‘lishi, ruhiy birlikka erishishi kabilar bilan tavsiflanadi” .

Interfaol ta’lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. “Ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o‘zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi”. Qo‘llanmaning keyingi bo‘limida interfaol metodlar, ularning mohiyati, qo‘llanish shartlari va didaktik imkoniyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

“AKVARIUM” texnologiyasi

Ta‘lim jarayonida ushbu texnologiyani qo‘llashdan maqsad o‘quvchi (talaba)ni ma‘lum muammo bo‘yicha fikrlash, o‘z fikrini bayon etish, muammoni sherik (suhbatdosh) bilan birgalikda muhokama qilishga o‘rgatishdan iborat.

O‘quv xonasida stullardan iborat ikkita doira tashkil etiladi:
1-doirada stullar tashqariga, 2-doirada esa ichkariga qarab joylashtiriladi.

↓

O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linib, 1-guruh stullar tashqariga qaratib qo‘yilgan doiradan, 2-guruh esa stullar ichkariga qaratib qo‘yilgan doiradan joy oladi.

↓

1-guruh (tashqi doira)dagilar “Tahlilchilar”, 2-guruh (ichki stullar)dagilar “Kuzatuvchilar” rolini bajarishadi.

↓

Tashqi doiradagi o‘quvchilarga muhokama qilish uchun savol beriladi.

↓

O‘quvchilar o‘ylab olganlaridan so‘ng savolni chap tomonida o‘tirgan sherigi bilan 1–2 daqiqa muhokama qiladi.

↓

O‘qituvchining ishorasi bilan “Tahlilchilar” (tashqi doiradagilar) bir o‘rin chapga surilib, o‘sha savolni yangi sherigi bilan muhokama qilishadi.


↓

“Tahlilchilar” o‘rin almashtirishda 1-sheriklariga yaqinlashgunlaricha yoki yangi sheriklar bo‘lgunga qadar savolni muhokama qilishni davom ettiradi.

Izoh: “Tahlilchilar”ning asosiy vazifasi savol yuzasidan muhokamani tashkil etish, “Kuzatuvchilar”ning asosiy vazifasi esa 1-guruh (“Tahlilchilar”) faoliyatini kuzatib, baholashdan iborat.

“ASALARI GALASI” METODI

“Asalari galasi” metodi o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha tanlangan muammoning auditoriyada umumiy yoki kichik guruhlarda alohida tahlil qilinishiga yordam beradi. Metodni qo‘llashda kichik guruhlarga beriladigan topshiriqlar bir xil yoki turlicha bo‘lishi mumkin. Guruhlarga berilgan topshiriq muayyan muddat ichida muhokama qilinib, natija barchaga ma’lum qilinadi. Mashg‘ulot yakunida masalaning eng maqbul yechimi tanlab olinadi. Mashg‘ulot jarayonida metodni qo‘llashda quyidagicha yo‘l tutiladi:



“AQLIY HUJUM” METODI

Metod o‘quvchilarni mavzu xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, o‘z tasavvurlari, g‘oyalaridan ijobiy foydalanishga oid ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga rag‘batlantiradi. Uning yordamida tashkil etilgan mashg‘ulotlarda ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original (o‘ziga xos) yechimlarni topish imkoniyati tug‘iladi. Metod mavzu doirasida ma’lum qarashlarni aniqlash, ularga muqobil g‘oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Uni samarali qo‘llashda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

O‘quvchilar o‘zlarini erkin his etishlari uchun sharoit yaratib berish, g‘oyalarni yozish borish uchun yozuv taxtasi yoki qog‘ozlarni tayyorlab qo‘yish.

↓

Muammo (yoki mavzu)ni aniqlash.

↓

Mashg‘ulot jarayonida amal qilinadigan shartlarni belgilash.

↓

Bildirilayotgan g‘oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish, qog‘ozlar g‘oya (yoki fikr)lar bilan to‘lganidan so‘ng yozuv taxtasiga osib qo‘yish.

↓

Bildirilgan fikr, yangi g‘oyalarning turlicha va ko‘p miqdorda bo‘lishiga e’tibor qaratish.

↓

O‘quvchining boshqalar bildirgan fikrlarni yodda saqlashi, ularga tayanib yangi fikrlarni bildirishi va ular asosida muayyan xulosalarga kelishiga erishish (bildirilayotgan har qanday g‘oya baholanmaydi).

↓

O‘quvchilar tomonidan mustaqil fikr yuritilishi, shaxsiy fikrlarning ilgari surilishi uchun qulay muhit yaratish.

↓

Ilgari surilgan g‘oyalarni yanada boyitish asosida o‘quvchilarni quvvatlash.

↓

Boshqalar tomonidan bildirilgan fikr (g‘oya)lar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo‘l qo‘ymaslik.

↓

Yangi g‘oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to‘g‘ri yechimini e’lon qilishga shoshilmaslik.

Mashg‘ulotda metodni qo‘llashda quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

O‘quvchilarni muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish

Har bir o‘quvchi tomonidan bildirilayotgan fikrlar rag‘batlantirilib boriladi, bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullari tanlab olinadi; fikrlarning rag‘batlantirilishi navbatdagi yangi fikrlarning tug‘ilishiga olib keladi.

Har bir o‘quvchi o‘zining shaxsiy fikrlariga asoslanishi va ularni o‘zgartirishi mumkin; avval bildirilgan fikrlarni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o‘zgartirish ilmiy asoslangan fikrlarning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

Mashg‘ulotda o‘quvchilar faoliyatini standart talablar asosida nazorat qilishga, ular tomonidan bildirilgan fikrlarni baholashga yo‘l qo‘yilmaydi (zero, fikrlar baholanib borilsa, o‘quvchilar diqqatini shaxsiy fikrlarni himoya qilishga qaratadi), oqibatda, yangi fikrlar ilgari surilmaydi; metodni qo‘llashdan ko‘zlangan asosiy maqsad o‘quvchilarni muammo bo‘yicha keng fikr yuritishga undash ekanligini yodda tutib, ularni baholab borishdan voz kechish lozim.


“BALIQ SKELETI” METODI

Metod o‘quvchilarda mavzu yuzasidan muayyan masala mohiyatini tasvirlash va yechish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Metoddan foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

1) o‘qituvchi o‘quvchilarni metodni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi;
2) o‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi;
3) guruhlar topshiriqlarni bajaradi;
4) guruhlar o‘z yechimlarini jamoaga taqdim etadi;
5) jamoa guruhlarning yechimlari yuzasidan muhokama uyushtiradi.

O‘quvchilar topshiriqlarni quyidagi tasvir asosida bajaradi:



“BARCHA OMILLARNI HISOBGA OL!” (BOHO) METODI

BOHO – shaxs e’tiborini muayyan omillarga qaratishga xizmat qiluvchi metod. Uni qo‘llashdan ko‘zlangan maqsad shaxs ongini rivojlantirish, tasavvurini kengaytirish, tafakkurini boyitishdan iborat.

Metod qanchalik aniq maqsad asosida qo‘llanilsa, uning samaradorligi shuncha yuqori bo‘ladi. Agar o‘quvchi u yoki bu fikrni ochiq aytishga tortinsa, u holda metodni qo‘llash hech qanday samara bermaydi.

Mashg‘ulotlar jarayonida metoddan foydalanishda quyidagi savollarga javob topgan holda mavzuni samarali o‘zlashtirish imkonini beruvchi omillar ro‘yxatini tuzib olish maqsadga muvofiqdir:

Mavzuni o‘zlashtirishda qaysi omillar hisobga olindi?

Mavzuni o‘zlashtirishda qanday omillar hisobga olinmadi?

Ro‘yxatga yana qanday omillarni kiritish mumkin?

Masalaning yana qaysi jihatlariga e’tibor berish zarur?

?

“BAHS-MUNOZARA” METODI

Metod ikki yoki undan ortiq shaxslar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahs-munozaradan foydalanishda mavzuga oid ma’lum masalalar hal qilinadi.

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

Bahs-munozara uchun tanlangan mavzu o‘quvchilarga oldindan ma’lum qilinadi.

↓

Jarayon o‘qituvchi (yoki boshlovchi) tomonidan boshqarilib boriladi.

↓

O‘quvchilar individual, guruh (juftlik) nomidan bahs yuritilayotgan masala bo‘yicha shaxsiy mulohazalarni bayon qiladi.

↓

Bahsda masalaning mohiyati, yechimi bo‘yicha bir-biriga zid fikrlar ilgari suriladi.

↓

Yechim bo‘yicha asosiy fikrni bayon etadigan o‘quvchilarga 10 daqiqadan, qo‘shimcha qilish istagida bo‘lganlarga esa 5 daqiqadan vaqt beriladi.

↓

O‘qituvchi (boshlovchi) tomonidan bahs-munozara yuzasidan yakuniy xulosa bildiriladi.

Izoh: 1) bir o‘quvchiga ikki marta so‘zga chiqishga ruxsat etilmaydi; 2) o‘qituvchi (boshlovchi) o‘quvchilarning mavzudan chetga chiqmasligini qat’iy nazorat qilib boradi, agar shunday holatlar sodir etilsa, so‘zlovchilar bu haqida ogohlantiriladi.

“BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTIQCHA” METODI

O‘quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko‘nikmalariga ega bo‘lishida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo‘llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan tushunchalar tizimini shakllantirish;

2) hosil bo‘lgan tizimdan mavzuga taalluqli to‘rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo‘lmagan bitta tushunchaning o‘rin olishiga erishish;

3) o‘quvchilarga mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
4) o‘quvchilarni o‘z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o‘quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o‘tish, ular o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni asoslash talab qilinadi).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ko‘rsata va asoslay olish o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini dalillash, tengdoshlarning fikrlari hamda shaxsiy g‘oyalarni o‘zaro taqqoslash ko‘nikmalarini ham shakllantirishga imkon beradi.

“BILAMAN. BILISHNI XOHLAYMAN. BILIB OLDIM” (BBB) METODI

Metod o‘quvchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar guruh yoki jamoada ishlashi mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.

Guruhlar faoliyati quyidagi ko‘rinishda tashkil etilishi mumkin:

Har bir guruh umumiy sxema asosida o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradi; mashg‘ulot yakunida loyiha bandlari bo‘yicha guruhlarning munosabatlari umumlashtiriladi.

Guruhlar umumiy sxemaning alohida bandlari bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, g‘oyalarni umumlashtiradi.

O‘quv faoliyati bevosita yozuv taxtasi yoki ish qog‘ozida o‘z aksini topgan quyidagi sxema asosida tashkil etiladi:

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Metoddan foydalanish uch bosqich asosida amalga oshiriladi:

1. O‘quvchilarning o‘rganilishi rejalashtirilayotgan mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajalari aniqlanadi.
2. O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi.
3. O‘quvchilar mavzuga oid ma’lumotlar bilan batafsil tanishtiriladi.

Bosqichlar bo‘yicha amalga oshirilgan harakatlar tafsiloti:

1) o‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi;

2) o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha tushunchalarga egalik darajasi o‘rganiladi;

3) o‘quvchilar tomonidan qayd etilgan tushunchalar loyihaning 1-bandiga yozib boriladi;

4) o‘quvchilarning yangi mavzu bo‘yicha mavjud bilimlarini boyitishga bo‘lgan ehtiyojlari o‘rganiladi;

5) o‘quvchilarning ehtiyojlari sifatida bayon etilgan tushunchalar loyihaning 2-bandiga yozib qo‘yiladi;

6) o‘qituvchi yangi mavzuga oid umumiy ma’lumotlardan o‘quvchilarni xabardor qiladi;

7) o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan yangi tushunchalar aniqlanadi;

8) bayon etilgan yangi tushunchalar loyihaning 3-bandiga yozib qo‘yiladi;

9) mashg‘ulot yakunida yagona loyiha yaratiladi.

“BLIS-SO‘ROV” METODI

“Blis-so‘rov” (ingl. *blitz* – tezkor, bir zumda) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo‘nda javob berilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta’lim muassasalarida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o‘qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg‘ulot turi, o‘rganilayotgan mavzuning murakkabligi, o‘quvchilarning qamrab olinishiga ko‘ra belgilanadi.

Metodni mashg‘ulotlarda qo‘llash quyidagicha kechadi:

- o‘qituvchi o‘rganilgan mavzu, muayyan tarkibiy qismlar mohiyatining ochib berilishini talab etadigan savollarni ishlab chiqib, o‘quvchilar e’tiboriga havola qiladi;
- o‘quvchilar berilgan savolga qisqa muddatda lo‘nda, aniq javob beradi;

- guruh (juftlik)da ishlashda bir nafar o‘quvchi berilgan savolga javob qaytaradi (uning guruhdoshlari javobni to‘ldiradi, biroq fikrlar takrorlanmasligi lozim).

Metodni qo‘llashda mavzuga oid tayanch tushunchalar, asosiy g‘oyalarning mohiyati o‘quvchilar tomonidan og‘zaki, yozma yoki tasvir (jadval, diagramma) tarzida yoritilishi mumkin.

“BUMERANG” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, yodda saqlash, so‘zlab berish, fikrlarni erkin bayon etish, qisqa vaqt ichida ko‘p bilimga ega bo‘lish, o‘qituvchi tomonidan barcha o‘quvchilar faoliyatining birdek baholanishi uchun sharoit yaratishga xizmat qiladi. U o‘qituvchiga tarqatma materiallarning o‘quvchilar tomonidan guruhli, individual shaklda samarali o‘zlashtirilishi, auditoriyada tashkil etiladigan suhbatning munozaraga aylanishini ta’minlash orqali ularning faoliyatini nazorat qilish imkonini beradi. Bu texnologiyadan suhbat-munozara shaklidagi darslarda individual, juftlik, guruhli va jamoaviy shakllarda foydalanish mumkin. Boshqa interfaol metodlar kabi ta’lim jarayonida mazkur texnologiyani qo‘llash ham muayyan tartibda amalga oshiriladi:

Kichik guruhlar tashkil etilib, texnologiyadan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi.

↓

Har bir guruhga mustaqil o‘rganish uchun raqamli matn tarqatiladi.

↓

Guruhlar o‘zlariga berilgan topshiriq asosida o‘quv materialini o‘zlashtiradi.

↓

Kichik guruhlar qayta tashkil etiladi.

↓

Guruh a’zolari o‘zlarining “dastlabki guruhlari”ga qaytadi.

↓

Guruhlar tomonidan to‘plangan ballarni hisoblab boruvchi “guruh hisobchisi” tayinlanadi.

↓

O‘qituvchi mavzu bo‘yicha savollar berish, og‘zaki so‘rash asosida o‘quvchilar tomonidan uning samarali o‘zlashtirganligini aniqlaydi.


↓

Savollarga berilgan javoblar asosida guruhlar tomonidan to‘plangan ballar umumlashtiriladi va guruh a’zolari o‘rtasida teng taqsimlanadi.

“VENN DIAGRAMMASI” STRATEGIYASI

Strategiya o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo‘yicha amalga oshiriladi.

Yozuv taxtasi o‘zaro teng 4 bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka quyidagi sxema chiziladi:



Strategiya o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma’lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.

Uni qo‘llash bosqichlari quyidagilardan iborat:

O‘quvchilar to‘rt guruhga bo‘linadi.

↓

Yozuv taxtasiga topshiriqni bajarish shartlarini aks ettiruvchi sxema chiziladi.

↓

Har bir guruhga o‘zlashtirilayotgan mavzu (bo‘lim, bob) yuzasidan alohida topshiriqlar beriladi.

↓

Topshiriqlar bajarilgach, guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi.

↓

Liderlar guruh a’zolari tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, yozuv taxtasida aks etgan diagrammani to‘ldiradi.

Strategiyani qo‘llash jarayonida har bir guruh muayyan mavzuga oid topshiriqlarni bajaradi. O‘quvchilarning e’tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish mumkin:

Guruhlar	Diagrammaning tartib raqami	Topshiriqlar mazmuni
1-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
2-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
3-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	
4-guruh	1-diagramma	
	2-diagramma	
	3-diagramma	

“VIDEOTOPISHMOQ” METODI

So‘nggi yillarda pedagogik faoliyatda ta’lim jarayonini turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio materiallar) yordamida tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida o‘qitishda turli axborot vositalaridan o‘rinli, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi.

Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O‘quvchilarga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi.

↓

O‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi.

↓

O‘quvchi videolavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklar mohiyatini daftarlariga qayd etadi.

↓

O‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Videolavhalar namoyish qilingach, o‘quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi badiiy asar qahramoni yoki tarixiy shaxs ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o‘quvchilar o‘rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

“GALEREYA” METODI

Metod o‘quvchilarda kichik guruh asosida bir vaqtning o‘zida bir nechta masalani muhokama qilish qobiliyatini shakllantiradi. Uni qo‘llashda guruhning har bir a’zosi taklif etilgan barcha masalalar yechimini topishga o‘z hissasini qo‘shish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar davrida “Galereya” metodidan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1-bosqich – masalani qo‘yish [o‘qituvchi kichik guruhlarga muayyan muammo (yoki masala)]ni hal qilish topshirig‘ini beradi.

↓

2-bosqich – har bir guruh o‘ziga topshirilgan masalaning yechimini topish ustida ishlaydi (bu jarayon 5–10 daqiqa ichida kechadi).

↓

3-bosqich – har bir guruh navbati bilan 2, 3 va 4-guruhga topshirilgan muammoning yechimini topishga kirishadi (guruhlar harakati doira tarzida soat strelkasi bo‘yicha amalga oshiriladi; bir guruh boshqa guruhlar yechimlarini o‘rganadi, ularga nisbatan o‘z munosabatini bildiradi; qo‘shimchalar kiritadi).

↓

4-bosqich – guruh o‘z o‘rniga qaytadi.

↓

5-bosqich – har bir guruhdan bir nafar o‘quvchi jamoani guruh ishi bilan tanishtiradi va ular asosida muhokama tashkil etiladi.


↓

6-bosqich – muayyan guruh boshqa guruhlarning yechimlariga nisbatan o‘zlari tomonidan bildirilgan mulohazalarni sharhlaydi.

↓

7-bosqich – guruhlarning fikrlariga ko‘ra yakuniy xulosaga kelinadi.

Harbiy ta’limda interfaol metodlarni qo‘llashda harbiy talim mashg‘ulotlarning o‘ziga xos jihatlarining hisobga olinishi muhim shartlardan biri hisoblanadi!



Izoh: 1-t – 1-topshiriq; 2-t – 2-topshiriq; 3-t – 3-topshiriq; 4-t – 4-topshiriq.

“GUGURT DONALARI” METODI

“Gugurt donalari” metodi o‘quv materiallari o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘rganilganligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladi. Metod o‘quvchilarga o‘quv materialining mavzusidan kelib chiqqan holda turli muammoli masala yoki vaziyatlarni yaratish, mavzuning asosiy tayanch tushunchalarini ajratib olish, ularni izohlash, tahlil qilish, ta’riflashda yordam beradi. Shuningdek, metod mashg‘ulot davomida har bir o‘quvchiga turli topshiriqlarni individual bajarish, uning ustida mustaqil ishlash imkonini beradi. Bu metod o‘quvchilarda qator tarbiyaviy xarakterdagi, ya’ni mustaqil ishlay olish, muloqotga kirishuvchanlik, xushfe’llik, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, faollik, faoliyatga ijodiy yondashish, faoliyatning samarali bo‘lishiga qiziqish va intilish, o‘zini o‘zi baholash kabi sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Metod qo‘llanilgan mashg‘ulot o‘quvchilarni o‘rganilgan yoki o‘rganilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga olish,

to‘plangan fikrlarni umumlashtirish, ularni yozma ravishda yoki rasm, chizma, tasvir, sxema, model ko‘rinishida ifodalashga o‘rgatadi. Metod juftlik, kichik guruhlar yoki jamoada qo‘llaniladi. O‘quvchilar tushunchalarni yozma ravishda ta’riflaydi va ularni taqdimot asosida jamoaga namoyish qiladi.

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarga gugurt donalari yoki oddiy cho‘plardan istagancha tanlab olishni taklif etadi.

↓

O‘quvchi o‘z xohishiga ko‘ra gugurt donalari yoki oddiy cho‘plarni tanlaydi.

↓

Har bir o‘quvchi tanlangan gugurt donalari yoki oddiy cho‘plarning soniga ko‘ra mavzuga oid tayanch tushunchalarni ajratib ko‘rsatib, ularning har biriga izoh beradi yoki qoidalarni aytadi.

Izoh: o‘quvchilar tomonidan tanlangan har bir gugurt donasi yoki oddiy cho‘p bittadan tushunchani ta’riflash shartligini anglatadi. Shunga ko‘ra, o‘quvchi agar ikkita gurut donasini tanlagan bo‘lsa, u holda ikkita tushunchani ajratib ko‘rsatib, ularni ta’riflaydi. Gururt donalari sonining ortib borishiga ko‘ra tushunchalar soni va ularga beriladigan ta’riflar miqdori ham ko‘payib boradi.

“YAGONA DAVRA” METODI

O‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan mustaqil, mantiqiy fikrlash, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni tinglash, ularni to‘ldirish, shaxsiy fikrlarni asoslash, xulosa chiqarish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mavzu yuzasidan har bir o‘quvchining fikrini bilish muhim. Shuning uchun har bir o‘quvchi fikr bildirayotganda uning so‘zini bo‘lish, qo‘shimcha qilishga hech kimga, hatto o‘qituvchiga ham ruxsat etilmaydi.

Metodni qo‘llashda quyidagi shartlarga rioya etish shart:

- O‘quvchilar davra qurib o‘tirishi, o‘rtaga tashlangan savol yuzasidan o‘z tushunchalarini bayon etishini;
- O‘quvchilar o‘zlariga navbat kelishini kutib o‘tirmay, mavzu (savol, masala, muammo) yuzasidan fikrlarini ayta olishini;
- Mashg‘ulotda har bir o‘quvchining faol ishtirok etishi, muhokamaga o‘z hissasini qo‘shishini ta’minlash.

shart

O'qituvchi muhokamaning yakunida bildirilgan fikrlarni umumlashtirishi, har bir o'quvchining ishtirokini ko'rsatib o'tishi mumkin. Metod, odatda, mashg'ulotning boshlanishi yoki yakunida qo'llaniladi.

"DEBAT" TEXNOLOGIYASI

"Debat" (fr. *debattere, debas* – bahslashmoq) texnologiyasi yig'ilish, majlis yoki mashg'ulotlarda birorta mavzu yuzasidan ishtirokchilar o'rtasida o'zaro bahs uyushtirish, ularning o'zaro fikr almashishini ta'minlashga xizmat qiladi.

O'quv mashg'ulotlarida debat quyidagi tartibda uyushtiriladi:

O'rganilayotgan mavzu yuzasidan bahs yuritilishi zarur bo'lgan muammo tanlanadi.

↓

Bahslashish uchun tanlangan muammo ikki nafar o'quvchi e'tiboriga havola etiladi.

↓

Muammo yuzasidan alohida o'quvchi, guruh yoki juftliklar tomonidan bildirilgan fikrlar tahlil qilinadi.

↓

Debatda bildirilgan fikrlar yuzasidan xulosa chiqariladi.

↓

Debat yakunlanadi.

"DELFI" METODI

Metod taklif qilinayotgan muqobil javoblar ichidan eng yaxshisini tanlashga yordam beradi. Buning uchun jamoa a'zolaridan muayyan mavzu mohiyatini ochib beruvchi eng maqbul javoblarni bildirish taklif qilinadi. Bildirilgan javoblar varianti to'planadi. So'ngra jamoaning har bir a'zosidan ma'lum ketma-ketlikda mavjud javoblarning har biriga baho berish talab qilinadi.

Ta'limda metoddan foydalanish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- O'quvchilarga tahlil asosida ma'lum jarayonning yuz berishiga olib kelgan 5 ta sababni aniqlash va ular orasidan eng muhim sababni topish vazifasi yuklatiladi.
- Muhokama qatnashchilari dastlab muammolarning barcha sabablarini muhimlik darajalari bo'yicha ajratadi.
- Har bir qatnashchi o'zining muqobil javob variantlaridan birini tanlab, barcha variantlarni shkalalaydi (ularni muhimligiga ko'ra darajalarga ajratadi va tartib raqami bilan belgilab chiqadi).

“YELPIG‘ICH” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya murakkab va ko‘p tarmoqli bo‘lib, muammoli vaziyatlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan ushbu texnologiyada mavzuning bandlari, bo‘limlari bo‘yicha ma’lumot beriladi. Band va bo‘limlar alohida-alohida muhokama qilinadi. Masalan, ma’lum hodisa, voqea yoki jarayonning ijobiy, salbiy jihatlari, foydasi, zarari, afzalligi, kamchiligi ko‘rsatib beriladi.

Texnologiya o‘quvchilarda tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini muvaffaqiyatli rivojlantirish, shaxsiy g‘oyalarni yozma va og‘zaki shaklda ixcham bayon etish, uni samarali himoya qilish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

“Yelpig‘ich” texnologiyasi o‘zlashtirilayotgan mavzuning muayyan jihatlarini jamoa, guruh, juftlik hamda har bir qatnashchi individual faol ishlashi asosida o‘rganishiga xizmat qiladi.

Texnologiyani nafaqat ta’lim, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy ishlar jarayonida ham qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilarning quyidagi sifat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishiga erishiladi: jamoa bilan ishlash, muammo va vaziyatlarni turli nuqtayi nazardan muhokama qilish, kelishuvchan qarorlarni qabul qilish, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, xushmuomalalik, faoliyatga ijodiy yondashish, faollik, muammoga diqqatni jamlay olish va h. k.

Ta’lim jarayonida muayyan mavzuni o‘rganish chog‘ida texnologiyani turli bosqichlarda aniq maqsadlar asosida qo‘llash mumkin. Masalan:

Mashg‘ulotning boshlang‘ich qismida	M	bilish faoliyatini rivojlantirish va o‘quvchilarni faollashtirish uchun
Mavzuni o‘rganish jarayonida	M	mavzuning asoslarini chuqur anglash va tushunish uchun
Mashg‘ulotning yakuniy qismida	Ma	o‘zlashtirilgan bilimlarni tartibga solish uchun

“YOZMA ISH” STRATEGIYASI

Strategiya o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlash malakalarini shakllantirishga yordam beradi hamda har bir o‘quvchining mustaqil ravishda faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Ta’limda strategiyani qo‘llashda o‘quvchilarga quyidagi sxema asosida ish ko‘rish taklif qilinadi:

1. Kim yoki nima haqida yozmoqchi ekanligingizni aniq belgilab oling!
2. Insho (hikoya, maqola) uchun mos sarlavha toping!
3. Insho (hikoya, maqola)ning qoralamasi (xomaki nusxasi)ni tayyorlang!
4. Insho (hikoya, maqola)ning xomaki nusxasini qayta o‘qib chiqib, xatolari bo‘lsa, tuzatish kiriting!
5. Insho (hikoya, maqola) matnini oqqa ko‘chiring!

6. Insho (hikoya, maqola)ni jamoadoshlaringizga o‘qib bering!

Strategiya asosida ishlash uchun o‘quvchilarga 9–10 daqiqa vaqt beriladi.

Uni kichik guruhlarda ham qo‘llash mumkin. Bunda o‘quvchilarni guruhlarga biriktirish uchun raqamli kartochkalardan foydalanish qulay. Har bir kichik guruh alohida mavzular asosida hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashi mumkin. Hikoya, esse yoki maqolalarni tayyorlashda guruh a’zolarining birgalikda, o‘zaro fikr almashib faoliyat yuritishlariga erishish maqsadga muvofiqdir. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhning ishi taqdimot asosida namoyish etiladi. O‘qituvchi hikoyaning mazmuni, saviyasi va imlo xatolariga e’tibor bergan holda guruh ishini baholaydi.

Strategiyani qo‘llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

Har bir o‘quvchi, juftlik yoki guruhga o‘rganilgan mavzuga oid bir nechta tayanch tushuncha yoki mavzular yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

↓

O‘quvchi, juftlik yoki guruhlar kartochkada ko‘rsatilgan tushuncha yoki mavzulardan birini tanlab, uning asosida kichik hikoya, esse yoki maqola tayyorlaydi.

↓

Agar o‘quvchi, juftlik yoki guruhlarga bir necha tayanch tushuncha (so‘z)lar taqdim etilsa, yaratilgan hikoya, esse va maqolalarda ushbu tayanch tushunchalar ishtirok etishi zarur.

↓

Har bir o‘quvchi, juftlik yoki guruh hikoyaning qoralamasini yozadi.

↓

Har bir o‘quvchi, juftlik yoki guruh o‘zi tomonidan tayyorlangan hikoya, esse yoki maqolani tekshirib chiqib, oqqa ko‘chiradi.

↓

Hikoya, esse yoki maqola tayyorlash uchun har bir o‘quvchi, juftlik yoki guruhga avval o‘zi bilgan, tanigan, eshitgan, o‘qiganlarini yodga olish, so‘ngra ular haqida yozish tavsiya etiladi.

“JADVAL” METODI

Metod o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama etilayotgan masala yoki muammoning nazariy mohiyatini jadval yordamida aks ettirish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar mavzu (masala, muammo) mohiyatini og‘zaki bayon yoki yozma matn ko‘rinishida emas, balki asosiy g‘oya, tayanch tushuncha, muhim jihatlarni jadvalda aniq, qisqa ifodalash ko‘nikmalarini o‘zlashtiradi.

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash bo‘yicha o‘quvchilarga quyidagi jadval namunasini taqdim etish mumkin:

Mohiyati	Ijtimoiy tarbiya turlari				
	Ma’naviy-axloqiy tarbiya	Aqliy tarbiya	Jismoniy tarbiya	Estetik tarbiya	Mehnat tarbiyasi
Maqsadi					
Vazifalari					
O‘ziga xos jihatlari					

“ZAKOVAT-PLYUS” METODI

Bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish qobiliyatlariga ega bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod o‘quvchilarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llash o‘z xohishiga ko‘ra shaxsiy imkoniyatlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi.

Bunda o‘quvchilar o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri, aniq javob qaytara olishi zarur. Murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi. Yakuniy ballarning o‘rtacha arifmetik qiymatini topish asosida o‘quvchilarning tafakkur tezligi aniqlanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash orqali o‘quvchilarning tafakkur tezligi quyidagi sxemaga asoslanuvchi faoliyat yordamida aniqlanadi:

Savol | Javob | Javobning to‘g‘riligi | Javob uchun qo‘yiladigan ball

“ZIGZAG” METODI

Metod o‘quvchilar bilan kichik guruhlarda ishlash, ular tomonidan mavzuning tez va puxta o‘zlashtirilishini ta’minlashga xizmat qiladi. Metodning afzalliklari: 1) o‘quvchilarda jamoa (guruh) bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi; 2) mavzuni o‘zlashtirishga sarflanadigan vaqt tejaladi.

Metodni qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘quvchilar bir nechta (5–7 ta) guruhga bo‘linadi.

↓

Yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ham tegishli ravishda 5–7 ta qismga ajratiladi.

↓

Har bir guruhga mavzuning muayyan qismi (1-matn, 2-matn, ... va h. k.) beriladi va uni o‘rganish vazifasi topshiriladi.

↓

Guruhlar belgilangan vaqt davomida matn ustida ishlaydi.

↓

Vaqtni tejash maqsadida guruh a’zolari orasidan liderlar tanlanadi, ular o‘rganilgan matnga oid asosiy ma’lumotlarni guruhdoshlariga so‘zlab beradi.

↓

Liderlarning fikri guruh a’zolari tomonidan to‘ldiriladi.

↓

Barcha guruhlar o‘zlariga berilgan matnni puxta o‘zlashtirganlaridan so‘ng matnlar guruhlararo almashtiriladi.

↓

Bu bosqichda ham matnlar guruhlararo almashtiriladi.

↓

Shu tarzda mavzu mohiyatini yorituvchi yaxlit matn o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtiriladi.

“ZINAMA-ZINA” METODI

Metod o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzuni kichik mavzularga ajratilgan holda rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, u o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga ijodiy yondashish, shaxsiy fikr, o‘zlashtirilgan tushunchalarni tasviriy ko‘rinishlarda ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Undan foydalanish tartibi quyidagicha:

O‘rganiladigan mavzu muayyan qismlarga ajratilib, alohida qog‘ozlarda ifodalanadi.

↓

O‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi.

↓

Har bir guruhga muayyan qismdagi matn taqdim etiladi.

↓

Guruhlar o‘zlariga berilgan qism matni bilan tanishib, uning mohiyatini belgilangan vaqt ichida markerlar yordamida rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar shaklida ifoda etadi.

↓

Belgilangan vaqt tugagach, guruhning bir nafar a’zosi o‘zi bajargan ish bilan jamoani tanishtiradi.

↓

Barcha guruhlarning ishlari o‘rganilgach, jamoa tomonidan o‘zlashtirilgan mavzuning umumiy obrazi kichik mavzular mohiyatini yorituvchi rasm, tasvir, jadval yoki slaydlar asosida mantiqiy ketma-ketlikda yozuv taxtasida zinama-zina ko‘rinishida joylashtiriladi.

↓

O‘qituvchi guruhlar tomonidan taqdim etilgan ishlarga izoh berib, zarur o‘rinlarda ularga o‘zgartirishlar kiritadi.

↓


Guruhlarning ishlari ularning mazmuni, sifati va dizayniga ko‘ra baholanadi [baholash jarayoni rangli kartochkalar vositasida amalga oshiriladi, ya’ni o‘quvchilar o‘zlari sifatli deb topgan ishni rangli kartochkalar yordamida belgilaydi (ish ustiga kartochka yopishtiriladi)], eng ko‘p kartochkaga ega ish uchun yuqori ball beriladi.

Metodni qo‘llashda o‘quvchilar quyidagi shartlarga amal qiladi:

O‘quvchi →
- kichik mavzular bo‘yicha imkoni boricha ma’lumotlarni to‘liq bayon etish
- kichik guruhlarning ishlariga xolis baho berish

“IJODIY ISH” METODI

Metod o‘quvchilarni ijodiy faollikka undash orqali ularda o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarning erkinligi ta’minlanadi, mustaqil fikrlashi uchun imkoniyat yaratiladi. O‘quvchilar mavjud bilimlariga tayangan holda o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradi.




“INTERVYU” METODI

Metod bir-biri bilan tanish bo‘lmagan o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro muloqotni tashkil etish, ularning bir-biri bilan yaqindan tanishishi uchun zarur sharoitni yaratib berish maqsadida qo‘llaniladi.

Uni qo‘llashda bir-birini yaxshi tanimaydigan juftliklar tuzilib, o‘quvchilar tanishib olishi uchun 2–3 daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra juftlikning har bir a’zosi jamoaga biror qiziqarli dalil yordamida o‘z sherigi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi. Bunda guruhdagi har bir o‘quvchining bir nafar kishi bilan tanishishi nazarda tutiladi. Metod o‘quvchiga dadillik va jur’at beradi. Biroq bu metodni 25 nafardan ortiq a’zosi bo‘lgan guruhlarda qo‘llash samara bermaydi.

“Intervyu” metodidan bolalar oromgohlari, volontyorlik guruhlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablari, oliy o‘quv yurtlari ta’lim oluvchilaridan iborat yangi ijtimoiy guruhlar tashkil etilganda foydalanish samaralidir.

“Intervyu” metodi quyidagi sxema asosida qo‘llaniladi:



Mazkur metod ta’lim jarayonida juftlik asosida mavzu bo‘yicha o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan bilimlarning namoyish etilishini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. Bunda juftlikdagi o‘quvchilarning biri “Muxbir”, ikkinchisi esa “Taniqli shaxs” bo‘lishi lozim. Intervyu jarayonining har ikki qatnashchisi ham mavzuni yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi shart. “Muxbir” o‘rganilgan mavzu yuzasidan savollar to‘plamini ishlab chiqadi, “Taniqli shaxs” esa savollarga javob bera olishi lozim. Savollar va ular yuzasidan berilgan javoblarni yozma shaklda qisqacha bayon etish maqsadga muvofiq. Zero, belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir “Muxbir” jamoa a’zolarini o‘zi tuzgan savollar, ular yuzasidan “Taniqli shaxs” bergan javoblar bilan tanishtiradi. Barcha “Muxbir”larning chiqishlari tinglangach, jamoa a’zolari o‘qituvchi rahbarligida eng maqbul savollar to‘plamini, savollarga berilgan eng to‘g‘ri, batafsil javoblar variantlarini aniqlab, g‘oliblarni belgilaydi. Jamoaning fikrini inobatga olgan holda o‘qituvchi g‘oliblarni e’lon qiladi.

“Intervyu” metodini oliy o‘quv yurtlari, o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida seminar mashg‘ulotlari, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida esa to‘garak, ilmiy jamiyatlar faoliyati, “Ma’naviyat soati” (yoki “Sinf (guruh) soati”)da faol va samarali qo‘llash mumkin.

IMAK (“ISHONTIRISH MAKTABI”) TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda boshqalarni ishontirish (buning uchun dalillarni topish, ularni asoslash), suhbatdoshni boshqarish, jamoa orasida, turli hayotiy vaziyatlarda o‘zini tutish malakasi va tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida qo‘llaniladi.

Izoh: 1. “Tashkilotchi” lavhada ifodalangan voqelikdan kelib chiqqan holda o‘zining tashkilotchilik qobiliyati, ishontira olish mahorati, vaziyatni nazorat qilish, turli vaziyat, sharoitlarda o‘zini tutish, boshqarish ko‘nikmalarini namoyon etishi, tarbiyaviy metodlarni qo‘llab, nizoli vaziyatni bartaraf etishga harakat qilishi lozim.

2. Muhokama chog‘ida o‘qituvchi jamoa bilan birgalikda “Tashkilotchi”ning o‘zini tutishi, boshqalarni o‘z fikriga ishontira olishi, madaniyati, harakatlaridagi ijobiy va salbiy jihatlarni muhokama qiladi (bunda nizoli vaziyatni bartaraf etish uchun “Tashkilotchi” qanday metodlardan foydalanganligini aniqlash maqsadga muvofiq).

3. Texnologiyani qo‘llashda o‘quvchilar tomonidan tayyorlangan pedagogik nizoli vaziyatlardan biri to‘g‘risidagi videolavhani namoyish etish mumkin.

4. Videolavha mashg‘ulotning 2-yarmida ekranda yoki kompyuter monitori orqali namoyish etiladi. U tomosha qilinib, mazmuni jamoa tomonidan muhokama etiladi. Bu kabi tahlil har bir o‘quvchiga o‘z xatti-harakatlari mohiyatini anglash, zarur xulosalarni chiqarish ko‘nikmalariga ega bo‘lish uchun yordam beradi.

Texnologiyani qo‘llash tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyadan foydalanish qoidalari bilan tanishtiradi.

↓

Texnologiya shartiga binoan o‘quvchilardan biri (“Tashkilotchi”) xonadan chiqadi.

↓

Jamoaning boshqa a’zolari pedagogik nizolardan birini yorituvchi muammoli vaziyatni yaratib, uni muhokama qiladi va sahna ko‘rinishini tayyorlaydi.

↓

Bu vaqtda “Tashkilotchi”ga rolining mazmuni tushuntirilib, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat haqida ma’lumot beriladi.

↓

“Tashkilotchi”ga ham tayyorgarlik ko‘rish uchun ma’lum vaqt beriladi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, “Tashkilotchi” auditoriyaga taklif etiladi.

↓

Jamoa a’zolari pedagogik nizolarga asoslangan lavhani namoyish etadi.

↓

“Tashkilotchi” lavhada ifodalangan nizoli vaziyatni bartaraf etishga harakat qiladi.

↓

O‘qituvchi jamoa bilan birgalikda “Tashkilotchi”ning harakatlarini baholaydi.

↓

Mashg‘ulot yakunida sinf (guruh) jamoasi “Shaxsning tashkilotchilik qobiliyati” mavzusida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqadi.

KBI (“KUZATISH, BAHSLASHISH, ISHONTIRISH”) TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarni hayotda o‘z o‘rinini topish yo‘lida faollik ko‘rsatishga rag‘batlantirib, ularda yetakchilik, sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko‘nikmalari, o‘zgalar fikrini hurmat qilgan holda o‘z pozitsiyalarini himoyalash, fikrini isbotlay bilish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish, murosaga kelish, ijodiy izlanish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mashg‘ulotda mazkur texnologiyani qo‘llashda quyidagi shartlarga rioya etiladi:

O‘quvchilar texnologiya qo‘llaniladigan mashg‘ulot va mavzudan avvalroq xabardor qilinadi.

shartlar

Vazifalarni bajarish uchun belgilanadigan aniq vaqt mavzu mazmuni, murakkablik darajasiga ko‘ra belgilanadi.

Metodning bahs-munozaraga asoslanishi, aniq o‘tkazilish vaqti va tartibiga egaligi yodda tutiladi.

Texnologiyadan foydalanish tartibi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulot o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga biriktirib, ularga savollar to‘plamini taklif etadi va topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmini belgilaydi.

↓

Guruhlar bittadan savol tanlab olib, so‘zga chiqishga tayyorlanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, navbat bilan guruhlarning chiqishi tashkil etiladi.

↓

O‘qituvchining ko‘rsatmasiga binoan har bir guruh chiqishi jarayonida qolgan guruhlar uning fikri va pozitsiyasiga qarshi fikrlarni bildirib, guruh tanlagan yo‘lni rad etish orqali uning a’zolarini bahs-munozaraga undaydi.

↓

So‘zga chiqqan har bir guruh boshqa guruhlar a’zolarini o‘z fikrlari, tanlagan yo‘li hamda keltirgan dalillarining to‘g‘ri ekanligiga ishontirish, o‘z tomoniga og‘dirish, imkoni boricha ularni o‘z guruhiga qo‘shishga harakat qiladi.

↓

O‘qituvchi bahs-munozaraning natijalari bo‘yicha fikr bildirib, darsni yakunlaydi.

Izoh: har bir guruh o‘z chiqishida tanlagan savol bo‘yicha tushunchalari, mavzuga yondashuvlari, javoblarining to‘g‘ri ekanligiga jamoa a’zolarini ishontira olishi zarur.

“KEYS-STADI” (YOKI “O‘QUV KEYSLARI”) TEXNOLOGIYASI


“Keys-stadi” (ingl. *case* – metod; *study* – muammoli vaziyat; vaziyatli tahlil yoki muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) texnologiyasi o‘quvchilarda aniq, real yoki sun’iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o‘quvchilarni bevosita har qanday mazmunga ega vaziyatni o‘rganish va tahlil qilishga o‘rgatadi.

Texnologiyaning negizida muayyan muammoli vaziyatni hal qilish jarayonining umumiy mohiyatini aks ettiruvchi elementlar: ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim jarayonini boshqarish usul va vositalari, muammoni hal qilish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishning usul va vositalari, axborotlarni to‘plash, ularni o‘rganish usul va vositalari, ilmiy tahlilning usul va vositalari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi ta’limiy aloqaning usul va vositalari, o‘quv natijalari va h. k. yotadi.

Keys-stadi texnologiyasining umumiy tuzilmasi quyidagicha:



Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash quyidagi bosqichlarda kechadi:



Keys-stadi bo‘yicha jamoaviy hamkorlik quyidagi tartibda amalga oshadi:

Jamoa (guruh) a’zolari muammo, uning yechimlari yuzasidan o‘zaro fikr almashadi.

↓

Masalaning yechimi sifatida taqdim etilgan variantlar muhokama qilinib, ularning maqbulligi baholanadi.

↓

Muammoli vaziyatning yechimini ta’minlaydigan aniq dastur ishlab chiqiladi.

↓

Masalaning yechimi to‘g‘risida ma’lumot beradigan taqdimot tayyorlanadi va unda namoyish etiladigan materiallar rasmiylashtiriladi.

Texnologiyani alohida o‘quvchiga nisbatan qo‘llash tartibi:

O‘quvchining texnologiyaning mohiyati, uni qo‘llash shartlari bilan tanishishi.

↓

O‘quvchi tomonidan taqdim etilgan muammoning o‘rganilishi.

↓

Muammo bo‘yicha asosiy va 2-darajali masalalarni ajratish, shakllantirish, asoslash.

↓

Tadqiqot metodlarini tanlash va vaziyatni tahlil qilish.

↓

Taqdim etilgan muammoning amaliy jihatlarini o‘rganish.

↓

Berilgan muammoni yechishning usul va vositalarini aniqlash.

↓

Taqdim etilgan yechimni ta’lim amaliyotiga tadbiq etish chora-tadbirlarini belgilash.

Ta’limiy xarakterga ega muammoli vaziyat (o‘quv keysi)ni tashkil etish maqsadi mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda jamoa o‘rtasida muammoli vaziyatni yaratish, uni hal qilish yechimlari to‘g‘risidagi fikrlarni jamlash, muhokama qilish orqali to‘g‘ri qarorlar qabul qilish muhitini yaratishdan iborat.

Texnologiya yordamida tanlangan muammoning yechimini topishga oid muhokama quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:

Keys mazmuni bilan shaxsan tanishish.

↓

Kichik guruhlarda muhokama qilish (“Sindikat” metodi yordamida).

↓

Jamoa o‘rtasida umumiy muhokamani tashkil etish.

Muammoni muhokama qilishda e’tiborni quyidagilarga qaratish zarur:

O‘rganilayotgan muammoning asosiy maqsadini aniqlash.

↓

Muammoli vaziyatni real holatlar bilan taqqoslashni o‘rganish.

↓

Ehtimoli bo‘lgan “to‘siq”lar (2-darajali masalalarni muhokama qilish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va h. k.)ni aniqlash.

↓

Auditoriya uchun tushunarsiz ma’lumotlarni aniqlash.

↓

Muammoni yechishda muhim, ahamiyatga ega ma’lumotni aniqlash.

↓

Muammoli vaziyatni hal qilish uchun oraliq bosqichlarni ilg‘ab olish.

↓

Muammoni hal etishning muqobil yo‘llarini belgilash.

Muammoli vaziyatni muhokama qilish vaqtini aniqlashtirish.

Muhokamani tugatish tartibini belgilash.

Yakuniy izohlash va muhokama natijasini xulosalash.

“KICHIK ESSE” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya kichik hajmli, erkin bayon usuliga ega bo‘lib, o‘rganilayotgan muammo yoki tahlil qilinayotgan masala yuzasidan shaxsiy taassurot, tasavvurlarni ifodalashga xizmat qiladi. U o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha erkin fikr bildirish, mazmun-mohiyatini qayta bayon qilish imkonini beradi. Kichik esseni yaratishda o‘quvchilar mavzu g‘oyalarini umumlashtirish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, xulosalarni bayon etish imkoniga ega bo‘ladi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda yo‘lga qo‘yiladi:

O‘qituvchi kichik esseni yaratish uchun muammo yoki masalani tanlaydi.

O‘qituvchi tanlangan muammo (masala) bilan o‘quvchilarni tanishtiradi.

O‘quvchilar muammo (masala)ning umumiy mohiyati yuzasidan fikr yuritadi.

O‘quvchilar shaxsiy fikrlarini bayon etish usulini belgilab oladi.

Har bir o‘quvchi kichik esseni yaratadi.

Kichik esse sinf (guruh) jamoasining e’tiboriga havola etiladi.

Sinf (guruh) jamoasi a’zolari esse yuzasidan o‘z fikrlarini bildiradi.

“KLASTER” METODI

“Klaster” (g‘uncha, to‘plam, bog‘lam) metodi puxta o‘ylangan strategiya bo‘lib, uni o‘quvchilar bilan yakka tartibda hamda guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

Nimani o‘ylagan bo‘lsangiz, uni qog‘ozga yozing! Fikringiz sifati haqida o‘ylab o‘tirmay, shunchaki yozib boring!

↓

Yozuvingiz imlo yoki boshqa jihatlariga e’tibor bermang!


↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmagunga qadar yozishdan to‘xtamang! Agar ma’lum muddat o‘ylay olmasangiz, u holda qog‘ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang! Bu harakatni yangi g‘oya tug‘ilguniga qadar davom ettiring!

↓

Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko‘proq yangi g‘oyalarni ilgari suring, ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik, bog‘liqlikni ko‘rsating!

Metod yordamida o‘quvchilar topshiriq bo‘yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalaydi:



“KONSEPTUAL JADVAL” METODI

Metod o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashga o‘rgatadi. Undan foydalanishda o‘quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Mashg‘ulotlar chog‘ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

O‘qituvchi yechimi topilishi lozim bo‘lgan mavzu (masala)ni aniqlaydi.

↓

O‘quvchilar mavzu va metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladi.

↓

O‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi.

↓

Guruhlar o‘zlariga berilgan topshiriqni bajaradi.

↓

Guruhlar yechimni sinf (guruh) jamoasi hukmiga havola etadi.

↓


Guruhlarning yechimlari sinf (guruh) jamoasida muhokama qilinadi.

O‘quvchilar e’tiboriga quyidagi namunani tavsiya etish mumkin:

O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi jihatlar	**Muhim belgilar, tavsiflar**		
	1-belgi (tavsif)	**2-belgi (tavsif)**	**3-belgi (tavsif)**
1-jihat			
2-jihat			
...			

“KUBIK” METODI

Metod turli vaziyatlarni hosil qilish orqali mavzuning o‘rganilishini osonlashtirishga xizmat qiladi. Kubikning oltita qirrasida o‘rganiladigan mavzu (muammo)ni chuqur tahlil qilishga yordam beradigan tushuncha (yo‘nalish)lar mavjud. Metod mohiyatiga ko‘ra kubikning oltita qirrasida quyidagi ko‘rsatmalar o‘z ifodasini topadi:



Izoh: “Kubik”ning olti qirrasidagi har bir ko‘rsatma o‘z ma’nosiga ega.

1. **Tasvirlang!** Predmetni diqqat bilan ko‘zdan kechirib, uning nimaligini tasvirlab bering! Tasvirlash jarayonida predmetning rangi, shakli va hajmini aniq yoritishga e’tibor qarating!

2. **Taqqoslang!** Taqqoslash asosida predmetning nimaga o‘xshashi, nimadan keskin farqlanishini ayting!

3. **Izohlang!** Predmetning bunday tuzilma, hajm, shakl va rangga egaligining sabablarini tushuntiring! Predmet Sizni nimalar haqida o‘ylashga majbur etmoqda? Xayollaringizga erk bering! (Tasvirlangan predmetlar bir-birlariga o‘xshashi, bir-biridan keskin farqlanishi mumkin).

4. **Tahlil qiling!** Predmetning yasalish (yaratilish) jarayoni qanday? (Predmetning yasalishini bilishingiz shart emas, buni o‘ylab toping!).

5. **Qo‘llang!** Predmetdan Siz hayotiy jarayonlarda foydalana olasizmi? Undan qanday foydalanishingiz mumkin?

6. **Asoslang!** Predmetning amaliy qiymatini belgilovchi fikrlaringizni asoslang! Bu jarayonda ishonchli dalilllar topishga harakat qiling!

Metod o‘quvchilarni muayyan muammo (mavzu)ni olti tomondan turlicha yondashib, muhokama qilishga undaydi. Bu harakat muammo yechimini topishni tezlashtiradi.

“KUNGABOQAR” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda muammolarni yechish, umumlashtirish, mustaqil fikrlash va o‘z fikrlarini erkin bayon qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o‘rganilgan mavzuni takrorlash, o‘quvchilarning bu boradagi bilimlarini mustahkamlash, ular tomonidan egallangan bilimlar darajasini aniqlashda samara beradi.

Mazkur texnologiya quyidagi tartibda qo‘llaniladi:

O‘quvchilar 4–5 nafardan kichik guruhlarga biriktiriladi.

↓

O‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bitta (yoki har bir guruh uchun bittadan) muammoni o‘rtaga tashlaydi.

↓

Guruhlar tomonidan topshiriqni bajarish uchun vaqt (10 daqiqa) belgilanadi.

↓

Berilgan topshiriqqa muvofiq har bir guruh muammo va uning yechimlari asosida yozuv taxtasida “kungaboqar”ni hosil qiladi (bunda markazga doira chizilib, uning atrofiga “gulbarglar” yopishtiriladi).

↓

Belgilangan vaqt ichida o‘quvchilar jamoa yoki guruh bo‘lib, o‘rtaga tashlangan muammolar bo‘yicha fikr almashadi [fikrlar “gulbarg”ga yozilib, tegishli muammo yozilgan “gul” (ya’ni doira)ga joylashtiriladi].

↓

Topshiriq to‘la bajarilgach, har bir guruh o‘z ishini namoyish qiladi.

↓

Sinf (guruh) jamoasi a’zolari har bir kichik guruhning ishi bilan tanishib, muammo yuzasidan tug‘ilgan savol va mulohazalarni “kungaboqar”ning poyasiga “barg” sifatida yopishtirib chiqadi.

↓

Har bir guruh o‘ziga berilgan savollarga javob qaytaradi.

↓

Barcha kichik guruhlarning ishlari o‘rganilib, muhokama qilingach, o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Izoh: 1. Fikrlarning ko‘pligiga qarab “kungaboqar” o‘sib boradi.
2. Har bir guruh ishi yuzasidan mulohaza va fikrlarni bildirishga 6 daqiqa vaqt ajratiladi.

“KUNDALIK” METODI

Metodni qo‘llashda o‘quvchilardan tashkil etilgan “Sifat guruhi” a’zolarining har biriga yon daftarcha tarqatiladi. Daftarchalarga muhokama qilinayotgan muammoga oid, haftaning muayyan kunida tug‘iladigan g‘oyalar yozib boriladi. Jamoa a’zolarining qaydlari guruh sardori tomonidan tahlil qilinadi. To‘plangan materiallar haftaning yakunida sinf (guruh) jamoasi yig‘ilishida muhokama qilinadi.

Mazkur metodning ahamiyatli jihatlari, birinchidan, paydo bo‘lgan g‘oya yoki ixtirochilik takliflari “Jamoa (yoki guruh) taklifi” nomini oladi, ikkinchidan, barcha noaniq va turli nuqtayi nazardan iborat fikrlar guruh yig‘ilishiga qadar oydinlashtiriladi. “Boshqacha bo‘lishi ham mumkin emas!” tarzida keskin bildirilgan fikrlar bir qadar “yumshatiladi”. Muhokamaga, odatda, “me’yorlashtirilgan” fikrlar olib chiqiladi.

“KO‘RGAZMA” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda mavzu yuzasidan o‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni ko‘rgazmali qurollar vositasida namoyish etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, texnologiya o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi. Ko‘rgazmali qurollar (tasvir, sxema, maket va b.)ni yaratish uchun o‘quvchilar mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy g‘oya, tushunchalarni ajrata olish, ular o‘rtasida o‘zaro mantiqiy bog‘liqlikni yuzaga keltirish layoqatiga ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jarayonida texnologiya asosida ishlashi uchun o‘quvchilarga namuna sifatida quyidagi sxema taqdim etiladi:

1-tasvir	2-tasvir	3-tasvir	4-tasvir	...

Mashg‘ulotda texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi tomonidan topshiriq uchun mavzu, masala yoki muammo tanlanadi.

↓

O‘quvchilarga bu haqida ma’lumot beriladi.

↓

O‘quvchilar berilgan topshiriq bo‘yicha o‘zlari o‘zlashtirgan bilimlarni muayyan tartibda tizimlashtiradi, asosiy g‘oya va tushunchalarni belgilab oladi.

↓

O‘quvchilar belgilab olingan asosiy g‘oya va tushunchalarning mazmuni, ma’nosini sharhlaydi.

↓

Sharhlar kompyuterda “Power Point” dasturi bo‘yicha slaydlarda aks ettiriladi.

↓

Tayyorlangan slaydlar namoyish qilinadi.

↓

O‘quvchilar tomonidan individual ravishda yoki guruh (juftlik) asosida tayyorlangan slaydlar muhokama qilinib, yakuniy xulosaga kelinadi.

↓

O‘quvchilarning faoliyati o‘qituvchi tomonidan baholanadi.

“LABIRINT” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda o‘quv va hayotiy faoliyatda uchraydigan turli holat, vaziyatlarni to‘g‘ri baholash, ulardan chiqa olish, tezlik bilan zarur yechimlarni topish ko‘nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Uni qo‘llashda quyidagi tashkiliy vazifalar hal qilinadi:

O‘qituvchi o‘quvchilar yordamida stullarni doira shaklida joylashtiradi. ← **Suhbat** → O‘rtaga savat yoki tuvakda gulning qo‘yilishi jamoada ijobiy muhitni hosil qiladi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘quvchilar stullardan o‘rin olib, o‘z hayotlarida ro‘y bergan qiziq voqealar, hayotiy vaziyatlar haqida o‘zaro suhbatlashadi.

↓

O‘qituvchi suhbat jarayonini kuzatib borib, ma’lum vaziyatni tanlab oladi va o‘quvchilarni ana shu vaziyatdan chiqishning samarali yo‘lini topishga undaydi.

↓

O‘quvchilar o‘z xohishlariga ko‘ra uch (to‘rt, besh, olti va h. k.) nafardan iborat kichik guruhlarni hosil qiladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10–15 daqiqa) belgilanadi.

↓

Har bir kichik guruh navbat bilan muammoli vaziyatning yechimiga oid qarashlarni og‘zaki bayon qiladi.

↓

Guruhlar o‘z javoblarini bayon qilganidan so‘ng, muammoli vaziyat to‘g‘risida so‘z yuritgan kichik guruh ham o‘z taklifini bayon qiladi.

↓

Kichik guruhlar yechimlari jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

↓

Mashg‘ulot yakunida o‘qituvchi muammoli vaziyatga o‘z munosabatini bildirib, o‘quvchilarga bu kabi vaziyatlardan chiqish yo‘llari yuzasidan tavsiyalarni beradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilar fikrlarini umumlashtirib, ularning savol-javoblardagi ishtiroki, muammoli savol tuzish mahoratini guruhli yoki yakka tartibda baholab, mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Izoh: o‘qituvchi vaziyatning uch (to‘rt, besh, olti va h. k.) yechimlarini aytib, ulardan birini tanlashni taklif etadi, so‘ngra nima uchun bu variantni tanlaganliklari sababini so‘raydi.

“LOYIHALASH” METODI

Metod o‘quvchilar tomonidan individual, guruh yoki jamoa tarzida aniq belgilangan vaqt oralig‘ida o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha axborotlarni yig‘ish va tadqiq qilinishini ta’minlashga xizmat qiladi. Mashg‘ulotlarda metoddan foydalanish o‘quvchilarda rejalashtirish, qaror qabul qilish, faoliyatni amalga oshirish, ma’lumotlarni qayta tekshirish, mavjud ma’lumotlarga tayangan holda xulosa chiqarish, natijalarni baholash ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Metodni qo‘llashda o‘quvchilar mavzu bo‘yicha yangi loyihalarni yarata olishi lozim. Loyihalarni yaratishda taklif etilgan jarayonning mohiyati qisqa, aniq fikr, belgi, tasvirlar yordamida ifodalanishi talab etiladi.

Metodning didaktik imkoniyatlari quyidagilar bilan belgilanadi:

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Metodning didaktik imkoniyatlari

- O‘quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi, rivojlantiradi.
- O‘quvchilarda mavzularni mustaqil o‘rganish ehtiyojini qaror toptiradi.
- O‘quvchilarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

“MANTIQIY CHALKASH ZANJIR” METODI

Metod tushunchalar, bildirilgan fikrlar o‘rtasida bog‘liqlikni yuzaga keltirish, ularni mantiqiy jihatdan ketma-ketlikda to‘g‘ri ifodalashga yordam beradi. Uning mohiyatiga o‘qituvchi mavzuni yorituvchi ma’lumotlarni to‘g‘ri va noto‘g‘ri tartibda bayon etadi. O‘quvchilarning vazifasi mantiqiy jihatdan noto‘g‘ri ifodalangan ma’lumotlarni to‘g‘ri dalillarga aylantirish, yuzaga kelgan mantiqiy chalkashlikni tuzatish, fikrlarni muayyan ketma-ketlikda to‘g‘ri joylashtirgan holda uzilgan zanjirni “ulash”dan iborat.

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.
2. O‘quvchilar bir nechta kichik guruhlarga biriktiriladi.
3. Kichik guruhlarga o‘zida chalkash ma’lumotlarni ifodalagan tarqatmali materiallar beriladi.
4. Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi (5 daqiqa) belgilanadi.
5. Kichik guruh tarqatmali materialda ifodalangan matndagi mantiqiy xato va chalkashliklarni aniqlab, uzilgan zanjirni “ulash”ga harakat qiladi.
6. Belgilangan vaqt yakunlangach, har bir guruhdan bir nafar vakil jamoani topshiriq mazmuni va guruhning javoblari bilan tanishtiradi.

Jamoada guruhlarning javoblari yuzasidan muhokama tashkil etiladi.

↓

O‘qituvchi jamoaning fikriga tayanib guruhlar ishini baholaydi.


Izoh: o‘qituvchi mustaqil ishlashini ta’minlash uchun har bir o‘quvchiga mazmunini biroz o‘zgartirgan holda alohida topshiriq berishi mumkin.

“MUSBAT, MANFIY, QIZIQARLI” (MMQ) METODI

Metod mavjud vaziyatning barcha detallarini puxta o‘rganish asosida xulosa chiqarishga odatlantirish orqali o‘quvchilar ongini boyitish, tafakkurini kengaytirishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida MMQ metodini qo‘llash o‘quvchilarning ma’lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e’tiborni qaratish, ularning salbiy jihatlarni baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga oid ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishda samara beradi. Bunda asosiy e’tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiy jihatlarini inobatga olishga qaratiladi. O‘rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o‘rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

O‘quv fanlaridan bilimlarni o‘zlashtirishda MMQ metodi qo‘llanilsa, o‘quvchilarning fikrlash samaradorligi bir necha marta oshadi. Ko‘p hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ham ushbu metodni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

MMQ metodi bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar faoliyatini o‘rganish va baholash metodi ham hisoblanadi. Uni qo‘llash sxemasi quyidagicha:



Metoddan ta’lim jarayonida foydalanish muammoni oson, to‘liq va batafsil o‘rganishga yordam beradi.

“MENGA SO‘Z BERING!” METODI

Metod o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala yoki tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha shaxsiy fikr-mulohazalarini bildirish, fikrlarni dalillar bilan isbotlash, ularni himoya qilish, mantiqiy xulosalarni ilgari surish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi ta’limiy hamkorlikni qaror toptirishga yordam beradi. Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash orqali o‘quvchilar darsning tashkiliy jihatlari, samaradorligi xususida o‘z fikrlarini bayon qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘quvchilar ishtirokida metodni qo‘llash quyidagi tartibda tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi o‘rganilgan mavzu bo‘yicha aniq muammoni tanlaydi.
2. O‘quvchilar muammo yuzasidan fikr.
yuritishi uchun vaqt hajmi (6 daqiqa) belgilanadi.
3. O‘quvchilar muammo yuzasidan mushohada yuritadi.
4. Belgilangan vaqt yakuniga yetgach, o‘quvchilar navbatma-navbat muammoning yechimi xususidagi fikrlarini bildiradi.
5. Jamoa o‘qituvchi yordamida eng yaxshi yechimni aniqlaydi.
6. O‘qituvchi mashg‘ulotni yakunlaydi.

“MODELLASHTIRISH” METODI

“Modellashtirish” (ingl. *modulus* – o‘lchov, me’yor) metodi o‘quvchilarda o‘zlashtirilgan mavzu, masala yoki hal qilingan muammo yuzasidan mantiqiy fikrlash, mavzu, masala yoki hal qilinayotgan muammoning umumiy mohiyatini model (shartli belgi)lar yordamida ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uni qo‘llashda tanlangan obyekt mohiyati, muhim xususiyatlari, ustuvor jihatlarini to‘la ochib berishga alohida e’tibor qaratiladi.

Mashg‘ulotda metoddan foydalanish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

O‘quvchilar mavzu (masala, muammo) mohiyatini puxta anglab oladi.

↓

O‘quvchilar mavzu (masala, muammo) mohiyatini to‘laqonli ifoda etadigan asosiy jihatlar, tayanch tushunchalarni ajratadi.

↓

Tayanch tushunchalar yordamida umumiy model yaratiladi.

↓

Har bir o‘quvchi model yordamida o‘rganilgan mavzu (masala, muammo)ning mohiyati to‘g‘risida jamoaga ma’lumot beradi.

↓

Har bir o‘quvchi tomonidan taklif etilgan modelning maqsadga muvofiq yaratilganligi, mavzu (masala, muammo) mohiyatining ochib berilishi jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” METODI

Metod o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlarini o‘rganish, yechimlarini topishga undash orqali ularda muayyan ko‘nikma, malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida “Muammoli vaziyat” metodini qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Mavzu yuzasidan muammoli vaziyatlarni shakllantirish.

↓

Muammoli vaziyat mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtirish.

↓

O‘quvchilarni kichik guruh (juftlik)larga ajratish.

↓

Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yechimini topish bo‘yicha amaliy faoliyatning tashkil etilishi.

↓

Guruh (juftlik)lar tomonidan muammoli vaziyat yuzasidan o‘z yechimlarining bayon qilinishi.

↓

Guruh (juftlik)larning yechim borasidagi fikrlarini umumlashtirish.

↓

Guruh (juftlik)lar tomonidan taqdim etilgan yechimlarning maqbullik darajasini o‘rganish (ommaviy muhokama qilish, ekspertlar muhokamasidan o‘tkazish).

↓

Eng to‘g‘ri, maqbul yechimni aniqlash.

“MUNOSABAT” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarga ular tomonidan mavzu bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni erkin bayon qilish, mazmunini o‘z fikri, hayotiy misollar yordamida yoritilishini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘quv jarayonida texnologiyadan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayon (voqelik, hodisa)ning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrini isbotlash va turli vaziyatlardan chiqa olish ko‘nikma, malakalarini hosil qiladi.

Texnologiya tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilarga o‘zlarida ijobiy fazilatlarni ko‘proq shakllantirish, salbiy xislatlardan esa voz kechishlarida yordam beradi.

Izoh: 1. Texnologiyani qo‘llash vaqtida guruhlar o‘qituvchi tomonidan bayon etilgan fikrning 3 ta jihati, omili bo‘yicha o‘z mulohazalarini erkin bayon etadi. O‘qituvchi ularni yozuv taxtasi yoki vatman qog‘oziga yozib boradi.

2. Topshiriq bajarilishidan avval o‘qituvchi guruhlarga vatman qog‘ozlardagi sxemani to‘ldirish lozimligini, to‘ldirish tartibini tushuntiradi.

3. Kichik guruhlar quyidagi jadval asosida topshiriqlarni bajaradi:

Muammo	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yo‘llari	Sizning xulosangiz

O‘qituvchi o‘quvchilarni mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi va biror fikr (hikmatli so‘z)ni o‘rtaga tashlaydi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro munosabatni tashkil etadi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, vatman qog‘ozlarda ifodalangan jadvalni 1-kichik guruhga beradi.

↓

Guruhlar jadval asosida topshiriqni bajarishga kirishadi.

↓

1-kichik guruh o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan muammolardan birini tanlab, uni muhokama qiladi va jadvalning 1-bandiga muammoning mohiyatini yozadi.

↓

O‘qituvchi jadvalni 2-kichik guruhga beradi.

↓

2-kichik guruh jadvalning 2-bandidagi topshiriqni bajaradi.

↓

O‘qituvchi jadvalni 3-kichik guruhga beradi.

↓

3-kichik guruh jadvalning 3-bandidagi topshiriqni bajaradi.

↓

O‘qituvchi jadvalni 4-kichik guruhga beradi.

↓

4-kichik guruh jadvalning 4-bandidagi topshiriqni bajaradi.

↓

jadvalda berilgan vazifalarning barchasi bajarilgach, guruhlar o‘z ishlarini himoya qiladi.

↓

Himoya tugaganidan so‘ng, jamoa har bir guruh ishini muhokama qiladi.

↓

Jamoa o‘qituvchi rahbarligida eng yaxshi fikrni tanlab oladi va o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

“MUAMMO” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarni mavzudan kelib chiqib, turli muammoli masala yoki vaziyatlarning to‘g‘ri yechimini topish, muammo mohiyatini aniqlashga oid malakalarni shakllantirish, uni yechishning ayrim usullari bilan tanishtirish, yechimni topish uchun mos usullarni to‘g‘ri tanlash, muammoning kelib chiqish sabablari, shuningdek, yechimni topishga yo‘naltirilgan harakatlarning maqsadga muvofiqligini aniqlashga o‘rgatadi.

Ta’lim jarayonida texnologiyani qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni guruhlarga ajratib, ularni mos o‘rinlarga joylashtirganidan so‘ng, mashg‘ulotni o‘tkazish qoidasi bilan tanishtiradi.

↓

Har bir guruh a’zosi rasm yoki matndagi hayotiy lavha bo‘yicha birgalikda aniqlangan muammoni vatman qog‘ozlarga flomaster yordamida yozadi.

↓

Berilgan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z ishlarini namoyish qiladi.

↓

O‘qituvchi guruhlar tomonidan tanlangan va muammolar yozilgan qog‘ozlarni almashtirgan holda guruhlarga qayta tarqatadi.

↓

Har bir guruh a’zosi qog‘ozlarda yozilgan muammolar orasidan o‘zini qiziqtirgan muammoni tanlab olib, uni o‘qituvchi tomonidan tavsiya qilingan jadvalda qayd etadi va tahlil qiladi.

↓

Sinf (guruh) jamoasi o‘qituvchi rahbarligida guruhlar hamda har bir o‘quvchining ishini muhokama qilib, eng yaxshi ishni tanlaydi.

↓

O‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Izoh: 1. O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyadan foydalanish qoidalari bilan tanishtirishda mashg‘ulotning bosqichli bo‘lishi, har bir bosqichda o‘quvchidan e’tiborli bo‘lish talab qilinishi, mashg‘ulot davomida ular yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlashlariga urg‘u berib o‘tishi lozim. Bunday yo‘l tutish o‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishga ruhan tayyor bo‘lishlariga yordam beradi, ularda qiziqishini uyg‘otadi.

2. Texnologiya asosida ishlashda o‘quvchilar tomonidan mashg‘ulot uchun tayyorlangan plakat, rasm, afisha yoki biror muammo bayon qilingan matn, darslik, yordamchi adabiyotlardan biror bir materialni o‘rganib, unda yoritilgan muammolarni aniqlaydi va ularni xotirada saqlab qoladi yoki daftarlarga belgilab qo‘yadi.

3. O‘quvchilar topshiriqni individual ravishda bajarishi uchun o‘qituvchi tomonidan quyidagi jadval tavsiya etiladi:

Muammo turi	Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni yechishning yo‘llari (amaliy harakatlar)
1.		

2.		
...		

“MUZYORAR” METODI

Metod o‘quvchilarni faollashtiruvchi, ma’lum faoliyatga jalb qiluvchi mashq bo‘lib, ularning o‘zaro tanishishi va jamoada ishchanlik muhitini yaratish maqsadida qo‘llanadi.

Uning asosiy vazifasi o‘quvchini o‘zaro muloqotga chorlashdir.

Ko‘pchilik notanish muhit (yangi jamoa, sinf, maktab, kurs)da o‘zini noqulay sezadi va shu sababli jamoa bilan qo‘shilib ketolmaydi. Chunki ular hali jamoa, unda qaror topgan muhitdan xabardor emas. Bu esa ularning jamoa a’zolari bilan yaqindan munosabatda bo‘lishi, muloqotni tashkil etishi yo‘lidagi eng jiddiy to‘siq sanaladi. Bordi-yu, jamoaga yaqinda kelgan shaxs uning loaqal bir nafar a’zosi bilan tanish bo‘lsa, bunday holatda uning yangi muhitga moslashishi oson kechadi.

Shu bois, o‘qituvchi (yoki boshlovchi) yangi sharoitda o‘quvchilarga o‘zlarida ishonch hissini yuzaga keltiradigan do‘stona muhitni, butun diqqatni jalb etadigan yoki ijodiy kayfiyatni ifodalay oladigan vaziyatni yaratib berishi kerak. “Muzyorar” metodi ana shu maqsadda qo‘llaniladi. Metod o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi “muz”ni eritish, “devor”ni yo‘qotishga xizmat qiladi.

Ta’lim jarayonida metodni qo‘llash tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni 6 (7, 8 yoki 9) nafardan iborat kichik guruh yoki juftliklarga biriktiradi.

↓

O‘qituvchi kichik guruh yoki juftliklarga yangi mavzuni o‘rganishdan avval unga oid bir necha savollar bilan murojaat qiladi.

↓

Kichik guruh yoki juftliklar belgilangan muddat (3 daqiqa ichi)da berilgan savollar bo‘yicha muhokama tashkil etadi.

↓

Kichik guruh yoki juftliklar muhokama jarayonida savollarga qaytariladigan javoblar mohiyatini yorituvchi tayanch tushunchalarni ajratib, ularni ta’riflaydi.

Izoh: O‘quvchilar ta’riflarni yozma holda ifodalashi lozim.

“MULOQOT” TRENINGI

Trening o‘quvchilarda dars jarayonida mustaqil fikrlash, o‘z fikrini erkin bayon etish, bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Uni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodni qo‘llash sharti bilan tanishtiradi.

↓

O‘quvchilarni kichik guruhlarga biriktirib, topshiriq beradi.

↓

Har bir guruh o‘z yechimini jamoa e’tiboriga havola qiladi.

↓

Raqib jamoaning topshiriq yuzasidan fikri tinglanadi.

↓

Guruhlar bir-birlariga savol beradi.

↓

O‘qituvchi har ikki tomonning savol-javoblarini tinglagach, bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, shaxsiy mulohazasini bayon qiladi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarning savollariga javob beradi.

↓

O‘qituvchi har ikkala guruhning mashg‘ulot jarayonidagi faoliyatlarini tahlil etib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Izoh: Kichik guruhlar topshiriqni bajarish jarayonida mavzu yuzasidan material, dalil, fikrlarini tasdiqlovchi ko‘rgazmali-didaktik vosita, imkoni bo‘lsa, videofilm, maqola, iqtibos va boshqalarni tayyorlaydi.

“MUQOBIL IMKONIYATLAR TANLOVI” (MIT) STRATEGIYASI

Diqqatni yo‘naltirishga yordam beradigan ushbu strategiya mavzularni puxta o‘zlashtirish asosida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Odatda, o‘quvchilar fikrlash jarayonida dadil harakat qilish o‘rniga imkoniyatlarni chamalashga urinadi. Ko‘p hollarda o‘z imkoniyatlarini past baholaydi. Strategiya o‘quvchilar oldidagi ana shunday sun’iy to‘siqni bartaraf qilish, dadil harakatlanishga yordam beradi. Unga ko‘ra mavzuga oid tayanch tushunchalardan biri ajratib olinadi va garchi to‘g‘riligiga ishonch hosil qilinmasa-da, unga muqobil ta’riflar topiladi. Muqobil ta’rifni topish ma’lum afzalliklarga ega. Zero, ba’zan muqobil ta’riflar mavjud ta’riflarga nisbatan mavzu mohiyatini aniqroq, yorqinroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Strategiyadan foydalanishda, eng muhimi, ko‘zlanayotgan maqsad haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish talab qilinadi. Zero, metod aniq maqsadga muvofiq qo‘llanilgandagina samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Ta’lim jarayonida strategiyani qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni strategiya mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarga mavzuga oid tayanch tushunchalar va ularning muqobillarni topish vazifasini beradi.

↓

O‘quvchilar tomonidan ifodalangan tayanch va muqobil tushunchalar o‘qituvchi tomonidan yozuv taxtasi yoki vatman qog‘ozga yozib boriladi.

↓

Tayanch va muqobil tushunchalar aniqlashtirib olingach, o‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga biriktiradi.

↓

Guruhlar tayanch, muqobil tushunchalarni sharhlab, yozma holda ifodalaydi.

↓

Guruhlar navbat bilan o‘z yechimlarini namoyish qiladi.

↓

Jamoa o‘qituvchi yordamida guruhlar ishini muhokama qilib, eng yaxshi ishni ajratadi.

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

“NIMA UCHUN?” METODI

Metod o‘quvchilarda o‘rganilayotgan muammo yoki masala mohiyatini yorituvchi sabablarni aniqlash yuzasidan mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar muammoning yechimini topishga tizimli, ijodiy yondashishi, shu bilan birga sabablarni tahlil qila olishi lozim. Metodni qo‘llash shartlari quyidagicha:

1. Sxemada aks etadigan shakl (aylana, to‘g‘ri to‘rtburchak, kvadrat yoki uchburchak)larni o‘quvchilar mustaqil tanlaydi.
2. Sxemaning tarkibiy tuzilishi – mulohazalar zanjirining to‘g‘ri yoki egri chiziqli bo‘lishi ham o‘quvchilar tomonidan belgilanadi.
3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari o‘quvchilarning dastlabki holatdan yechimni topishgacha bo‘lgan faoliyatini ifodalaydi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati va shartlari bilan tanishtiradi.

↓

O‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi.

↓

O‘qituvchi guruhlarga mavzu bo‘yicha ma’lum topshiriqlarni beradi.

↓

Guruhlar masalaning yechimini ifodalashi zarur bo‘lgan sxemani yaratadi.

↓

Sxemada muammo (yoki masala)ning yuzaga kelish sabablari aks ettiriladi.

↓

Guruhlarning ishlari jamoada muhokama qilinib, eng yaxshi ish aniqlanadi.

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“NILUFAR GULI” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya didaktik muammolarni yechishning samarali vositalaridan bo‘lib, nilufar guli ko‘rinishiga ega. Asos, unga birikkan 9 ta “gulbarg” (kvadrat, to‘rtburchak yoki aylanalar) ni o‘z ichiga oladigan bu metod yordamida asosiy muammo va uning mazmunini yoritishga imkon beradigan xususiy masalalar hal etiladi.

O‘quvchilarda hal etilayotgan masala yuzasidan mantiqiy, izchil fikrlash, ichki mohiyatini tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Hal etiladigan masala aniqlashtiriladi.

↓

O‘quvchilar topshiriq mazmuni va uni yechish shartlari bilan tanishtiriladi.

↓

O‘quvchilar kichik guruh (yoki juftlik)larga biriktiriladi.

↓

Guruh yoki juftlik a’zolari markaziy to‘rtburchak (kvadrat, aylana)da asosiy muammo (g‘oya, vazifa)ni qayd etadi.

↓

Guruh (juftlik)lar masalaning yechimi yuzasidan fikr yuritib, markaziy to‘rtburchak (kvadrat, aylana) atrofida sakkizta shunday qo‘shimcha chizmalarni hosil qiladi (ularda masalaning xususiy yechimlari bayon etiladi).

↓

Qo‘shimcha chizmalardagi g‘oyalar gulning “gulbarglari”ga, ya’ni shunday alohida majmuaga olib chiqadi (ularning har biri yana bir muammo ko‘rinishini oladi).

↓

Yordamchi chizmalardagi yetakchi muammo (g‘oya, vazifa) atrofidagi “gulbarglar”da xususiy masala va yechimlar aks ettiriladi.

↓

O‘rganilayotgan masalaning mohiyatidan kelib chiqib, bu jarayon bir necha marta takrorlanishi mumkin.

↓

Har bir guruh yoki juftliklar topshiriq yuzasidan o‘z yechimlarini taqdimot tarzida bayon etadi.

↓

Guruhlarning yechimlari muhokama qilinib, eng to‘g‘ri variant aniqlanadi.

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

O‘quvchilarga quyidagi sxema namuna sifatida taqdim etiladi:

	B	
	J	
	I	

	D	
B	D	E
J	A	F
I	H	G
	H	

	E	
	F	
	G	

“OLMOS” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya mavzuga oid tushunchalarni muhimligi, ahamiyatligiga ko‘ra turli darajalarda ifodalashga xizmat qiladi. Tushunchalar o‘zining muhimligi, ahamiyatliligiga ko‘ra “Olmos” yoki “Yulduzcha” qirralari atrofiga, shuningdek, “Zina” hamda “Narvon”ga joylashtirilishi mumkin. Eng muhim (asosiy, yetakchi) tushunchalar “Olmos”, “Yulduzcha”ning o‘rtasiga yoki “Zina”, “Narvon”ning yuqori qismiga joylashtiriladi.

Mashg‘ulotda texnologiyani qo‘llash quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni juftliklarga ajratadi.

↓

Har bir juftlikka mavzuga oid o‘quv materialining 5 (6, 7, 8, 9)ga ajratilgan qismlari joylashtirilgan konvert berilib, ular orasidan tayanch tushunchalarni ajratish vazifasi topshiriladi.

↓

Juftliklar topshiriqni tamomlaganlaridan so‘ng, o‘qituvchi o‘quvchilarni 6 nafardan iborat a’zosi bo‘lgan guruhga ajratadi.

↓

Guruhdagi har bir juftlik o‘z yechimini qolgan ikkita guruh a’zolariga tushuntirib beradi.

↓

Guruh ichidagi juftliklar o‘z ishlari bilan sheriklarini tanishtirib bo‘lgach, guruh yagona fikr (xulosa)ga keladi.

↓

Har bir guruh o‘z xulosasi bilan boshqa guruhlarni tanishtiradi.

↓

Mashg‘ulot yakunida guruhlar bir-birlarining ishlariga baho beradi.

↓

O‘qituvchi jamoa fikrini umumlashtirib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“RAQAMLAR” METODI

Metod yordamida bir vaqtning o‘zida ko‘p sonli (20, 30, 40 va h. k.) o‘quvchilarni muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. U asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 4, 5 yoki 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 4, 5 va 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagicha amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 (5 yoki 6) nafardan guruhlarga biriktiradi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi guruhlarni qayta tuzadi (qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi guruhlardan bittadan vakil bo‘ladi).

↓

Yangi shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etadilar.

↓

Yangi shakllangan guruhda guruhdoshlar bayon etilgan yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

↓

O‘qituvchi savol-javoblar yordamida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlaydi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatiga baho berib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“REJA” METODI

Metod o‘quvchilar tomonidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etishga oid rejani ishlab chiqish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llash o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu mazmunini puxta o‘zlashtirish, asosiy g‘oyalarni umumlashtirish, ma’lum tizimga solish layoqatiga ega bo‘lishni taqozo etadi. Metod o‘quvchilar faoliyatini juftlik, guruh va jamoa asosida tashkil etish imkonini beradi.

Uni ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, volontyorlik harakatlarini olib borish, pedagogik amaliyotni tashkil etishda qo‘llash yanada samarali hisoblanadi.

Odatda, rejani ishlab chiqishda pedagogik vaziyat, o‘quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlari, ma’naviy-ma’rifiy ishning yo‘nalishi, mazmuni hamda samaradorlikka erishish imkoniyatiga egalik inobatga olinadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodni qo‘llash tartibi bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni juftlik yoki guruhlarga ajratadi.

↓

O‘qituvchi har bir juftlik yoki guruhga individual topshiriq beradi.

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (6–10 daqiqa) belgilanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, juftlik yoki guruhlar o‘z ishlarini namoyish qiladi.

↓

Jamoa guruhlarning a’zolariga savollar berib, topshiriqning mohiyatini yanada to‘liq ochilishiga ko‘maklashadi.

↓

Jamoa o‘qituvchi rahbarligida juftlik yoki guruhlar ishini baholab, eng yaxshi ishni ajratadi.

↓

O‘qituvchi jamoa fikriga tayangan holda g‘oliblarni e’lon qiladi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

Odatda, metod ta’limiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarda qo‘llanilganida o‘quvchilarga quyidagi sxema asosida faoliyat yuritish tavsiya qilinadi:

1) o‘quv materialini o‘zlashtirish bo‘yicha:

№	Bo‘lim yoki bob nomi	Shakli	Kutilayotgan samaradorlik	Natija
1.				
2.				
3.				
...				

2) ma’naviy-ma’rifiy ishlarni rejalashtirish bo‘yicha:

№	Tadbir nomi	Shakli	O‘tkazilish muddati	Mas’ul shaxs	Ilova
1.					
2.					
3.					
...					

Izoh: 1. O‘quvchilar metod bilan ishlashda sxemaning “Shakli” nomli bandida o‘quv materiallarini o‘zlashtirish yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi shakllarni ko‘rsatishi mumkin: suhbat, davra suhbati, bahs-munozara, musobaqa, bellashuv, test, yozma ish, ijodiy ishlar tanlovi, konferensiya, seminar, debat, festival, forum va b.

2. O‘quvchilar mantiqiy ravishda o‘quv materiallarini o‘zlashtirish yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish yuzasidan ko‘rsatilgan shakllarni qo‘llashdan kutilayotgan samaradorlikni ham asoslay olishi lozim.

3. Shuningdek, ular o‘quv materiallarini o‘zlashtirish yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishga oid shakllarni qo‘llashning natijalari aynan nimalarda aks etishini ham ifodalay bilishi lozim.

“REZYUME” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilar tomonidan murakkab, ko‘p tarmoqli va muammoli mavzularning samarali o‘zlashtirilishi uchun xizmat qiladi. Unga ko‘ra, o‘rganilayotgan mavzuning band yoki bo‘limlari bo‘yicha axborot berilib, har biri alohida tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida o‘quv materialining mohiyatini yorituvchi asosiy tushuncha, muhim qoidalarning mazmuni, ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishdagi ahamiyati, murakkablik darajasi va amaliy qiymati kabi holatlarga e’tibor qaratiladi.

Bu texnologiya o‘quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlash, jamoa bo‘lib ishlash, izlanish, mavzudan kelib chiqqan holda o‘quv muammosining yechimini topish, zarur xulosalar chiqarish, oqilona qarorlar qabul qilish, jamoaga samarali ta’sir etish, mavzu bo‘yicha egallangan bilimlarni bevosita amalda qo‘llay olishga o‘rgatadi.

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiya mohiyati va qo‘llash shartlari bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni ularning soniga qarab guruhlarga ajratadi.

↓

Har bir guruhga tavsiya etilgan muammoning yechimini topishga oid topshiriq beradi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (8–10 daqiqa) belgilanadi.

↓

Har bir guruh topshiriqni bajarishda o‘qituvchi tomonidan taqdim etilgan sxema asosida ish ko‘radi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhning bir nafar a’zosi topshiriq yechimi bo‘yicha ishlanmalarni namoyish qiladi (taqdimotda yechimning “Xulosa” qismi bayon etilmaydi).

↓

O‘qituvchi boshqa guruhlardan o‘z yechimini taqdim etgan guruhning xulosasi yuzasidan fikr bildirishni so‘raydi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga metoddan foydalanishda quyidagi sxema asosida ish ko‘rishni tavsiya etadi:

Asosiy muammo:			
№	**Xususiy muammolar**	**Yechimlari**	**Natija**
1.			
2.			
3.			
4.			
Xulosa:			

“ROTATSIYA” METODI

Metod mavzuni kichik guruhlarda o‘rganish, asosiy g‘oyalarni yozma bayon etish, guruhlar tomonidan taqdim qilingan ishlarni jamoa ishtirokida tahlil qilish imkonini beradi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘rganilayotgan mavzuga oid topshiriqlar yozma ravishda bayon qilinib, yozuv taxtasiga osib qo‘yiladi.

↓

O‘quvchilar topshiriqlar soniga ko‘ra guruhlarga biriktiriladi.

↓

Guruhlar ixtiyoriy ravishda topshiriqlar paketini tanlab, topshiriqni bajarishga kirishadi.

↓

Topshiriqning yechimi yozma bayon qilinadi va guruh ishining ajratib olish oson bo‘lishi uchun paket ustiga maxsus belgilar qo‘yiladi.

↓

Topshiriqning yechimi bayon qilingan paketlar guruhlar o‘rtasida o‘zaro almashtiriladi.

↓

Barcha topshiriqlarning mazmuni guruhlar tomonidan o‘rganilib bo‘lgach, topshiriqlar paketlari yig‘ib olinadi va yechimlar umumlashtiriladi.

↓

Yechimlar jamoada muhokama qilinib, eng to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

↓

O‘qituvchi mashg‘ulotni yakunlaydi.

“SAVOL-JAVOB” METODI

Metod mavzuning o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga yordam beradi. Uni qo‘llashning samaradorligi savol-javoblarning aniq, qisqa va tushunarli tarzda ifoda etilishi, aynan mavzuga oid bo‘lishiga bog‘liq.

Ta’lim jarayonida metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi mohiyati yoritilgan mavzu yuzasidan savollar tayyorlaydi.

↓

O‘qituvchi savollarni o‘quvchilarning e’tiborlariga havola etadi.

↓

O‘quvchilar berilgan savollarga javob qaytarish orqali mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini namoyish etadi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarning savol-javobdagi ishtiroklarini tahlil qilib, baholaydi va mashg‘ulotga yakun yasaydi.

“SAD” (SAMARALI, AXLOQIY, DIDLI) TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda yakka, guruh va jamoa bo‘lib ishlash, ijodkorlik, tashkilotchilik, ishga mas’uliyat bilan yondashish, bajarilgan ishni yuksak did bilan taqdim etish (namoyish qilish) ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uni qo‘llashda o‘quvchilarga quyidagi topshiriqlarni berish mumkin:

O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini jadval yordamida yoritish	O‘rganilayotgan mavzuga oid annotatsiya tayyorlash
O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini yorituvchi ilmiy devoriy gazeta eskizini tayyorlash	O‘rganilayotgan mavzuga yaqin mavzuda yoki uni to‘ldiruvchi ma’lumotlar asosida ilmiy maqola yozish
O‘rganilayotgan mavzuda ifodalangan jarayon, hodisa, buyum yoki predmetlar maketini tayyorlash	O‘rganilgan bob yoki bo‘lim mohiyatini yorituvchi anjuman tashkil etiladigan joyni bezatish uchun dekoratsiyalar tayyorlash
O‘rganilgan mavzu mohiyatini yorituvchi rezyumni taqdim etish	Ikebana tayyorlash (tartibga solish)

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyani qo‘llash qoidasi bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi.

↓

O‘qituvchi guruhlarga turli topshiriqlar bo‘yicha bajarilgan bir necha namunaviy eskizlarni tarqatadi.

↓

Topshiriqlarni bajarish uchun vaqt hajmi [bajarish uchun 25 daqiqa, taqdim etish uchun 5 (10) daqiqa] belgilanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z ishlarini taqdim etadilar.

↓

Taqdimot vaqtida guruhlar o‘z ishlarining har bir detalini asoslaydilar.

↓

Guruhlar taqdimoti tugagach, jamoa o‘qituvchi rahbarligida ular yuzasidan muhokamani tashkil etadi.

↓

Muhokama jarayonida o‘quvchilar eng sifatli, didli, mazmunan yuksak saviyada bajarilgan ishni aniqlaydilar.

↓

O‘qituvchining taklifiga ko‘ra yoki jamoa tomonidan tashkil etilgan “Ijodiy guruh” o‘quvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohaza va takliflarni yozuv taxtasi yoki vatman qog‘oziga yozib boradilar.

↓

O‘qituvchi jamoaning fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Izoh: kichik guruhlarda o‘quvchilar rassom, adabiy muharrir va dizayner (bezakchi) rollarni bajarishadi. Kichik guruhlar o‘rganilgan mavzuga oid sxema, jadval, slayd, dekoratsiya, eskiz tayyorlaydi.

“SWOT-TAHLIL” METODI

Metod muammoning asosiy 4 ta jihatini yoritishga xizmat qiladi. O‘quvchilar mavzuning mazmuniga mos muammolarni atroflicha o‘rganish orqali mohiyatini yoritadilar, keltirib chiqaruvchi omillarni izlab, hal qilish imkoniyatlarini topadilar.

U yordamida muammoning quyidagi to‘rt jihati tahlil qilinadi:

Kuchli (ustun) jihatlari (hal etilayotgan muammoning afzalliklari)ni yoritish.

↓

Kuchsiz (zaif) jihatlari (maqsadga erishish yo‘lida tashkil etilayotgan harakatlarga ichki omillarining ta’siri)ni o‘rganish.

↓

Imkoniyatlarni chamalash (belgilangan vazifalarni hal etishning eng maqbul yo‘llarini izlash).

↓

Tahdidni o‘rganish (maqsadga erishish yo‘lida tashkil etilayotgan harakatlarga tashqi omillar ta’sirini aniqlash).

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash tartibi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyaning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

↓

Guruhlarga bir xil yoki bir necha xil muammoni hal etish topshirig‘i beriladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (6-10 daqiqa) belgilanadi.

↓

Guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, har bir guruhdan 1 nafar vakil guruh ishi bilan jamoani tanishtiradi.

↓

Guruhlarning ishlari o‘qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

↓

O‘qituvchi jamoaning fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishiga baho berib, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Izoh: texnologiyani qo‘llash muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarish ehtimoli mavjud. Bunday hollarda o‘qituvchi texnologiyaning asosiy mohiyati yoki biror bosqichini o‘quvchining yoshiga moslab, unga tushunarli so‘zlar bilan ifodalashi (o‘zgartirishi) mumkin.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarga texnologiyaning mohiyati, afzalliklari haqida yetarlicha ma’lumot berilishi ular tomonidan hal etiladigan muammo mohiyatining to‘la tushunilishini ta’minlash va kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

“SSENARIY” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda individual va jamoa bo‘lib, ijodiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. U asosida ish ko‘rish o‘quvchilarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni oldindan rejalashtirish, ssenariyni tayyorlash, tadbirni tashkil etish ko‘nikma, malakalarini hosil qilishga yordam beradi. Texnologiya o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mashg‘ulot jarayonida texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda kechadi:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyaning mohiyati bilan tanishtiradi.
2. Har bir o‘quvchi individual ishlash uchun o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mavzulardan birini oladi.
3. Har bir o‘quvchi o‘zi tanlangan mavzu bo‘yicha tadbir tashkil etish rejasini tuzadi va u asosida ssenariy tayyorlaydi.
4. Har bir o‘quvchi o‘zi tuzgan reja va tayyorlagan ssenariy haqida jamoaga qisqacha ma’lumot beradi.
5. O‘quvchilar o‘zlari tuzgan reja, tayyorlagan ssenariylarining mavzusi va yo‘nalishiga ko‘ra kichik guruhlarga birikadi.
6. Guruhda har bir a’zo guruhdoshlarni o‘zi tuzgan reja va tayyorlagan ssenariy mazmuni bilan tanishtiradi.
7. Guruh a’zolari har bir ish yuzasidan o‘z fikr-mulohazalarini bildiradi.
8. Har bir guruhda bittadan eng yaxshi reja va ssenariy tanlab olinadi.
9. Guruh a’zolari tanlab olingan reja va ssenariyni mazmunan boyitadi.
10. Har bir guruh o‘z reja-ssenariylari bilan jamoani tanishtiradi.
11. Guruhlar ishi yuzasidan savol-javob tashkil etiladi.
12. Jamoa har bir guruh tomonidan taqdim etilgan reja-ssenariyni muhokama qiladi.

Izoh: Reja-ssenariy loyihasining namoyishi sxema yoki tomosha shaklida bo‘lishi mumkin. Keyinchalik foydalanish uchun ssenariylar tashkilotchilarga tavsiya etiladi.

“SINKVEYN” METODI

J. Still, K. Meredis, Ch. Temil tomonidan ishlab chiqilgan “O‘qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish dasturi”da har bir o‘quvchining fikrlash faolligini oshirish, ularda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun “Sinkveyn” metodini qo‘llash samarali ekanligi aytiladi.

Bu o‘rinda metodning mohiyati bilan tanishib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Sinkveyn (fransuzcha – *besh qator*) ma’lumotlarni sintezlash (alohida ma’lumotlar asosida yaxlit g‘oyalarni shakllantirish)ga yordam beradigan qofiyasiz she’r bo‘lib, u asosida o‘rganilayotgan mavzu (tushuncha, hodisa, voqea)larga oid ma’lumotlar to‘planadi; bunda har bir o‘quvchi ushbu ma’lumotlar yig‘indisi (qofiyasiz she’r)ni o‘z so‘zlari bilan turli variant yoki nuqtayi nazarlar orqali ifodalash imkoniyatiga ega.

Sinkveyn tuzish murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir necha so‘z orqali yaqqol, yorqin ifodalash malakasi bo‘lib, bu jarayon mavzuni puxtaroq o‘zlashtirish, ma’lumotlarni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Sinkveyn tuzish murakkab jarayon bo‘lib, uni samarali tashkil etish uchun muayyan qoidalarga amal qilish talab etiladi. Odatda, sinkveyn tuzish besh bosqichli harakatlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Misol uchun:

1-bosqich	mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda, ot tanlanadi).
2-bosqich	mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda, 2 ta sifat tanlanadi).
3-bosqich	mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat 3 ta so‘z bilan ifodalanadi (3 ta fe’l yoki ravishdosh yoziladi).
4-bosqich	mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan 4 ta so‘zdan iborat fikr yoziladi (4 ta so‘zdan iborat jumla yoziladi).
5-bosqich	mavzu mohiyatini takrorlovchi, ma’nosi unga yaqin bo‘lgan 1 ta gap yoziladi (mavzuga oid sinonimlar asosida gap yoziladi).

Sinkveynlar quyidagi holatlarda samara beradi:

Murakkab axborotni sintezlashda	O‘quvchi o‘quvchi)larning bilimlarini baholashda	O‘quvchi tomonidan ijodiy ishlanmalarning taqdim etilishida

“SKARABEY” TEXNOLOGIYASI

“Skarabey” (“Qo‘ng‘iz”) texnologiyasi o‘quvchilar mantiqiy fikrlash qobiliyati, xotirasi, shuningdek, muayyan muammoni hal qilishda o‘z fikrini ochiq, erkin ifodalash malakasining rivojlanishiga xizmat qiladi. O‘quvchi texnologiyani qo‘llash jarayonida bilimlarining sifati, darajasini xolis baholash, o‘rganilayotgan mavzu haqidagi tasavvuri ko‘lamini aniqlash imkoniyatini qo‘lga kiritadi. Texnologiya, shuningdek, turli g‘oyalarni ochiq, erkin, mantiqli ifodalash, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashda ham samara beradi.

Uning yordamida o‘quvchilarda quyidagi sifatlarni shakllantirish, rivojlantirishga erishish mumkin: mustaqil ishlash, muloqotga erkin kirisha olish, xushfe’llik, o‘zgalar fikrini hurmat qilish, faollik, faoliyatga ijodiy yondashish, faoliyatining samarali bo‘lishiga qiziqish, o‘z-o‘zini baholash.

Undan darsning muayyan bosqichlarida turli maqsadlarda foydalanish mumkin:

Darsning boshida	—	o‘quvchi (o‘quvchilar) o‘quv faoliyatini rag‘balantirish uchun
Darsning o‘rtasida	—	o‘quv materialining mohiyati, mazmuni va tuzilishini belgilash uchun
Darsning oxirida	—	o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash va mashg‘ulotni yakunlash uchun

Texnologiya o‘quvchi tomonidan oson qabul qilinadi. Zero, u shaxsga xos fikrlash, bilish xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

“SINDIKAT” METODI

“Sindikat” (yunoncha – *birgalikda harakat qilish, maslakdoshlik*) metodi o‘quvchilarda mavzu (masala, muammo)ni ijodiy o‘rganish, nazariy bilimlarni umumlashtirish, tizimlash asosida fikrni qisqa va aniq bayon qilish qobiliyatini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Har bir guruh yagona topshiriqni uch xil variantda hal etishi lozim. O‘rganilayotgan mavzu mohiyatini 1-guruh sxema, 2-guruh klaster, 3-guruh esa jadval tarzida ochib berishi kerak. Guruhlar topshiriqni bajarib bo‘lgach, ular tomonidan taqdim etilgan yechim (ishlanma)lar jamoa tomonidan muhokama qilinadi.

Metodni qo‘llash tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘quvchilar uchta kichik guruhlarga bo‘linadi.

↓

Kichik guruhlarga topshiriqlar beriladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10–15 daqiqa) belgilanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, kichik guruhlar o‘z ishlarini namoyish etadi.

↓

Kichik guruhlarning ishlari jamoa tomonidan o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va eng yaxshi ish aniqlanadi.

↓

O‘qituvchi jamoa fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi guruhlar ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“SUHBAT” METODI

Mashg‘ulotda o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi dialogik xarakterga ega savol-javobga asoslanuvchi ushbu metod negizini jonli muloqot tashkil etadi. Metodning afzalligi suhbat jarayonida oydinlashmagan masalalar yuzasidan qo‘shimcha savollar berish, o‘quvchida fikrlashga undash imkoniyatining mavjudligi bilan belgilanadi. Ta’limiy munosabatning jonli muloqotga asoslanishi esa o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida ruhiy yaqinlikni qaror toptirib, faol fikr almashish imkonini beradi.

Metodni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metod mohiyati bilan tanishtiradi.

O‘qituvchi mavzu yuzasidan o‘quvchilar o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan masalalarga oid savollarni ishlab chiqadi.

O‘quvchilar savollar bilan tanishtiriladi.

O‘quvchilar savollar yuzasidan mulohaza yuritib, masala mohiyatini yoritishga kirishadi (agarda o‘quvchilarning javoblari qoniqarli deb topilsa, navbatdagi savol beriladi; bordi-yu, javob qoniqarli deb topilmasa, u holda o‘qituvchi o‘quvchiga aynan mana shu masalani oydinlashtirishga yordam beradigan qo‘shimcha savol beradi).

O‘rganilayotgan masalaning mohiyati to‘la yoritilgach, suhbat jarayoniga yakun yasaladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini baholab, mashg‘ulotga yakun yasaydi.

“SXEMA” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala mohiyatining asosiy xususiyat yoki belgilariga muvofiq sxema, tasvir yoki rasm orqali ifodalanishini ta’minlaydi. Uni qo‘llashda o‘quvchidan masalaga ijodiy yondashish taqozo etiladi. Topshiriqni bajarish jarayonida o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzu, muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini yodga oladi, eng muhim xususiyat, belgilarni aniqlaydi, ularni umumlashtiradi yoki tarkibiy qismlarga ajratgan holda sxemani yaratadi. O‘quvchilarda fikrlash, ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu metod g‘oyaning qisqa, aniq ifodalanishi uchun sharoit yaratadi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyadan foydalanish tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga biriktiradi.

↓

Kichik guruhlarga mavzu yuzasidan sxemalarni yaratish topshirig‘i beriladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10–15 daqiqa) belgilanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z ishlarini namoyish etadi.

↓

Kichik guruhlarning ishlari jamoa tomonidan o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va eng yaxshi ish aniqlanadi.

↓

O‘qituvchi jamoa fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi kichik guruhlar ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“TAVSIYANOMA” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda muayyan yo‘nalishda tashkil etiladigan pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlash yuzasidan muayyan tavsiyalarni ilgari surish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ilgari surilayotgan tavsiyalar mazmunan masalaning yechimini topishga yordam berishi, ilmiy jihatdan pedagogik amaliyotga mos kelishi lozim.

Uni qo‘llashda quyidagi tartibda ish ko‘riladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi tavsiyanoma tayyorlash talab etilgan masalani aniqlab, bu haqida o‘quvchilarga ma’lumot beradi.

↓

O‘quvchilar fikrlash orqali masalaning yechimini topishga harakat qiladi.

↓

Masalaning umumiy mohiyatini qayta yodga olish orqali uning muhim jihatlari belgilanadi.

↓

Belgilangan muhim jihatlarga tayangan holda muayyan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

↓

Ilgari surilayotgan tavsiyalar va ularning samaradorligi muhokama qilinadi.

↓

O‘qituvchi va jamoa tomonidan yakuniy xulosaga kelinadi.

↓

O‘qituvchi har bir o‘quvchining ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Texnologiyani qo‘llashda o‘quvchilar guruh (juftlik)larga birlashgan holda va individual faoliyat yuritishi mumkin. Mashg‘ulotda o‘quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar umumlashtiriladi.

“TASHVIQOT GURUHI” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda muammoning mohiyatini aniqlash, o‘z fikrlarini aniq va qisqa dalillar asosida bayon qilish orqali ularni ishontirish, muammoning mohiyati bilan tengdoshlarni tanishtirish (ular o‘rtasida mavzu mazmunini targ‘ib qilish) ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyani qo‘llash tartibi bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarning e’tiboriga bir necha muammoli mavzularni taqdim etadi.

↓

O‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi.

↓

Kichik guruhlar o‘z ixtiyoriga ko‘ra bittadan mavzuni tanlab olib, uning yechimini topish va jamoa orasida targ‘ib etish yo‘llarini izlaydi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z ishlarini targ‘ibot shaklida taqdim etadi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilar bilan birga guruhlarning chiqishini, ijodiy faoliyatini muhokama qilib, yakuniy xulosaga keladi va zarur tavsiyalarni beradi.

↓

O‘qituvchi jamoa yordamida eng yaxshi chiqishni aniqlab, uni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi kichik guruhlarning ishlarini baholab, mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Izoh: 1. O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar e’tiboriga havola etilayotgan muammoli mavzu o‘quv predmeti yoki ma’naviy-ma’rifiy ishlar yo‘nalishida bo‘lishi mumkin.

2. Guruhlar chiqishlarining qiziqarli, adabiy jihatdan yuqori saviyada, ko‘rgazmali, musiqiy xarakterga ega bo‘lishi talab qilinadi. Chiqishlarning videofilm, slayd yoki kliplar asosida bo‘lishi yanada ta’sirchan, samaralidir.

3. Ijodiy guruhlarining chiqishlarini muhokama qilish chog‘ida tanlangan mavzuning dolzarbligi, uning yoritilishi, mavzuni yoritishga bo‘lgan ijodiy yondashuv, jihozlar va yordamchi vositalardan o‘rinli foydalanilganlik, chiqishning targ‘ibot g‘oyalariga boyligi, ta’sirchanligi, tarbiyaviy xarakterga egaligi kabi jihatlarni e’tiborga olish maqsadga muvofiq sanaladi.

4. Guruhlar chiqishlarni tashkil etish uchun o‘zlarini tanishtiruvchi belgi yoki emblema, shuningdek, shior tanlashi ham mumkin.

“TAQDIMOT” METODI

Metod o‘rganiladigan mavzu mohiyatini kompyuter xizmatidan foydalanilgan holda slaydlar majmuasi yordamida ochib berilishini ta’minlaydi. Uni qo‘llashda mavzuning asosiy g‘oyalari, tayanch tushunchalari, muhim xususiyatlari kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm va diagrammalar asosida yoritiladi. Metod o‘quvchilarda mavzu mazmunini obrazli, yaxlit tarzda o‘zlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ta’lim jarayonida metodni qo‘llash tartibi quyidagichadir:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni kichik guruhlarga biriktiradi.

↓

Kichik guruhlarga mavzu yuzasidan muayyan topshiriqlar beriladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10-15 daqiqa) belgilanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, guruhlar o‘z ishlarini namoyish etadi.

↓

Kichik guruhlarning ishlari jamoa tomonidan o‘qituvchi rahbarligida tahlil qilinadi va eng yaxshi ish aniqlanadi.

↓

O‘qituvchi jamoa fikriga tayangan holda eng yaxshi ishni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi kichik guruhlar ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Izoh: 1. O‘qituvchi kichik guruhlarga bir yoki bir necha mavzuni tavsiya etishi mumkin.

2. Guruhlar garchi bir mavzu bo‘yicha faoliyat ko‘rsatsalar-da, biroq, ular topshiriqni turli (kichik matn, jadval, tasvir, sxema, rasm, diagramma va b.) shakllarda bajaradi. Bu esa o‘quvchilar tomonidan mavzuni yanada chuqur va puxta o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

“TEST” TEXNOLOGIYASI

“Test” (inglizcha – *sinov, tekshirish*) texnologiyasi shaxsning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlari, intellektual salohiyati, qobiliyati, ko‘nikma va malakalarini baholashga xizmat qiladi. Texnologiya o‘quvchilar tomonidan muayyan mavzu mazmuni yoki fan asoslarining qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlashda samarali hisoblanadi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyadan foydalanish quyidagicha kechadi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyaning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

Kichik guruhlarga mavzu yuzasidan testlar beriladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10–15 daqiqa) belgilanadi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi o‘quvchilarning yechimlarini tahlil qilib baholaydi.

↓

O‘qituvchi tahlil natijalarini e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarning javoblarini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“T-JADVAL” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya tayanch tushunchalarni bir-biri bilan o‘zaro solishtirish, qiyoslash asosida o‘rganilayotgan mavzu yoki masalaning muayyan jihatini bir necha asosiy belgilarga ko‘ra batafsil yoritish maqsadida qo‘llaniladi. Ko‘p hollarda texnologiya mavzu mazmunida yoritiladigan bir necha holatlarning afzallik yoki kamchiliklarini, samaradorli yoki samarasizligini, bugungi kun va istiqbol uchun ahamiyatini taqqoslash maqsadida qo‘llaniladi.

Texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘quvchilar e’tiboriga o‘rganiladigan mavzu havola etiladi.

↓

O‘quvchilar texnologiyani qo‘llash shartlari bilan tanishtiriladi.

↓

O‘quvchilar guruh (juftlik)larga biriktiriladi.

↓

Belgilangan vaqtda o‘quvchilar jadval asosida topshiriqqa ko‘ra qiyoslashni amalga oshiradi (jadvalning chap va o‘ng tomonlarida bir-biriga zid holatlar ko‘rsatiladi).

↓

Guruh (juftlik)lar tomonidan to‘ldirilgan jadvallar o‘zaro solishtiriladi.

↓

Masalaning yechimi bo‘yicha yakuniy xulosaga kelinib, yagona jadval shakllantiriladi.

↓

O‘qituvchi jamoa yordamida barcha ishlarni tahlil qilib, eng yaxshi ishni aniqlaydi.

↓

O‘qituvchi guruh (juftlik)larning ishini baholab, mashg‘ulotga yakun yasaydi.

Mashg‘ulotlarda “T-jadval” metodidan foydalanish uchun o‘quvchilarning e’tiboriga quyidagi jadval taqdim etiladi:

O‘rganilayotgan masala (g‘oya, omil)	
Afzalligi	**Kamchiligi**
1.	1.
2.	2.
...	...

“TOIFALASH” METODI

Metod o‘quvchilarni o‘rganilayotgan mavzuning muhim xususiyat, jihatlarini aniqlash, ma’lumotlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.

Uni qo‘llashda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, muhim xususiyatlarni yorituvchi ma’lumotlarni muayyan tizimga keltirish ko‘nikmalari shakllanadi.

Metodni qo‘llashda o‘quvchilar quyidagilarga e’tiborni qaratadi:

Muhim xususiyat (toifa)larni yoritishga nisbatan yagona talab qo‘yilmaydi.

↓

Guruhlarga bir xil topshiriq berilganda bir guruhning yechimi ikkinchi guruhning yechimidan farqlanishi mumkin.

↓

O‘quvchilarga o‘qituvchi tomonidan mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlar haqida ma’lumot berish mumkin emas, muhim xususiyatlarni izlash jarayoni ham ularning o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi shart.

Mashg‘ulotlarda metoddan foydalanish tartibi:

O‘qituvchi muhim xususiyatlari belgilanishi lozim bo‘lgan mavzu (masala yoki muammo)ni aniqlab, o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.

↓

O‘quvchilar tanlangan mavzu (masala, muammo) hamda “Toifalash” metodini qo‘llash shartlari bilan tanishtiriladi.

↓

Kichik guruhlarga ma’lum topshiriqlar beriladi.

↓

Kichik guruhlar topshiriqni bajaradi (mavzu mohiyatini yorituvchi muhim xususiyatlarni aniqlaydi, ularni jadval yordamida ifodalaydi).

↓

Kichik guruhlar o‘z yechimlarini jamoa e’tiboriga taqdim etadi.

↓

Jamoa tomonidan kichik guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

“FSMU” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), bahslashish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarga quyidagi jadval bilan ishlash tavsiya etiladi:

№	Tushunchalar	(F)	(S)	(M)	(U)
1.	Ta’lim metodlari				
2.	Ta’lim vositalari				
3.	Ta’limni tashxis qilish				

Izoh: F – **fikr**ingizni bayon eting; **S** – fikringizni asoslovchi biron **sabab**ni ko‘rsating; **M** – ko‘rsatilgan sababning asosli ekanligini isbotlovchi **misol** keltiring; **U** – fikringizni **umumlashtiring!**

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi texnologiya mohiyatini yoritib, o‘quvchilarni texnologiyadan foydalanish shartlari bilan tanishtiradi.

↓

Har bir o‘quvchiga texnologiyaning jadvali tushirilgan qog‘ozlar taqdim etiladi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarga ushbu jadval asosida mavzu mohiyatini yoritishga oid topshiriqni beradi.

↓

O‘quvchilar kichik guruhlarda topshiriqni bajaradi.

↓

Kichik guruhlar o‘z yechimlarini jamoaga ma’lum qiladi.

↓

Jamoa kichik guruhlarning yechimlarini muhokama qiladi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarning mashg‘ulot samaradorligi yuzasidan fikrlarini tinglaydi va mashg‘ulotga yakun yasaydi.

“CHARXPALAK” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya o‘quvchilarda o‘rganilgan mavzularni yodga olish, ular yuzasidan mantiqiy fikrlash, savollarga mustaqil, to‘g‘ri javob berish, o‘z-o‘zini baholash malakalarini shakllantirish, o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqtda o‘quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini yaratadi. Uning maqsadi o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil, erkin bayon qilish, o‘z-o‘zini baholash, individual, juftlik, guruh va jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish, mavjud fikrlar orasidan muhimini tanlab olish ko‘nikma, malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash tartibi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyani qo‘llash tartibi bilan tanishtirib, ularni guruhlarga ajratadi.

↓

Guruhlarga tarqatmali materallar va ular asosida topshiriqlar beriladi.

↓

Topshiriqni bajarish uchun vaqt hajmi (10–15 daqiqa) belgilanadi.

↓

A’zolar guruh tarkibida individual ravishda tarqatmali materialda ko‘rsatilgan vazifani bajaradi (bajarilgan ishning o‘ng burchagiga guruhning raqami, chap burchagiga esa o‘ziga tegishli bo‘lgan biror belgini qo‘yadi).

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatma materiallar boshqa guruhlar bilan “Charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi.

↓

Har bir guruh tomonidan yangi material mazmuni o‘rganiladi va o‘zgartiriladi.

↓

Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, tarqatmali materiallar yana bir bor boshqa guruhlar bilan “Charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi (guruhlar o‘rtasida materiallarning o‘zaro almashtirish ularning soniga ko‘ra takrorlanadi).

↓

Guruhlar (ularning har bir a’zosi) o‘z yechimlarini bitta qutiga yig‘adi.

↓

Materiallar so‘nggi bor almashtirilgandan keyin har bir guruh (har bir o‘quvchi) o‘zi bajargan yechimni (guruh raqami va o‘ziga teshishli belgi asosida) tanlab oladi.

↓

Har bir guruh va uning a’zolari o‘zlarining yechimlarini boshqa guruhlarning ishlari bilan taqqoslab, tahlil qiladi.

↓

O‘qituvchi jamoa yordamida to‘g‘ri javoblarni aniqlaydi.

↓

Tahlil asosida har bir guruh va o‘quvchilarning faoliyati baholanadi (bir vaqtning o‘zida o‘quvchilar ham o‘z-o‘zini baholaydi).

Texnologiyadan barcha turdagi o‘quv mashg‘ulotlarida, mashg‘ulotning boshlanishi yoki oxirida, muayyan bo‘lim (bob) yakunida, o‘tilgan mavzuni takrorlash chog‘ida foydalanish mumkin. Shu bilan birga texnologiya o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, o‘rganilgan mavzularning o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash va baholashda ham samara beradi.

“YUMALOQLANGAN QOR” METODI

Metod mavzuni muayyan qismlarga bo‘lgan holda o‘zlashtirish imkonini beradi, o‘quvchilarda guruh va juftlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar juftlik, guruh yoki jamoa bo‘lib ishlashlari mumkin.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodni qo‘llash tartibi bilan tanishtiradi.

↓

O‘rganiladigan mavzu yoki mavzular yuzasidan ma’lum masala tanlanadi.

↓

O‘quvchilarga tanlangan masalaning mohiyati tushuntiriladi.

↓

O‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi (imkon qadar guruhlarning soni juft raqamlarni tashkil etishi lozim).

↓

Bajarish uchun har bir guruhga bittadan topshiriq beriladi.

↓

Guruhlar topshiriqni bajaradi.

↓

Guruhlar topshiriqni bajarib bo‘lgach, tartib raqamlariga ko‘ra ikki guruh o‘zaro birlashadi (ya’ni, 1 va 2-guruh; 3 va 4-guruh tarzida).

↓

Guruhlar topshiriqni bajaradi.

↓

Yangidan shakllangan guruhlarda kichik guruhlarda bajarilgan topshiriqlar o‘rganiladi.

↓

Jamoa katta guruhlarda o‘rganilgan masalalarni muhokama qiladi.

↓

Topshiriqlar yuzasidan umumiy xulosaga kelinadi.

“Yumaloqlangan qor” metodidan muayyan bo‘lim yoki boblar bo‘yicha o‘zlashtirilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash maqsadida foydalanish samaralidir.

“YALPI FIKRIY HUJUM” TEXNOLOGIYASI

Texnologiya J. Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, uni bir necha o‘n (20–60) nafar o‘quvchilardan iborat guruhlarda qo‘llash mumkin. U o‘quvchilar tomonidan yangi g‘oyalarning o‘rtaga tashlanishi uchun zarur sharoitni yaratib berishga xizmat qiladi.

Mashg‘ulotlarda texnologiyani qo‘llash tartibi quyidagicha:

O‘qituvchi o‘quvchilarni texnologiyaning mohiyati bilan tanishtiradi.

↓

O‘quvchilar 5 yoki 6 nafardan iborat kichik guruhlarga biriktiriladi.

↓

Kichik guruhlarga amaliy yoki ijodiy topshiriqlar beriladi.

↓

Kichik guruhlar 15 daqiqa mobaynida topshiriqlarni bajaradi.

↓

Topshiriqlar bajarilgach, har bir guruhdan bir nafar vakil yechimlar haqida axborot beradi.

↓

Kichik guruhlarning ishlari (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o‘qituvchi va jamoa tomonidan muhokama qilinib, baholanadi.

↓

O‘qituvchi jamoaning fikriga tayanib, eng yaxshi ishni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi har bir guruh ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

“QANDAY?” METODI

Metod o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yuzasidan umumiy tasavvurlarni hosil qilishga yordam beradi. Uni qo‘llashda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, mavzu mohiyatini yorituvchi tayanch tushuncha, ma’lumotlarni muayyan tizimga solish, ularni tahlil qilish ko‘nikmalari shakllanadi.

Mashg‘ulotlarda metodni qo‘llashda quyidagi shartlarga amal qilinadi:

- O‘ylangan g‘oyalarni tahlil qilmay, baholamay, taqqoslamay tez bayon etish kerak.
- Shakllangan diagramma tugallanmagan bo‘lib, unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin.
- Agarda chizmada savol uning “shoxlari”da bir necha bor qaytarilsa, u holda u biror muhimlikni anglatib, muammoning asosiy yechimi bo‘lishi mumkin.
- Yangi g‘oyalar qanday ko‘rinishda bo‘lmasin, yuqoridan pastga yoki chapdan o‘ngga qayd qilib boriladi, buni o‘quvchilarning o‘zlari hal etadi.
- Agar o‘quvchilar savollarni to‘g‘ri qo‘yib, masalaning rivojlanish yo‘nalishini obyektiv belgilay olsa, u holda yechim to‘g‘ri topiladi.

Ta’lim jarayonida metodni qo‘llash tartibi quyidagicha:

- O‘qituvchi tanlangan mavzu (masala)ni e’lon qiladi.
- O‘qituvchi o‘quvchilarni mavzu va metodni qo‘llash qoidalari bilan tanishtiradi.
- O‘quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladi.
- Kichik guruhlarga muayyan topshiriqlar beriladi.
- Belgilangan vaqt (10–15 daqiqa) mobaynida guruhlar topshiriqlarni bajaradi.

Jamoa kichik guruhlarning yechimlari bilan tanishtiriladi.

↓

Jamoa tomonidan kichik guruhlarning ishlari muhokama qilinadi.

↓

O‘qituvchi jamoaning fikriga tayanib, eng yaxshi ishni e’lon qiladi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

Izoh: 1. Yangi g‘oyalar grafik, klaster, tasvir ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

2. Muammoning yechimi “Buni qanday bajarish lozim?”, “Qanday yo‘l tutish to‘g‘ri?” kabi savollariga javob topish asosida hal qilinadi.

3. Muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi yuzasidan o‘ylanib qolmaslik lozim.

4. Savollarning izchil berilishi muhim ahamiyatga ega.

5. Metodni qo‘llashda muammoni yechish yo‘llarigina izlanmay, ulardan samarali foydalanish choralari ham o‘rganiladi.

“QARAMA-QARSHI MUNOSABAT” METODI

Metod o‘z mohiyatiga ko‘ra o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlarni tahlil hamda sintez qilish asosida mavzuni yoritishda ahamiyatli bo‘lgan tayanch tushunchalarni asosiy va ikkinchi darajali sifatida guruhlarga ajratish imkonini beradi.

O‘quvchilar faoliyatining samaradorligini ta’minlash uchun ularning e’tiboriga quyidagi jadvalni taqdim etish maqsadga muvofiq:

Tayanch tushunchalar:			
№	**Muhim tushunchalar**	**№**	**Muhim bo‘lmagan tushunchalar**
1.		1.	
2.		2.	

Mashg‘ulotda metodni qo‘llash tartibi:

Mavzuning umumiy g‘oyalari yodga olinib, uning ahamiyatini yorituvchi tayanch tushunchalar aniqlanadi.

↓

Tayanch tushunchalar muayyan ketma-ketlikda qayd etiladi.

↓

Tushunchalar shaxsiy yondashuv asosida muhim va u qadar muhim bo‘lmagan tushunchalar tarzida guruhlanadi.

↓

Jadval yaratilib, uning 1-ustuniga muhim, 2-ustuniga esa muhim bo‘lmagan tushunchalar yoziladi.

↓

Kichik guruhlar asosida shaxsiy yondashuvlar muhokama qilinadi.

↓

Jamoaning umumiy fikriga ko‘ra yakuniy xulosani ifoda etuvchi jadval yaratiladi.

“QARORLAR SHAJARASI” (“QAROR QABUL QILISH”) TEXNOLOGIYASI

Texnologiya muayyan fan asoslariga oid bir qadar murakkab mavzularni o‘zlashtirish, ma’lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, muammo yuzasidan bildirilayotgan bir nechta xulosa orasidan eng maqbul hamda to‘g‘risini topishga yo‘naltirilgan texnik yondashuvdir. U avvalgi vaziyatlarda qabul qilingan qarorlarni yana bir bora tahlil qilish, uni mukammal tushunishga xizmat qiladi.

Ta’limda texnologiyani qo‘llash o‘rganilayotgan muammo yuzasidan oqilona qaror qabul qilish (xulosaga kelish) uchun o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan har bir variantni tahlil qilish, maqbul va nomaqbul jihatlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Unga ko‘ra mashg‘ulotlarda o‘quvchilar quyidagi chizma asosida ishlaydi (u yoki bu tartibdagi faoliyatni olib borishda yozuv taxtasidan foydalanadi):

Muammo

1-g‘oya | 2-g‘oya | 3-g‘oya

Qaror

Mazkur texnologiyaning o‘ziga xos jihati shundaki, u bevosita ma’lum loyiha asosida qo‘llaniladi. Loyiha quyidagi ko‘rinishga ega:

Umumiy muammo					
1-qaror varianti		2-qaror varianti		3-qaror varianti	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Qaror:					

Texnologiya quyidagi shartlar asosida qo‘llaniladi:

Mashg‘ulot chog‘ida o‘qituvchi, eng avvalo, munozara, tahlil uchun mavzuga oid biror muammoni belgilaydi; guruhlar tomonidan qabul qilingan xulosa (qaror)larni yozish uchun plakatlarni tayyorlaydi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni 4 yoki 6 nafardan kichik guruhlarga ajratadi; muammoning hal etish, oqilona qaror qabul qilish uchun aniq vaqt belgilanadi.

↓

Qaror qabul qilishda guruhlarning har bir a’zosi bildirgan variantning maqbul, nomaqbulligi batafsil muhokama qilinib, afzalligi yoki afzal emasligi yozib boriladi; bildirilgan variantlar asosida muammoni ijobiy hal etishga yordam beradigan usul haqida guruh a’zolari bir to‘xtamga kelib oladi.

↓

Belgilangan vaqt tugagach, har bir guruhning lideri guruh qarorini e’lon qiladi; bildirilgan barcha xulosa (qaror)lar o‘qituvchi boshchiligida o‘zaro qiyoslanadi.

Izoh: 1. Muammo bo‘yicha bildirilgan qarorlar yuzasidan savollar tug‘ilsa, ularga javob qaytariladi, noaniqliklarga aniqlik kiritiladi.

2. Agarda barcha guruhlar muammo yuzasidan bir xil qarorga kelgan bo‘lsa, o‘qituvchi buning sababini izohlaydi.

“QORA QUTI” METODI

Metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilar tomonidan mavzuni puxta o‘zlashtirishga erishish, ularni faollikka, hamkorlikda ishlashga undash, vaziyatni boshqarish, mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Undan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati bilan tanishtiradi.
2. O‘quvchilar juftlik (yoki kichik guruh)larga biriktiriladi.
3. Juftlik (kichik guruh)larga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar (tayanch so‘zlar, sanalar, raqamlar, belgilar va h. k.)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi yuklanadi.
4. Juftlik (guruh)lar muayyan vaqt oralig‘i (10–15 daqiqa)da topshiriqni bajaradi.
5. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o‘qituvchi jamoa bilan hamkorlikda juftlik (guruh)lar tomonidan topshiriqning bajarilishini tekshiradi.
6. Topshiriqni to‘g‘ri bajargan o‘quvchi o‘qituvchi rolini bajaradi va topshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi.
7. Jamoa a’zolari yozuv taxtasida qayd etilgan fikr (tayanch so‘zlar, sanalar, raqamlar, belgilarning ma’nolari)ni sharhlaydi.
8. To‘g‘ri javob bergan o‘quvchi “o‘qituvchi” rolini bajarib, juftlik (guruh)larga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval, tasvir yaratish vazifasini topshiradi.
9. “O‘qituvchi” rolini bajarayotgan o‘quvchi o‘qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.
10. O‘qituvchi barcha juftlik (guruh)larning ishini baholab, mashg‘ulotni yakunlaydi.

Metod mashg‘ulotning o‘zaro musobaqa ko‘rinishida tashkil etilishini ta’minlaydi. Uni qo‘llashda o‘quvchilar mavzu yuzasidan tezkor, asosli, to‘g‘ri fikrlay olishi lozim. Metodni qo‘llash quyidagi tarzda kechadi:

O‘qituvchi muhokama uchun tanlangan mavzu (masala)ni e’lon qiladi.

↓

O‘qituvchi o‘quvchilarni metodning mohiyati, shartlari bilan tanishtiradi.

↓

O‘quvchilar ikki guruhga ajratiladi.

↓

O‘qituvchi guruhlarning e’tiboriga mavzu bo‘yicha tuzilgan savollarni havola qiladi.

↓

Guruhlar o‘qituvchining savollariga birinchi bo‘lib, to‘g‘ri javob topishga harakat qiladi.

↓

Guruhlarning har bir to‘g‘ri javobi yumaloqlangan qor ko‘rinishida ularning hisobiga yozuv taxtasida yozib boriladi.

↓

Barcha savollarga javob topilgach, guruhlar tomonidan to‘plangan ballar umumlashtiriladi va g‘olib jamoa (guruh) aniqlanadi.

V. GRAFIK TASHKIL ETUVCHILAR (GRAFIK ORGANAYZERLAR)

Grafik tashkil etuvchilar (grafik organayzerlar) – fikriy jarayonlardan ko‘rgazmali taqdim etish vositasi sifatida foydalanish.

1-guruh. Ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo‘lib chiqish, o‘rganilayotgan tushunchalar (voqea va hodisalar, mavzular) o‘rtasidagi aloqa va o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatish usul va vositalari: Klaster, Toifalash jadvali, Insert, B/B/B jadvali

Klaster

Klaster – axborot xaritasini tuzish yo‘li – barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1–2 so‘zdan iborat mavzu nomi yoziladi.

↓

1-variant
Yakka tartibda quyidagi vazifalarni beradi: birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar – “yo‘ldoshlar”ni yozib qo‘shish; ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtish. Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.


2-variant
Yangi mavzuni tushuntirish jarayonida klasterni jamoa bilan to‘ldirishni taklif etadi.

3-variant
Kichik guruhlarda klasterni ishlab chiqish vazifasini beradi.

Muhokama uchun klasterlar bilan almashishni taklif etadi.

Bajarilgan ishning taqdimoti va muhokamasini tashkil etadi.

Klaster. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Quchlari Umumharbiy Nizomlarining bob va moddalari o‘zaro bog‘lanadi.



Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan imlo xatolari va boshqa omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.

TOIFALI JADVALI

Toifa – xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. U ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi.

Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Toifali sharhlashni tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Aqliy hujum o'tkazish yoki klaster tuzish yoki yangi o'quv materiali bilan tanishishdan so'ng, kichik guruhlarda ish jarayonini tashkil etadi. Olingan ma'lumot lavhalarini birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlash vazifasini beradi.

↓

Toifalarni jadval ko'rinishida rasmiylashtirish, g'oyalarni yoki ma'lumotlarni toifaga mos ravishda bo'lish vazifasini beradi. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o'zgarishi, yangilari paydo bo'lishi mumkinligi haqida e'lon qiladi.

↓

Ish natijalarining taqdimotini tashkil etadi.

Toifali sharhni tuzish qoidasi

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas. Bu ularning mustaqil tanlovi bo'la qolsin.

TOIFALI JADVALI

Individual qurollar		
5,45 mm li AK 74 avtomati	5,45 mm li RPK-74 pulemyoti	7,62 mm li Dragunov snayper vintovkasi (SVD)

KONSEPTUAL JADVAL

Konseptual jadval o‘rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo‘yicha taqqoslashni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Taqqoslanadiganlarini aniqlash, olib boriladigan taqqoslanishlar bo‘yicha xususiyatlarni ajratish vazifasini beradi.

↓

Yakka tartibda yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to‘ldirish jarayonini tashkil etadi:
- *vertikali bo‘yicha* taqqoslanadigan fikr, nazariyalar joylashtiriladi;
- *gorizontali bo‘yicha* taqqoslanish olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi.

↓

Ish natijalarining taqdimotini tashkil etadi.

OMMAVIY QIRG‘IN QUROLLARI MAVZUSIDAGI KONSEPTUAL JADVAL (LAVHA)

Ommaviy qirg‘in qurollari	**Ta’riflar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar**		
	Qirg‘in omillari	*Ommaviy qirg‘in qurollarini nishonga yetkazish vositalari*	*Ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalanish*

Yadro quroli			
Kimyoviy qurol			
Bakteriologik (biologik qurol)			

Toifali jadvalni konseptual jadvaldan farqi!

Toifali jadvalda bitta tushunchaning har xil jihatlari ko‘rib chiqiladi.

Konseptual jadvalda 2 ta va undan ortiq tushunchalar/hodisalar bir xil toifalar bo‘yicha solishtiriladi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yakka tartibda, kichik guruhlarda yoki juftlikda jadvalni rasmiylashtirish vazifasini beradi.

↓

O‘quvchilarga B/BX/B jadvalini to‘ldirishga yordam berish uchun bir qator savollar tayyorlaydi.
“Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” degan savollarga javob berib, jadvalning 1 va 2-bo‘limlarini to‘ldirish vazifasini beradi.

↓

Ma’ruzani o‘qiydi yoki ma’ruza materiallarini mustaqil o‘qib chiqish vazifasini beradi.

↓

Jadvalning 3-bo‘limni to‘ldirish vazifasini beradi.

INSERT JADVALI

“Insert” jadvali – mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirish: olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish usuli. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

1. “Insert” jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Jadvalni yakka tartibda o‘zlari to‘ldirish vazifasini beradi.

O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtirish – matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq jadval ustunlariga kiritish vazifasini beradi:
“V” – men bilgan ma’lumotlarga mos;
“–“ – men bilgan ma’lumotlarga zid;
“+” – men uchun yangi ma’lumot;
“?” – men uchun tushunarsiz (ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi).

Jadvalda yozilgan axborot muhokamasini tashkil etadi.

INSERT JADVALI

V	+	–	?

DIQQAT!!!
Insert jadvalining “– “ ustunini to‘ldirish uchun o‘quvchilar ushbu mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarga ega bo‘lishi va ularni “Aqliy hujum” metodi yordamida faollashtirishi kerak. Agar bilimlarga ega bo‘lmasa, bu ustun to‘ldirilmaydi.

B/BX/B JADVALI

B/BX/B (Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim) jadvalı mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yakka tartibda, kichik guruhlarda yoki juftlikda jadvalni rasmiylashtirish vazifasini beradi.

↓

O‘quvchilarga B/BX/B jadvalini to‘ldirishga yordam berish uchun bir qator savollar tayyorlaydi.
“Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz?” va “Nimani bilishni xohlaysiz?” degan savollarga javob berib, jadvalning 1 va 2-bo‘limlarini to‘ldirish vazifasini beradi.

B/BX/B JADVALI

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

2-guruh. Ma’lumotlarni tahlil kilish, solishtirish va taqqoslash usul va vositalari: T-jadvali, Venn diagrammasi

VENN DIAGRAMMASI

Venn diagrammasi – 2 va 3-jihatlarni hamda umumiy tomonlarini solishtirish, taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Venn diagrammasini tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yakka tartibda Venn diagrammasini tuzish va kesishmaydigan joylarni (x) to‘ldirish vazifasini beradi. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki/uch (xx/xxx) doiralar uchun umumiy bo‘lgan ma’lumotlar ro‘yxati tuzilishi kerakligini ta’kidlaydi.

↓

Kichik guruhlarga birlashish, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslash va to‘ldirish vazifasini beradi.

↓

Jadvalda yozilgan axborot muhokamasini tashkil etadi.

VENN DIAGRAMMASI



Diqqat!!!

Doiralar kesmasiga o‘ng va chap doirada bir xil bo‘lgan alomatlar yoziladi.

T-JADVAL

Bitta konsepsiya (ma’lumot)ning ikkita jihatini (ha/yo‘q, ha/qarshi) qayd qilish yoki ikkala jihatini solishtirish uchun qo‘llaniladigan taqqoslash jadvali.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. T-jadvalni to‘ldirish qoidalari bilan tanishtiradi.
2. Jadvalni yakka tartibda rasmiylashtirish vazifasini beradi.

↓

Ajratilgan vaqt oralig‘ida yakka tartibda yoki juftlikda jadvalni to‘ldirish, uning chap tomoniga sabablarini (ha) yozish, o‘ng tomoniga esa chap tomondagi fikrga qarama-qarshi fikr, g‘oya, omil va shu kabilarni yozish jarayonini tashkil etadi.

↓

Barcha o‘quv guruhi a’zolari bilan yagona jadval tuzadi.

Mudofaa. Dushman ustun kelishida mudofaa pozitsiyasini egallashning afzalliklari va kamchiliklari

Jangda mudofaa pozitsiyaining egallanishi	
Afzalliklari	*Kamchiliklari*

3-guruh. Muammoni aniqlash, uni hal etish, tahlil qilish va rejalashtirish usullari va vositalari. “Qanday?” iyerarxik diagrammasi, “Nima uchun?”, “Nilufar guli” sxemalari

“Nima uchun” sxemasi

“Nima uchun?” sxemasi – muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo‘yicha fikrlar zanjiri.


Sxema tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlashni rivojlantiradi va faollashtiradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

1. “Nima uchun?” sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yakka tartibda yoki juftlikda muammoni ifodalash vazifasini beradi. “Nima uchun?” so‘rog‘i bilan strelka chizish, shu savolga javob yozish jarayonini tashkillashtiradi. Bu jarayon muammoning dastlabki sababi aniqlanmagunicha davom etadi.


Kichik guruhlarga birlashtiradi va o‘zlarining chizmalarini taqqoslash, to‘ldirish va umumiy chizmaga keltirish vazifasini beradi.

Ish natijalarining taqdimotini tashkil qiladi.



1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko‘rinishi – mulohazalar zanjiri to‘g‘ri chiziqligi, to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.
3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni – dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.

“Nima uchun?” sxemasi – quroldan otish paytida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan nosozliklar sabablari (lavha)



“Qanday?” iyerarxik diagrammasi

“Qanday?” iyerarxik diagrammasi – muammo to‘g‘risida umumiy tasavvur olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiri. Diagramma tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi.

↓

Diagrammani tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.


↓

Kichik guruhlarga birlashtiradi va o‘zlarining chizmalarini taqqoslash, to‘ldirish va umumiy chizmaga keltirish vazifasini beradi.

↓

Ish natijalarining taqdimotini tashkil qiladi.

“Qanday?” iyerarxik diagrammasi – muammoni yechishning usul va vositalari (lavha)



“Qanday?” iyerarxik diagrammasini qurish qoidalari

1. Ko‘pgina hollarda muammoni yechishda “nima qilish kerak”ligi to‘g‘risida o‘ylanib qolmasligingiz lozim. Muammo uni yechishda “Buni qanday qilish kerak?”, “Qanday?” degan asosiy savollar yuzaga kelishidan iborat bo‘ladi.

“Qanday?” savollarining izchil berilishi quyidagilar imkonini beradi:

– muammoni yechish nafaqat bor imkoniyatlarni, balki ularni amalga oshirish yo‘llarini ham tadqiq qilish;

– quyidan yuqoriga bosqichma-bosqich bo‘ysunadigan g‘oyalar tuzilmasini aniqlaydi.

Diagramma strategik darajadagi savollar bilan ishlashni boshlaydi. Muammoni yechishning quyi darajasi birinchi galdagi harakatlarning ro‘yxatiga mos keladi.

Barcha g‘oyalarni o‘ylab o‘tirmasdan, baholamasdan va taqqoslamasdan tezlikda yozish kerak.


Diagramma hech qachon tugallangan bo‘lmaydi: unga yangi g‘oyalarni kiritish mumkin.

Agar chizmada savol uning “shoxlarida” bir necha bor qaytarilsa, unda u biror muhimlikni anglatadi. U muammoni yechishning asosiysi bo‘lishi mumkin.

Yangi g‘oyalarni grafik ko‘rinishda: daraxt yoki kaskad ko‘rinishidami, yuqoridan pastgami yoki chapdan o‘ngda qayd qilinishini o‘zingiz hal etasiz.

Agar siz o‘zingizga to‘g‘ri savollar bersangiz va uning rivojlanish yo‘nalishini namoyon bo‘lishida ishonchni saqlasangiz, diagramma siz har qanday muammoni amaliy jihatdan yechimini topishingizni kafolatlaydi.

Tuzilmaviy-mantiqiy chizma – “Pog‘ona”



Tuzilmaviy-mantiqiy chizma “Pog‘ona”ni qurish qoidalari

1. “Pog‘ona”ni tuzish jarayonida tizimli sxemaning tarkibiy qismi va elementlarini siljitish mumkin – bu u yoki bu holatni qayta fikrlash imkonini beradi.

2. Agarda siz g‘oyalarni ishlab chiqishda tor yo‘lakka kirib qolsangiz, u holda bir-ikki daraja yuqoriga qayting va muhim narsani unutmaganingizni hamda boshqacha nimadir qilish mumkin ekanligini ko‘rib chiqing.

3. Siz chapdan o‘ngga yozishga o‘rgangansiz. “Kaskad” qurishni o‘ngdan chapga qarab tuzishga harakat qiling. Buning uchun asosiy g‘oyani chap tarafda emas, balki o‘ng tarafda joylashtiring.

“Nilufar guli” chizmasi

“Nilufar guli” chizmasi – muammoni yechishning yana bir vositasi. U o‘zida nilufar guli ko‘rinishini namoyon qiladi. Uning asosini 9 ta katta to‘rt burchak tashkil etadi. Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi.

O‘quv faoliyatini tashkillashtirishning texnologik chizmasi

↓

1. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yakka tartibda, juftlikda chizma tuzish: to‘rtburchakning markazida avval asosiy muammo (g‘oya, vazifa)ni yozish. Uning yechish g‘oyalarini esa markaziy to‘rtburchakning atrofida joylashgan 8 ta to‘rtburchakka yozish vazifasini beradi. Markaziy to‘rtburchakning atrofida joylashgan 8 ta to‘rtburchakga yozilgan g‘oyalarni, atrofda joylashgan 8 ta to‘rtburchak markazlariga yozish, ya’ni gulning barglariga olib chiqish kerakligini ta’kidlaydi. Shunday qilib, uning har biri o‘z navbatida yana bir muammodek ko‘riladi.

↓

Kichik guruhlarga birlashtiradi va o‘zlarining chizmalarini taqqoslash, to‘ldirish va umumiy chizmaga keltirish vazifasini beradi.

↓

Ish natijalarining taqdimotini tashkil qiladi.


“Nilufar guli” chizmasi

	B	
	J	
	I	

	D	
B	D	E
J	A	F
I	H	G
	H	

	E	
	F	
	G	

Amaliy nuqtayi nazardan barcha g‘oyalarni ixcham deb tasavvur qiling (bitta-ikkitasi bilan chegaralaning), bu ham aql uchun foydali mashq hisoblanadi. Sizga katta qog‘oz varag‘i zarur bo‘ladi. Doimo o‘z mushohadalaringiz natijasini bir varaq qog‘ozda ko‘rish foydali hisoblanadi. Aks holda esa sizni bir varaqdan boshqasiga sakrab yurishingizga, bunda zaruriy biror muhim narsani unutishingizga olib keladi.



VI. DASTURNING O‘QUV BO‘LIMLARI BO‘YICHA TEXNOLOGIK XARITALAR

“Harbiy-vatanparvarlik va harbiy san’at tarixi” o‘quv bo‘limi mashg‘ulotlari bo‘yicha texnologik xaritalar

HARBIY-VATANPARVARLIK VA HARBIY SAN’AT TARIXI

1-mavzu. Harbiy san’at tarixining shakllanishi
1-mashg‘ulot. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarning harbiy san’at tarixi, dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar va buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish; Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘ularinii shakllantirish.
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.
O‘quv savollari	1. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. 2. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati.
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar va buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari haqida chuqurroq biladilar. Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘ulari rivojlanadi.
Tayanch so‘zlar	Harbiy san’at, harbiy, sarkarda, jangovar, buyuk mahorat, sodiqlik, ajdodlar, tuyg‘u, faxr.
Ta’lim metod va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, grafik organayzerlar.
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, markerlar, skotch.

AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash), “FSMU” texnologiyasi.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

2-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy va milliy qadriyatlar

1-mashg‘ulot. Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalari. Jangovar an’analar

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilar ongiga vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalarini chuqur singdirish; Qurolli Kuchlarimizning jangovar an’analarini o‘rgatish, ularda Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxrlanish bilan vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish.		
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli		
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘quv savollari	1. Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalari. 2. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar an’analari.		
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	Vatanparvarlik va harbiy-vatanparvarlik tushunchalarini chuqur anglaydi, biladi. O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar an’analarini biladi.		
Tayanch so‘zlar	Vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik, anglash, jangovar, an’ana.		
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, grafik organayzerlar.		
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, markerlar, skotch.		
AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle

Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	Konseptual jadval bilan vatanparvarlik, harbiy-vatanparvarlik iboralarini taqqoslash. Klaster yordamida O‘zbekiston Qurolli Kuchlarining jangovar an’analari mazmun- mohiyatini markazlashtirish va aniqlash, yig‘ish.
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz

2-mashg‘ulot. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonlik jangchilarning ko‘rsatgan qahramonliklari. Vatanimiz mustaqilligi uchun jon fido qilgan harbiy xizmatchilar

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarning Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonlik jangchilarining ko‘rsatgan qahramonliklari, vatanimiz mustaqilligi uchun jon fido qilgan Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilari to‘g‘risidagi bilimlarini boyitish. Vatanimiz mustaqilligi uchun jon fido qilgan Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilaridan ijobiy o‘rnak olish fikrlarini mustahkamlash.
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.
O‘quv savollari	1. Harbiy san’at tarixi. 2. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. 3. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati.
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	Ikkkinchi jahon urushi yillarida o‘zbekistonlik jangchilarining ko‘rsatgan qahramonliklarini, mustaqillik uchun jon fido qilgan Qurolli Kuchlarimizning harbiy xizmatchilarini yaqindan biladi.
Tayanch so‘zlar	Vatan, jahon urushi, jangchi, qahramonlik, mustaqillik, harbiy, fidoyi.
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, grafik organayzerlar.
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, markerlar, skotch.

AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash). “FSMU” texnologiyasi.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

HARBIY XIZMAT ASOSLARI

1-mavzu. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari
1-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida. Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish. Qurolli Kuchlar Bosh shtabi. Harbiy okruglar

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yozilgan Vatan himoyasi borasidagi ma’lumotlar va Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish, bosh shtab, harbiy okruglar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirish. Ularda Qurolli Kuchlarimizga bo‘lgan e’tiqodlarini oshirish.
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.
O‘quv savollari	1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Vatan himoyasi to‘g‘risida. 2. Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilishi. 3. Bosh shtab, harbiy okruglar.
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yozilgan Vatan himoyasi borasidagi ma’lumotlar va Qurolli Kuchlarga rahbarlik qilish, bosh shtab, harbiy okruglar haqida biladi.
Tayanch so‘zlar	Vatan, Konstitutsiya, Qurolli Kuchlar, rahbarlik, shtab, okrug.
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar.

AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quv savollar bevosita fan bo‘yicha tutilgan daftarga B/B/B sxema asosida to‘ldiriladi.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Harbiy xizmat turlari. Harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etish. Harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarni O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunining mohiyati va moddalari bilan tanishtirish. Ularda O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga nisbatan hurmat va mas’uliyat hissini rivojlantirish.
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.
O‘quv savollari	1. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonun mohiyati. 2. Harbiy majburiyat tushunchasi, harbiy xizmat turlari. 3. Harbiy xizmatga chaqirilishdan ozod etish, harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish.
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	“Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonunining mohiyati va moddalarini biladi.
Tayanch so‘zlar	Qonun, majburiyat, harbiy xizmat, chaqirilish, ozod etish, kechiktirish.
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar.

AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quv savollarining qisqacha mazmuni bevosita fan bo‘yicha tutilgan daftarga B/B/B sxemasiga to‘ldiriladi.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

2-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa to‘g‘risidagi qonuni

1-mashg‘ulot. Mudofaa tushunchasi. Mudofaa to‘g‘risidagi qonun. Qurolli Kuchlarning tashkil etilishi

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarga mudofaa tushunchasi ma’nosini ochib berish, Mudofaa to‘g‘risidagi qonun, Qurolli Kuchlarning tashkil etilishi to‘g‘risida bilimga ega qilish. O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga nisbatan hurmat va mas’uliyat hissini rivojlantirish.		
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli		
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘quv savollari	1. Mudofaa tushunchasi, mudofaa to‘g‘risidagi qonun. 2. Qurolli Kuchlarning tashkil etilishi.		
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	Mudofaa to‘g‘risidagi qonun mazmun va mohiyatini biladi.		
Tayanch so‘zlar	Mudofaa, qonun, modda.		
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.		
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, markerlar, skotch.		
AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle

Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quv savollar bevosita fan bo‘yicha tutilgan daftarga B/B/B sxema asosida to‘ldiriladi.
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz

2-mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari qo‘shin turlari. Mudofaa vazirligi qo‘shin turlari, vazifasi, va faoliyat asoslari

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarga O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari qo‘shin turlari, vazifasi, tarkibiy tuzilish prinsiplari, ularning faoliyat asoslari to‘g‘risida ma’lumot berish. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlariga nisbatan ishonch va faxrlanish tuyg‘ularini oshirish.		
Dars shakli (turi)	Nazariy-axborotli		
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘quv savollari	1. O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari qo‘shin turlarining vazifasi, tarkibiy tuzilish prinsiplari. 2. Qurolli Kuchlarning faoliyat asoslari.		
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	O‘zbekiston Respublika Qurolli Kuchlari qo‘shin turlarining vazifasi tarkibiy tuzilish prinsiplari, Qurolli Kuchlarning faoliyat asoslari bo‘yicha bilimga ega bo‘ladi.		
Tayanch so‘zlar	Qo‘shin, vazifa, tarkibiy, prinsip, faoliyat.		
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.		
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, markerlar, skotch.		
AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan o‘quv savollar bevosita fan bo‘yicha tutilgan daftarga B/B/B sxema asosida to‘ldiriladi.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

3-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Ichki xizmat nizomi
1-mashg‘ulot. Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari. Harbiy unvonlar. Boshliqlar va bo‘ysunuvchilar, kattalar va kichiklar

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Tayanch so‘zlar	Qon, usul, arteriya, tomir, nuqta, qo‘lbola, siquvchi bog‘lam (jgut), jarohat, bog‘lam, material, individual, paket.		
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.		
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish vositalari.		
AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	Oila a’zolari yordamida bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoqlarga sterilizatsiya qilingan bog‘lam bilan bir-ikki marta mashq qilish.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

4-mashg‘ulot. Amaliy. Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘llar singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarga suyak sinishi, uning belgilari, bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘llar singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullarini o‘rgatish; ularda jur’atlilik va insonparvarlik fazilatlarini rivojlantirish.		
Dars shakli (turi)	Amaliy-ta’limiy		
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘quv savollari	1. Suyak sinishi, uning belgilari. 2. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari. 3. Oyoq va qo‘llar singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullari.		
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	Suyak sinishi, uning belgilari, bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq va qo‘llar singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.		
Tayanch so‘zlar	Suyak sinishi, belgilari, bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq, qo‘l, tibbiy yordam, usul, jarohat, bog‘lam, material, individual, paket.		
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys-stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.		
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish vositalari.		
AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle
Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	Oila a’zolari yordamida bosh, ko‘krak, qorin, qo‘l va oyoqlarga sterilizatsiya qilingan bog‘lam bilan bir-ikki marta mashq qilish.		
Adabiyot va internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz		

VII. O‘QUV FAOLIYATINING YAKUNIY NATIJALARI

“Harbiy-vatanparvarlik va harbiy san’at tarixi” bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatining yakuniy natijalari

Harbiy-vatanparvarlik va harbiy san’at tarixi bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatining yakunida har bir o‘quvchi:

- harbiy-vatanparvarlik fazilatlarini namoyon etishi va harbiy san’atni rivojlanish tarixini bilishi;
- Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonlik jangchilarning va Vatanimiz mustaqilligi uchun jonlarini fido qilgan Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilarining ko‘rsatgan qahramonliklarini bilishi;
- milliy qahromonlarimizning ko‘rsatgan qahramonliklaridan faxrlanish tuyg‘ularini ko‘rsata oladigan va kindik qoni to‘kilgan, avlod-ajdodlarining xoki-poyi qo‘yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini a’lo darajada ado eta olishi;
- harbiy kasb qahramonlik kasbi ekanligini tushunishi va qadrlashi;
- shuningdek, yurtimiz osoyishtaligini saqlash yo‘lida oqilona tashabbus ko‘rsata oladigan jamiyatimizning fidoyi va vatanparvar a’zosi bo‘la olishi kerak.

“Harbiy xizmat asoslari” bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari

Harbiy xizmat asoslari bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuni bo‘yicha har bir o‘quvchi:

- O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi hamda “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunlari talablarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari umumharbiy nizomlarining asosiy talablarini;
- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil topishi tarixiy asoslarini;
- Qurolli Kuchlarning vazifasi, tarkibi, tuzilish prinsiplari, rivojlanish strategiyasini;
- harbiy okruglar hamda mahalliy harbiy boshqaruv organlari vazifalarini;
- harbiy xizmat turlari va harbiy xizmatni o‘tash hamda harbiy ro‘yxatda turish tartibini;
- harbiy unvonlar, farqlovchi belgilar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatchilarga qo‘llaniladigan rag‘batlantirishlar va intizomiy jazoni;
- harbiy intizom asoslarini, harbiy nizomning harbiy qism hayoti va faoliyatidagi o‘rni, harbiy xushmuomalalik qoidalari, o‘zini tutish va harbiycha salomlashish, askarning saf oldi va safdagi majburiyatlarini;
- harbiy jinoyat, harbiy xizmatdan bosh tortganligi uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik haqidagi asosiy qonun talablarini;
- oliy harbiy bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablariga qabul qoidalarini;
- muddatli harbiy xizmatchilarga belgilangan huquq va imtiyozlarni bilishi kerak.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning huquqiy holati; harbiy qasamyodning mohiyati, harbiy qism jangovor bayrog‘ining ahamiyati, harbiy jamoaning shakllanishi va jipslashuvining xususiyatlari, jangovor an’analarini puxta bilib, to‘g‘ri aytib bera olishi lozim.

Otish tayyorgarligi bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari

Me’yor (mashq)	Me’yorning nomlanishi (mashq)	Me’yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)	Baho		
			a’lo	yaxshi	qoni-qarli
Otish tayyorgarligi bo‘yicha					
1	Piyoda harakatlanganda turli holatlarda otish uchun tayyorgarlik ko‘rish (yotib, tizzalab, turib, pana joydan)	Shug‘ullanuvchi qo‘lida quroli bilan o‘t ochish marrasi (otish uchun joy) dan 10 metr masofada boshlang‘ich holatda turadi. Avtomat “tasmaga” holatida; o‘qdon 5 dona o‘quv patroni bilan o‘qlangan, o‘qdon uchun xaltacha tugmasi qadalgan holatida. Otish mashg‘uloti rahbari o‘t ochish marrasi (otish uchun joy) ni va otish holatini ko‘rsatib, “Jangga” komandasini beradi. Shug‘ullanuvchi otishga tayyorgarlik ko‘rib (qurolni jangovor holatga keltirib, uni o‘qlaydi), “Tayyorman” deb axborot beradi.	7 s	8 s	10 s
12	Qurolni noto‘liq qismlarga ajratish (AK-74)	Qurol maxsus joyda tayyor holatda. Shug‘ullanuvchi qurolning oldida shay holda. Nazorat me’yori bir nafar shug‘ullanuvchi tomonidan bajariladi.	13 s	14 s	17 s
13	Noto‘liq qismlarga ajratilgan qurolni yig‘ish (AK-74)	Qurol qismlarga ajratilgan. Qurolning qism va mexanizmlari tayyor holatda, tartib bilan joylashtirib qo‘yilgan. Shug‘ullanuvchi qurolning oldida shay holda. Nazorat me’yori bir nafar shug‘ullanuvchi tomonidan bajariladi.	23 s	25 s	30 s


www.idum.uz saytidan yuklab olindi

PNEVMATIK VINTOVKA, KALASHNIKOV AVTOMATIDAN OTISH VA QO'L GRANATALARINI ULOQTIRISH BO'YICHA MASHQLAR

Pnevmatik vintovkadan otish mashqlari

1-mashq

Qurol – IJ-22, IJ-38 rusumli ochiq pritselli pnevmatik vintovka:
– o'qlar –"Diabolo", "DS";
– otish masofasi – 5 m (stolning oldingi qirrasidan nishongacha bo'lgan masofa);
– nishon – qora doirali "P" nishoni;
– o'qlar soni – 3 ta o'rganish uchun, 5 ta sinov uchun;
– otish vaqti – chegaralanmagan;
– otish vaqtidagi holat – turib, stolga tirsakni tiragan holatda;
Baholash:
"a'lo" – qora doiraga 4 ta o'q tegsa;
"yaxshi" – qora doiraga 3 ta o'q tegsa;
"qoniqarli" – qora doiraga 2 ta o'q tegsa.



Nishon "P". Qora doiraning diametri 29 mm.

2-mashq

Qurol – IJ-22, IJ-38 rusumli pnevmatik vintovka;
– o'qlar – qo'rg'oshinli;
– otish masofasi – 5 m.;
– nishon – 8 raqamli nishon;
– o'qlar soni – 3 ta o'rganish uchun, 5 ta sinov uchun;
– otish vaqti – chegaralanmagan;
– otish vaqtidagi holat – turib, stolga tirsakni tiragan holatda;
Baholash: "
a'lo" – 40 ta ochko;
"yaxshi" – 35 ta ochko;
"qoniqarli" – 30 ta ochko;



8-raqamli nishon. Qora doiraning diametri 31 mm, o'nlikning diametri 1 mm.

AK-74 avtomatidan AK-1 otish mashqini bajarish. Yotgan joyidan harakatlanmaydigan nishonga o‘q otish


Nishon – harakatlanmaydigan ko‘krak nishoni (4 raqamli, 0,75×0,75 m o‘lchamdagi to‘siqda) yer yuzasi bilan barobar (yerdan ko‘tarilmagan) holatda o‘rnatilgan.

– nishongacha bo‘lgan masofa –100 m;
– o‘qlar soni – 3 ta, nishonga bittalab otish uchun.
– otish vaqti – chegaralanmagan.
– otish vaqtidagi holat – yotib tirsakka tayangan holda.

Baholash:

“a’lo” – o‘q 3 marta nishonga tegsa;
“yaxshi” – o‘q 2 marta nishonga tegsa;
“qoniqarli” – o‘q 1 marta nishonga tegsa.

Otish tugaganidan so‘ng otish bo‘yicha rahbar bajaruvchi bilan birga nishonni ko‘zdan kechiradi hamda yo‘l qo‘yilgan xatolarni ko‘rsatadi.



8-raqamli nishon. Qora doiraning diametri 31 mm, o‘nlikning diametri 1 mm.

Qo‘l granatalarini uloqtirish mashqlari

1-mashq

Turgan joydan parchalanuvchi qo‘l granatalarini aniqlikka uloqtirish

Nishon: 3 metr radiusli doirada yugurayotgan figura (8-raqamli nishon).
Nishongacha bo‘lgan masofa: 30 m.
Granata miqdori: Ikkita o‘quv granatasi.
Vaqt: 40 soniya.
Uloqtirish holati: Turgan joyidan tik turgan holatda.

Baholash:

«a’lo» – doiraga ikkita granatani tushirish;
«yaxshi» – doiraga bitta granatani tushirish;
«qoniqarli» – doiraga bitta granatani ikkinchi urinishda tushirish.

3-mashq

Turgan joyidan mudofaa qo‘l granatasini uloqtirish

Nishon: uchta hujumga o‘tayotgan tik turgan holatdagi o‘qchi figurasi yoki ochiq joydagi, front bo‘ylab 10 metr, orqa tomonga 5 metr enlikdagi belgilangan maydon ichidagi uchta o‘qchining tik turgan holdagi figurasi. Bunda belgilangan maydon 3 qismga: eni 1 metr bo‘lgan markaziy qism hamda eni 2 metrdan bo‘lgan yaqin va olis qismlarga ajratiladi. Nishonlarning ikkitasi markaziy qismning o‘rtasida, bittasi olis qismning o‘rtasiga o‘rnatiladi.

Nishongacha bo‘lgan masofa: 25 m.
Granata miqdori: Bitta o‘quv granatasi.
Vaqt: “Granata bilan o‘t och” komandasidan zapal portlaguncha 30 soniya.
Uloqtirish holati: xandaqdan, tik turgan holatda.
Baholash:
«a’lo» – maydonning markaziy qismiga tushirish;
«yaxshi» – maydonning olis qismiga tushirish;
«qoniqarli» – maydonning yaqin qismiga tushirish.

Qo‘l granatasini uloqtirish bo‘yicha yakka musobaqalar

Musobaqa o‘tkazish joyi – joydagi istalgan maydoncha. Start chizig‘idan 50 m masofada xandaq qazilgan. Okopdan 20 m uzoqlikda granata uloqtirish uchun o‘lchamlari 1,5 × 1,0 metrli (yerdan balandligi 0,4 m) taxtacha – nishon o‘rnatilgan. Boshlang‘ich holat – start chizig‘ida yotish.

1-variant. “Olg‘a!” buyrug‘i berilishi bilan 50 m masofani yugurib o‘tish. Okopga sakrab tushish va 600 g li parchalanuvchi qo‘l granatasi (yasama granata)ni 20 metr masofadagi nishonga uloqtirish. Musobaqa birinchi bo‘lib yutqazganni musobaqadan chiqarish tizimi bo‘yicha o‘tkaziladi. Musobaqa boshlanishidan avval qur’a tashlash yo‘li bilan ishtirokchilarning uchrashish tartibi aniqlanadi. Mashqlarni bajarish bir vaqtda ikki ishtirokchi bilan o‘tkaziladi. Juftlikda birinchi bo‘lib nishonga granatani tekkizgan ishtirokchi g‘olib hisoblanadi. Har bir ishtirokchiga ikkitadan granata beriladi. Agar ishtirokchi birinchi granatani tekkiza olmasa, ikkinchi granatani uloqtiradi. Agar ikkala ishtirokchi ham uloqtirilgan granatalardan hech birini nishonga tekkiza olmasa, ular mag‘lub hisoblanadi. Juftliklardagi g‘oliblar yana juft holda o‘zaro uchrashadi. O‘quv guruhi (bo‘lim) birinchiligi oxirgi juftlikda g‘olib bo‘lgan ishtirokchiga beriladi.

Kiyim-bosh turi – harbiycha avtomat bilan (avtomat maketi) va ikkita granatasi bilan granata sumkasi.

Yakkama-yakka musobaqalar boshqa sharoitlarda ham o‘tkazilishi mumkin.

2-variant. “Olg‘a!” buyrug‘i berilishi bilan 30 metr masofa yugurib, 20 metr masofa yerga yotib emaklab o‘tiladi. Okopga tushish va qolgan shartlar avvalgi qoidalar asosida amalga oshiriladi.

3-variant. 600 g li parchalanuvchi qo‘l granatasining o‘rniga 1 kg og‘irlikdagi tankka qarshi granatani 15 metr uzoqlikdagi nishonga uloqtirish.

4-variant. Musobaqani to‘siqlar maydonida o‘tkazish. Uloqtirishni 25–30 metr masofada o‘tkazish mumkin. Mashqlarni bajarish yugurish maydonchasiga joylashgan to‘siqlarni yengish bilan murakkablashadi.

Amaliy jismoniy tayyorgarlik bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari

Amaliy jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha (o‘smirlar uchun)					
Mashq № 1	10×10 metrga mokisimon yugurish	Sport kiyimida bajariladi	27.0 soniya	27.5 soniya	28.0 soniya
Mashq № 2	100 metrga yugurish	Sport kiyimida bajariladi	14.2 soniya	14.6 soniya	15.4 soniya
Mashq № 3	16 kg li toshni ko‘tarish	Sport kiyimida bajariladi	25 marta	20 marta	15 marta
Mashq № 4	1 km ga yugurish	Sport kiyimida bajariladi	3 daqiqa 30 soniya	3 daqiqa 40 soniya	4 daqiqa 10 soniya
Mashq № 5	3 km ga yugurish	Sport kiyimida bajariladi	12 daqiqa 40 soniya	13 daqiqa	13 daqiqa 35 soniya
Mashq № 6	700 g li granatani uloqtirish	Sport kiyimida bajariladi	40 metr	35 metr	30 metr
Mashq № 7	Kuch mashqlari majmuasi	Sport kiyimida bajariladi	52 marta	50 marta	46 marta
Mashq № 8	Turnikda tortilish	Sport kiyimida bajariladi	13 marta	11 marta	9 marta
Mashq № 9	Turnikda ko‘tarilib aylanish	Sport kiyimida bajariladi	6 marta	5 marta	4 marta
Mashq № 10	Brusda qo‘llarni bukib, ko‘tarilib tushish	Sport kiyimida bajariladi	13 marta	11 marta	9 marta
Mashq № 11	Erkin mashqlar majmui №1, 2 (birgalikda)	BJTning 340 moddasiga ko‘ra baholanadi (izoh)			
Mashq № 12	Chaqqonlik uchun mashqlar majmui (birgalikda)	Sport kiyimida bajariladi	9.2 soniya	9.6 soniya	10.0 soniya
Mashq № 13	Yagona to‘siqlar yo‘lagida umumiy nazorat mashqini bajarish (o‘smirlar)	Sport kiyimida bajariladi	2 daqiqa 30 soniya	2 daqiqa 40 soniya	2 daqiqa 55 soniya

Izoh:

340-modda (BJT). Agar raqamlarda ifodalanadigan me’yorlar bo‘lmasa, u holda mashq (usul) bajarilishi quyidagicha baholanadi:

«a’lo» – agar mashq (usul) qoidaga ko‘ra, oson va yengil bajarilib, qo‘pol xatolarga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lsa;

«yaxshi» – agar mashq (usul) qoidaga ko‘ra, ammo yetarli darajada ishonch bilan bajarilmagan bo‘lsa va ma’lum bir kichik xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa (harakat amplitudasi to‘liq emasligi, oyoqlarning qisman bukilishi va ochilishi, tana va qo‘lning bukilishi, kuch elementini bajarishda siltanish va tebranishlarga yo‘l qo‘yilishi, harakat sur’atini yo‘qotmagan holda snaryadga chiqish, yerga tushganda muvozanatni saqlay olmaslik);

«qoniqarli» – agar mashq (usul) qoidaga ko‘ra, ammo yetarli darajada ishonch bilan bajarilmagan bo‘lsa va qo‘pol xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa (harakat amplitudasi to‘liq emasligi, oyoqlarning to‘liq bukilishi va katta ochilishi, kuch elementining siltanish bilan bajarilishi, bajarish jarayonida to‘xtab qolish va ortiqcha tebranishlarga yo‘l qo‘yilishi, sakrab chiqishda bo‘g‘imlarda bukilish yo‘qligi, yerga tushganda yiqilish yoki qo‘llar bilan yerga tayanish yuzaga kelishi);

“qoniqarsiz” – agar mashq (usul) bajarilmagan bo‘lsa yoxud bajarish tartibi qo‘pol tarzda buzilsa (biror elementni bajarmasdan o‘tkazib yuborish, snaryaddan yiqilib tushish, tayanib sakrashda-bitta oyoqqa tayanish yoki qo‘lni noo‘rin ishlatish yuzaga kelsa).

“Harbiy ish asoslari” bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari

Me’yor (mashq)	Me’yorning nomlanishi (mashq)	Me’yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)	Baho		
			a’lo	yaxshi	qoni-qarli
Harbiy ish asoslari bo‘yicha					
1	Dushman inshootiga yashirin tarzda emaklab yaqinlashish	Harbiy xizmatchi yotgan holda otish uchun holatida bo‘ladi. Buyruqqa (signalga) ko‘ra harbiy xizmatchi 20 metr masofani plastuncha emaklab o‘tadi.	25 s	30 s	35 s
	Qisqa yugurishlar va emaklash bilan	Buyruqqa (signalga) ko‘ra harbiy xizmatchi 50 metr masofani: 15 metrini qisqa yugurishlar bilan, 20 metrni plastuncha emaklab, so‘ngra yana 15 metrni qisqa yugurishlar bilan bosib o‘tadi.	40 s	45 s	55 s

		Vaqt harakat uchun buyruq berilgan lahzadan to ko‘rsatilgan marraga yotib otish uchun shay holatga kelgunicha hisoblanadi.			
3	Dushman o‘t ochib turganda o‘q-dorilarni yetkazib berish: emaklab	Harbiy xizmatchi yotgan holda otish uchun holatida bo‘ladi. Komanda (signal)ga ko‘ra harbiy xizmatchi o‘q-dorilar solingan qutini oladi (o‘q-dori qutisi og‘irligi 26-30 kg) va yonboshlab emaklagan tarzda 20 metr masofani bosib o‘tadi.	35 s	40 s	50 s
	Qisqa yugurishlar bilan	Buyruqqa (signalga) ko‘ra harbiy xizmatchi o‘q-dorilar solingan qutini oladi va 40 metr masofani ikkita 20 metrlik qisqa yugurishlar bilan bosib o‘tadi. Vaqt “Olg‘a” buyrug‘i berilgan lahzadan ko‘rsatilgan marraga yetib olgunga qadar hisoblanadi.	30 s	35 s	40 s
2	Kunduzi nishonlarni axtarib topish	Kuzatuvchiga vazifa qo‘yilgan. Kuzatuvchidan taxminan 300–1500 metrda joylashgan 10 ta nishon ko‘rsatiladi. Har bitta nishon ko‘rsatilgan sektorda, belgilangan vaqt ichida 3 martadan, 1 daqiqadan ko‘p bo‘lmagan vaqt davomida ko‘rsatiladi. Nishonlarni topish, ularning joydagi o‘rnini hamda ulargacha bo‘lgan masofani aniqlash, ularni xaritaga tushirish hamda kuzatuv kitobida qayd etish. Vaqt “Nishonlar razvedkasini boshlang” komandasi berilgan lahzadan boshlanadi. Me’yorni bajarish uchun 35 daqiqa beriladi.	8 ta nishon	7 ta nishon	6 ta nishon

1	Joyda zaruriy yo‘nalishni aniqlash	Hujum azimuti (harakat yo‘nalishi) berilgan. Berilgan azimutga asosan yo‘nalishni ko‘rsatish. Xatolik 3° (0–50) dan oshmasligi kerak. Me’yorni bajarish vaqti azimut berilgan vaqtdan yo‘nalish haqida axborot berilguniga qadar davom etadi.	55 soniya	1 daqiqa	1 daqiqa 10 soniya
4	Azimutga ko‘ra harakatlanish	Bo‘linma (shug‘ullanuvchilar guruhi) niqoblanishga amal qilgan holda piyoda tarzda ko‘rsatilgan nuqtaga chiqadi. Joy o‘rtacha baland-pastlikdan iborat. Yo‘nalish masofasi 4 km, azimutlar 4 ta (kunduzi).	46 daqiqa	50 daqiqa	1 soat.
		Me’yorni bajarish vaqti harakatlanish uchun ma’lumotlar berilgan vaqtdan to yo‘nalishning yakuniy nuqtasiga chiqqunga qadar hisoblanadi. Agar joy juda ko‘p baland-pastliklardan iborat bo‘lsa, me’yorni bajarish uchun berilgan vaqt 1,3 baravarga oshiriladi.			

“Fuqaro muhofazasi” bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari

<table>
<tr><th rowspan="2">Me’yor (mashq)</th><th rowspan="2">Me’yorning nomlanishi (mashq)</th><th rowspan="2">Me’yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)</th><th colspan="3">Baho</th></tr>
<tr><th>a’lo</th><th>yaxshi</th><th>qoni-qarli</th></tr>
<tr><td colspan="6">Fuqaro muhofazasi bo‘limi bo‘yicha</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1</td><td rowspan="2">Gazniqob yoki respirator kiyish</td><td>Shug‘ullunuvchilar «yurish» holatida bo‘linma tarkibida jangovor marrada, jangovor yoki boshqa maxsus texnikada, jangovor harakatlarni olib borishmoqda yoxud dam olishmoqda.
Gazniqob va respiratorlar ham «yurish» holati tartibida.
Kutilmaganda “Gazlar” yoki “Respirator kiyilsin” komandasi beriladi. Shug‘ullanuvchilar gazniqob va respiratorlarni kiyishadi.
Vaqtni hisoblash komandasi berilgan lahzadan to gazniqob (respirator) kiyilib, nafas olish qayta tiklanib, bosh kiyimi kiyilgunga qadar davom etadi.</td><td>7 soniya / 11 soniya</td><td>8 soniya / 12 soniya</td><td>10 soniya / 14 soniya</td></tr>
<tr><td colspan="4">Eslatma. Kasr chizig‘i yuqorisida gazniqobni kiyish vaqti, pasida respiratorni kiyish vaqtlari ko‘rsatilgan.
Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar
1. Gazniqob kiyishda shug‘ullanuvchi ko‘zlarini yummasa, nafas olishni to‘xtatmasa – kiyib bo‘lgandan so‘ng to‘liq nafas chiqarilishini amalga oshirmasa.
2. Shlem-niqob qiyshiq kiyilgan bo‘lsa yoki ulovchi nay bo‘shab ketgan bo‘lsa.
3. Respiratorning qisqichi burunni mahkam siqib ushlab turmasa.
“Qoniqarsiz” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklar
1. Gazniqob shlem–niqobga tashqaridan havo kiradigan darajada qiyshiq kiyilsa yoki shlem-niqob chetlari buklanishiga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa.
2. Ulovchi nayning gaykasi oxirigacha qotirilmagan bo‘lsa.</td></tr>
</table>

4	Umumqo‘shin himoya to‘plami, himoya plyonkali kostyum va gazniqobni kiyish	Shug‘ullanuvchilar bo‘linma tarkibida zararlanmagan joyda (jangovor harakatlarni olib borish hududida, panagohda yoxud yopiq turdagi harbiy texnikada) turishibdi, himoya vositalari shug‘ullanuvchilarda. **a) “Yengli plash, paypoq va qo‘lqop kiyilsin”, “Gazlar”** komandasiga ko‘ra shug‘ullanuvchilar himoya plashi, qo‘lqopi, paypog‘i va gazniqobni kiya boshlaydilar.	3 daqiqa 30 soniya	4 daqiqa	4 daqiqa 30 soniya
		Eslatma. 1. Kasr chizig‘i ustida umumqo‘shin himoya to‘plamini kiyish vaqtlari, tagida himoya plenkali kostyumni kiyish vaqtlari ko‘rsatilgan. 2. Havo zaharlanishi holatida gazniqob birinchi navbatda kiyiladi.			
		b) “Himoya plashi, qo‘lqop, paypoqlar-kiyilsin”, “Gazlar” komandasiga ko‘ra shug‘ullanuvchilar himoya plashi, qo‘lqopi, paypog‘i va gazniqobni kombinezon ko‘rinishida kiya boshlaydilar.	4 daqiqa 35 soniya	5 daqiqa	6 daqiqa

Me’yor (mashq)	Me’yorning nomlanishi (mashq)	Me’yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)	Baho		
			a’lo	yaxshi	qoni-qarli
		Me’yorni bajarish uchun vaqtni hisoblash buyruq berilgan lahzadan to umumqo‘shin himoya to‘plami (himoya plenkali kostyumni) to‘liq kiyib bo‘lguniga qadar davom etadi. **Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar** 1. Himoya vositalarini kiyishda ba’zi qismlarni kiyish to‘liq amalga oshirilmasa. 2. Gazniqobni kiyishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa. “Qoniqarsiz” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklar. 1. Ikkita va undan ortiq qisqichli tugmalar qadalmagan bo‘lsa. 2. Gazniqobni kiyishda “Qoniqarsiz” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa (№ 1-me’yor).			
6	Yadro quroli portlaganda harakatlanish tartibi	Yadro portlashi to‘lqini yuzaga keltiriladi yoki “To‘lqin-chap (o‘ng)da” komandasi beriladi. Buyruq berilishi yoki yolqin ko‘rinishi bilan shug‘ullanuvchilar turgan joylarida yerga yotishadi. Agar 3-4 qadam masofada tabiiy xususiyatli panajoy yoki yopiq turdagi panagohlar bo‘lsa zudlik bilan u yerga kirib berkinishadi Vaqtni hisoblash buyruq berilgan lahzadan to shug‘ullanuvchilar zaruriy holatni egallagunlarigacha davom etadi.	2 soniya	3 soniya	4 soniya

		Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar 1. Qo‘l kaftlari tana ostiga yashirilmasa yoki yoqa ko‘tarilmagan bo‘lsa. **“Qoniqarsiz” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklar:** 1. Ochiq joyda shug‘ullanuvchi boshini portlash bo‘lgan tomonga qaratib yotib olgan bo‘lsa.			
8	“Kimyoviy trevoga” signaliga ko‘ra harakatlanish	Himoya vositalari shug‘ullanuvchilarning o‘zida. “Kimyoviy trevoga” signali beriladi: Shug‘ullanuvchilar gazniqobni hamda himoya plashini “yopinchiq” usulida kiyib joydagi vaziyatni kuzatishadi Agar bo‘linmadan 5-10 metr masofada panajoy (panagoh, ulovchi xandaqning yopiq joylari) bo‘lsa, shug‘ullanuvchilar gazniqobni kiyib uni egallashadi. Vaqtni hisoblash komanda berilgan lahzadan to shug‘ullanuvchilar gazniqobni kiyib, panajoyni egallagunlarigacha davom etadi.	35 soniya	40 soniya	50 soniya
		Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar: 1. Shug‘ullanuvchilar joy kuzatuvini amalga oshirmasa. 2. Gazniqobni kiyishda “Qoniqarsiz” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa (№ 1-me’yor). **“Qoniqarsiz” bahosini qo‘yishga sabab bo‘ladigan xatoliklar:** 1. Shug‘ullanuvchi himoya plashini “yopinchiq” usulida kiyganda tananing ba’zi bir qismlarini, kiyim-boshni va poyafzalni ochiq holda qoldirsa.			

“Tibbiy bilim asoslari” bo‘limi bo‘yicha o‘quv faoliyatning yakuniy natijalari

Me’yor (mashq)	Me’yorning nomlanishi (mashq)	Me’yor (mashq)ni bajarish mazmuni va shartlari (tartibi)	Baho		
			a’lo	yaxshi	qoni-qarli
Tibbiy bilim asoslari bo‘yicha					
1	Shaxsiy tibbiy bog‘lam jamlanma-sini ochish	Shug‘ullanuvchi yotgan holda qo‘lida jamlanmani ushlab turibdi. Komandaga ko‘ra jamlanmani ochadi va uni birinchi tibbiy yordamni ko‘rsatish uchun tayyorlaydi. Agar shug‘ullanuvchi jamlanmaning tibbiy jihatdan toza va yaroqliligini ta’minlay olmasa (jamlanmani yerga tushirib yuborsa va hk.) unda unga “qoniqarsiz” baho qo‘yiladi.	20 soniya	22 soniya	26 soniya
2	Birlamchi bog‘lamni qo‘yish: o‘ng (chap) ko‘zga bog‘lam	Yarador va shug‘ullanuvchi yerda yotishibdi. Jarohatni ochish uchun ketgan vaqt hisobga olinmaydi (harbiy kiyim-boshning ustidan bint bilan o‘rab bog‘lashga ruxsat etiladi). Bog‘lash materiali va boshqa birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish vositalari (jgut, shina) shug‘ullanuvchining qo‘lida yoki yonida turadi. Bog‘lam qo‘yishda vaqtni hisoblash tibbiy bog‘lam jamlanmasini ochish boshlangan lahzadan to bog‘lamni mustahkam (to‘g‘nog‘ich yoki yirtilgan bint uchlari bilan) biriktirib qo‘ygunicha davom etadi.	1 daqiqa 25 soniya	1 daqiqa 35 soniya	1 daqiqa 55 soniya
	o‘ng (chap) quloqqa bog‘lam		1 daqiqa 10 soniya	1 daqiqa 15 soniya	1 daqiqa 30 soniya
	Tirsak (tizza) bo‘g‘iniga bog‘lam		1 daqiqa 10 soniya	1 daqiqa 15 soniya	1 daqiqa 30 soniya

<table>
<tr><td rowspan="3">2</td><td>Yelka bo‘g‘iniga bog‘lam</td><td rowspan="3">Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar
1. Bog‘lam bo‘sh qo‘yilgan (bog‘lam osilib qoladi) yoki uni qo‘yishda buklanib, yig‘ilib qolishlarga yo‘l qo‘yilgan.
2. Bog‘lam mustahkam biriktirib bog‘lanmagan yoki bevosita bog‘lam tuguni jarohatning ustiga to‘g‘ri kelib qolgan.</td><td>1 daqiqa 15 soniya</td><td>1 daqiqa 20 soniya</td><td>1 daqiqa 35 soniya</td></tr>
<tr><td>Ko‘krakka “sakkiz-simon” bog‘lam qo‘yish (bitta bint va jamlanma yordamida qo‘yiladi)</td><td>2 daqiqa 10 soniya</td><td>2 daqiqa 20 soniya</td><td>2 daqiqa 50 soniya</td></tr>
<tr><td>Oshiq-boldir, tovon bo‘g‘imiga bog‘lam</td><td>1 daqiqa 5 soniya</td><td>1 daqiqa 10 soniya</td><td>1 daqiqa 25 soniya</td></tr>
<tr><td rowspan="2">3</td><td rowspan="2">Oyoqning son qismiga (yelkaga) qonni to‘xtatuvchi rezina jgut qo‘yish.</td><td>Shug‘ullanuvchi yaradorning yonida qo‘lida jgutni ushlagan holatda yotibdi.
Me’yorni bajarish jgutni mustahkam bog‘lab, uning qo‘yilgan vaqtini belgilab qo‘ygandan so‘ng to‘xtatiladi.</td><td>18 soniya</td><td>20 soniya</td><td>25 soniya</td></tr>
<tr><td colspan="4">Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar
1. Jgutni mumkin bo‘lmagan sohaga qo‘yish.
2. Jgut qo‘yilganda tagiga yumshoq taglik qatlam qo‘yilmagan, jgut terini zararlagan, shug‘ullanuvchi jgut qo‘yilgan vaqtni belgilamagan.
Jgut noto‘g‘ri qo‘yilganda (bo‘shab ketsa, sirg‘alib ketsa) u yana qon ketishiga olib keladi hamda yaradorning hayotiga xavf tug‘diradi. Bunday holatda shug‘ullanuvchiga “qoniqarsiz” baho qo‘yiladi.</td></tr>
</table>

4	Oyoqning son qismiga (yelkaga) ro‘mol va boshqa qo‘lbola vositalar yordamida o‘rama qo‘yish.	Bajarish shartlari hamda baho tushirilishiga sabab bo‘ladigan xatoliklar xuddi № 3 me’yorni bajarish tartibiga o‘xshash tarzda.	30 soniya	35 soniya	40 soniya
5	Oyoq va qo‘l suyaklari sinishida qo‘lbola vositalar yordamida shina qo‘yish: Yelka suyaklari sinishida	Yelka (boldir) qismiga shina qo‘yishda yarador yerda o‘tirgan (yotgan) holatda, shug‘ullanuvchi uning yonida o‘ziga qulay holatda joylashadi. Shina harbiy kiyim-bosh ustidan qo‘yiladi (shinani tayyorlash vaqti me’yorni bajarish vaqtiga kirmaydi). Boshlang‘ich bog‘lam qo‘yish talab qilinmaydi. Bog‘lash materiali va shina shug‘ullanuvchining yonida turadi.	2 daqiqa 20 soniya	2 daqiqa 30 soniya	3 daqiqa
	Boldir suyagi sinishida	Yelka suyagi sinishida shina qo‘yish me’yorini bajarish qo‘lni bog‘lam (bint, tasma) yordamida bo‘yinga osib qo‘yish bilan yakunlanadi; boldir suyagi sinishida shina qo‘yish me’yorini bajarish bog‘lamni mustahkam (to‘g‘nog‘ich yoki yirtilgan bint uchlari bilan) biriktirib bog‘lab qo‘yish bilan yakunlanadi.	2 daqiqa	2 daqiqa 10 soniya	2 daqiqa 35 soniya

<table>
<tr><td></td><td></td><td colspan="4">Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar
1. Shina to‘g‘ri qo‘yilmagan.
2. Shina yetarli darajada mustahkam qilib bog‘lanmagan.
3. Shina qo‘yish tartibiga amal qilinmagan.
Agar qo‘yilgan shina jarohatlangan qo‘l (oyoq) immobilizatsiyasini yetarli darajada ta’minlamasa, bunday holatda shug‘ullanuvchiga “qoniqarsiz” baho qo‘yiladi.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">9</td><td rowspan="2">Yaradorni xavfsiz joyga olib o‘tish</td><td>Yarador quroli va gazniqobi bilan chalqanchasiga yotibdi. Shug‘ullanuvchi yaradorning yonida, undan o‘ng (chap) tomonda turibdi. Me’yorni bajarish yaradorni 15 metr masofaga olib o‘tish bilan yakunlanadi. Shug‘ullanuvchi yaradorni olib o‘tishda plastuncha yoki chalqancha emaklash usulidan foydalanadi. Me’yor bir kishi tomonidan bajariladi.</td><td>1 daqiqa 20 soniya</td><td>1 daqiqa 30 soniya</td><td>1 daqiqa 45 soniya</td></tr>
<tr><td colspan="4">Bahoni bir ballga tushiradigan xatoliklar
1. Shug‘ullanuvchi emaklash jarayonida niqoblanishga e’tibor bermasa yoki joyning relyefidan samarali foydalana olmasa.
2. Yarador olib o‘tish jarayonida u yerga sirg‘alib tushsa.</td></tr>
</table>

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

ILOVALAR

1-ILOVA

HARBIY-VATANPARVARLIK VA HARBIY SAN’AT TARIXI

1-mavzu. Harbiy san’at tarixining shakllanishi

1-mashg‘ulot. Harbiy san’at tarixi. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Maqsad: ta’limiy, tarbiyaviy	O‘quvchilarga harbiy san’at tarixi, dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar va buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari haqida bilimlarini chuqurlashtirish. Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘ularinii shakllantirish.		
Dars shakli (turi)	Nazariy-tarbiyalovchi		
Ta’limning ish shakli	Jamoaviy, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash.		
O‘quv savollari	1. Harbiy san’at tarixi. 2. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar. 3. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati.		
Egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar	Harbiy san’at tarixi, dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar va buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari haqida chuqurroq biladilar. Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘ulari rivojlanadi.		
Tayanch so‘zlar	Harbiy san’at, harbiy, sarkarda, jangovar, buyuk mahorat, sodiqlik, ajdodlar, tuyg‘u, faxr.		
Ta’lim metodlari va texnologiyalari	Qisqa muddatli “Keys – stadi”, interfaol uslub va mashqlar, grafik organayzerlar.		
Ta’lim vositalari	Taqdimot slaydlari, tarqatma materiallar, darslik, o‘quv qo‘llanma, didaktik materiallar, markerlar, skotch.		
AKT va interfaol vositalar	kompyuter elektron doska smart-doska	proyektor televizor kolonkalar	www://dr.rtm.uz LMS Google Classroom o LMS Moodle

Mustaqil ta’lim uchun vazifalar	O‘rganilayotgan mavzu yuzasidan fikrlarni mustaqil bayon etish, shaxsiy mulohazalarni dalillash (misollar bilan asoslash). “FSMU” texnologiyasi.
Adabiyot va Internet resurslari	1. Darslik. 2. www.//dr.rtm.uz

O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:

o‘quvchilarga harbiy san’at tarixi, dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar va buyuk sarkardalarning jangovar mahoratlari haqida bilimlarini chuqurlashtirish. Vatanga sodiqlik va o‘z ajdodlaridan faxlanish tuyg‘ularinii shakllantirish.

O‘quv faoliyati natijalari:

- Harbiy san’at tarixi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ladi.
- Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar haqida biladi.

O‘quvchilar o‘quv faoliyatini baholash mezonlari

Og‘zaki nazorat: savol-javob, topshiriqlarni bajarish.
Joriy nazorat 5 baho.

O‘quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida beriladigan savollar

1. Harbiy san’at tushunchasini qanday izohlaysiz? Uning tarixi haqida bilasizmi?
2. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan nomdor sarkardalardan kimlarni bilasiz?
3. Tarixda yashab o‘tgan buyuk sarkardalarning jangovar mahorati haqida nimalarni aytib bera olasiz?

O‘rganiladigan o‘quv savollari

1. Harbiy san’at tarixi.
2. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar.
3. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati.

Mavzuga oid o‘quv materiallar

1.Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar.
2.Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati.

O‘QUV SAVOLLARINING MAZMUNINI O‘RGATISHDA QO‘LLANILADIGAN INTERFAOL USLUBLAR

Keys savollari

4-ilova. Harbiy san’at tarixi	
5-ilova. Dunyo miqyosida harbiy sohaning rivojlanishiga hissa qo‘shgan sarkardalar	
6-ilova. Buyuk sarkardalarning jangovar mahorati	

O‘QUV FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHNING TEXNOLOGIK CHIZMASI

O‘qituvchi:

Mashg‘ulot rahbari o‘quv materialining yangiligi va murakkabligini inobatga olib grafik organayzerlardan yoki interfaol uslublardan birini qo‘llaydi.

“INSERT” JADVALI

“INSERT” jadvalı – mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirish usuli; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish. Avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

O‘qituvchi:

1. Insert jadvalini to‘ldirish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yakka tartibda o‘zlari jadvalni to‘ldirish vazifasini beradi.
3. O‘qish jarayonida olingan ma’lumotlarni alohida o‘zlari tizimlashtirish - matnda belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq jadval ustunlariga kiritish vazifasini beradi:

“V”- men bilgan ma’lumotlarga mos;
“–“ - men bilgan ma’lumotlarga zid;
“+” - men uchun yangi ma’lumot;
“?” - men uchun tushunarsiz yoki ma’lumotni aniqlash, to‘ldirish talab etiladi.
4. Jadvalda yozilgan axborotni muhokamasini tashkil etadi.

O‘quvchi:
Insert jadvali bilan ishlaydi.

V	+	–	?

DIQQAT!

Insert jadvalining “-“ ustunini to‘ldirish uchun o‘quvchilar ushbu mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarga ega bo‘lishi va ushbu bilimlarni “Aqliy hujum” metodi yordamida faollashtirish kerak. Agar bilimlarga ega bo‘lmasa, ushbu ustun to‘ldirilmaydi.

KLASTER

(Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li- barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

O‘QUV FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISHNING TEXNOLOGIK CHIZMASI

O‘qituvchi:

1. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishtiradi.
2. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varog‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomini yozadi.

1-variant
Yakka tartibda quyidagilarni bajarish vazifasi beradi: birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar “yo‘ldoshlar” yozib qo‘shish. Ularni “asosiy” so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtirish. Bu “yo‘ldoshlarda” “kichik yo‘ldoshlar” bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.


Muhokama uchun klasterlar bilan almashishni taklif etadi.

2-variant
Yangi mavzuni tushintirish jarayonida klasterni jamoaviy to‘ldirishni tashkil etadi.

3-variant
Kichik guruhlarda klasterni ishlab chiqish vazifasini beradi.

Bajarilgan ishning taqdimoti va muhokamasini tashkil etadi.

Klasterning to‘ldirilgan namunasi



Topshiriq
FSMU – interfaol mashq

F – fikringizni bayon eting: …

S – fikringiz bayoniga birorta sabab ko‘rsating: …

M – ko‘rsatilgan sababni tushuntiruvchi misol keltiring: …

U – fikringizni umumlashtiring:

Harbiy mashg‘ulotlar nazariy, amaliy, ko‘rgazmali, taktik, taktik saf, nazorat shakllarida o‘qitilishi va ularning aksariyat qismi amaliy bo‘lib O‘zbekiston Respublikasinin Qurolli Kuchlari nizomlarining talablari asosida olib borilishi, otish tayyorgarliklari bo‘yicha mashg‘ulotlari o‘quv va jangovar qurollar bilan ishlash bo‘yicha ko‘rsatma va yo‘riqnomalar talablariga amal qilinishi, shuningdek mashg‘ulotlarning aksariyat qismi, o‘quv-moddiy baza bilan chambarchars bog‘liqligi, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarining o‘ziga xos tomonlaridan bo‘lib hisoblanadi.

Gap shundaki, harbiy ta’lim mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llanishi fanning o‘ziga xosligi tufayli kutilganidek yaxshi samara bermaydi degan xulosa qilish haqiqatga mutlaqo ziddir.

Ta’kidlash joizki, har bir mashg‘ulot rahbari tavsiya etilgan interfaol metodlarni saralashni bilishi, o‘rganuvchilarning faolligini oshirishda ta’lim shakllarining samarali va tejamliligini qo‘llay olishi hamda o‘zining pedagogik mahorati, ayniqsa mashg‘ulotga tayyorgarlik jarayoniga ijodiy yondashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu borada mashg‘ulot rahbari harbiy ta’lim prinsiplaridan og‘ishmagan holda o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashi, ta’lim berishning ilg‘or yangi uslublarini qo‘llashda orttirilgan tajribalarga tayanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Endilikda mashg‘ulot rahbariga mashg‘ulotlarni yuqori darajada tashkil etish va olib borish uchun ta’limni texnologiyalashtirish jarayonida faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olishlariga, shuningdek, kasbiy malakaviy talablarga og‘ishmay amal qilishiga to‘g‘ri keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik o‘quv fani dasturi, – 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent, – 2008.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, – 2002.
5. Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani bo‘yicha “O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz ta‘lim milliy o‘quv dasturlari” /Ta‘lim sifatini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi Ilmiy-metodik Kengashining 2021-yil 29-oktabrdagi yig‘ilishi (3-son bayonnoma).
6. Otish tayyorgarligi. O‘quv qo‘llanma, I qism. O‘RMV Jangovor tayyorgarlik boshqarmasi. – 2004.
7. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi III-qism. Guruh, seksiya, tank. (To‘ldirilgan va o‘zgartirilgan ikkinchi nashr), O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 2001-yil buyrug‘i bilan kuchga kiritilgan. O‘R MV. – 2010.
8. Guruh komandiri. O‘quv qo‘llanma. O‘R MV. – 2007.
9. Harbiy mashqlar va jangovar tayyorgarlik mashg‘ulotlari davomida amal qilinadigan xavfsizlik qoidalari. O‘zbekiston Respublikasi qurolli kuchlarining birlashgan shtabi. Jangovar tayyorgarlik boshqarmasi. – 2010.
10. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi. Toshkent, – 2007.
11. Наставление по физической подготовке. МО РУ, – 2020.
12. *Allayorov A., Tojiboyev Y.* Favqulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari. 2-nashri. T., “Zar qalam”, – 2005.
13. *Avliyaqulov N. X.* Pedagogik texnologiyalar. OO‘Y uchun darslik. “Cho‘lpon” NMIU, – 2012. – 208 b.
14. *Durmenov Sh.* Harbiy tarix. O‘quv qo‘llanma. –T.: TDPU bosmaxonasi, – 2020.
15. *Hasanov H.* ”Turon xalqlari harbiy san’ati”. Toshkent, – 2009.
16. *Mamatov I. I.* Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofazi. Toshkent, – 1997.
17. *Ro‘ziyeva D., Usmonboyeva M.* Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. Metodik qo‘llanma. Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti. – 2013. – 136 bet.
18. *Sotvoldiyev A.* Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fanini kasbiy sohalarga yo‘naltirib o‘qitish. O‘quv-metodik qo‘llanma. TDPU, – 2012.
19. *Sotvoldiyev A.* Chaqiriqqacha harbiy ta’limni tashkil etish va uning metodikasi. Fan va texnologiya, – 2010.

O‘quv nashri

CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinf darsligi
bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanma

(O‘zbek tilida)

Muharrir Anvar Zulpixarov

Dizayner Nafisa Sadikova

Texnik muharrir Shoxrux Turaxanov

Sahifalovchi Qobil Raufov

Musahhih Nilufar Oymatova

Bosishga ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8. Roboto garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i . Nashriyot-hisob tabog‘i .
Adadi nusxa. Buyurtma .